

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“Zardo'zlik san'atining tarixiy rivojlanishi”

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

BMI kafedraning № sonli qarori
« » 2012 yil bilan himoyaga ruxsat etilgan

Kafedra mudiri: _____

Fakultet dekani: _____

Ilmiy rahbar: _____

Buxoro – 2012

MUNDARIJA

Kirish	2 bet
I - bob.	
1.1. Zardo'zlik san'atining tarixiy rivojlanishi. .	5 bet
1.2. Buxoro zardo'zligi.....	9 bet
1.3. Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar.....	14 bet
1.4. Zardo'zlik san'atida tikish texnikasi.....	20 bet
1.5. Buxoro zardo'zligi qiyosiy tahlili.....	44 bet
1.6. Zardo'zlik terminlari lugati.....	49 bet
1.7. Kashtachilik san'ati tarixi.....	56 bet
1.8. O'zbekiston kashtachilik san'ati maktablari.....	58 bet
1.9. Kashtachilik san'ati turlari va tiqish uslublari.....	66 bet
1.10. Kashtachilik buyumlarining kompozitsion xususiyatlari.....	70 bet
1.11. Kashtachilikda naqshlarning qo'llanishi va kompozitsion masalasi.....	74 bet
1.12. Kashtachilikda ranglar axamiyati.....	78 bet
1.13. So'zana bajarish jarayoni.....	79 bet
1.14. Buxoro kashtachiligining qiyosiy tahlili.....	82 bet
II – bob.	
2.1. Kandakorlik san'atining umumiy tarixi.....	83 bet
2.2. Kandakorlikda qo'llaniladigan naqsh turlari va kompozitsiyalari.....	89 bet
2.3. Kandakorlikda ishlatiladigan xom-ashyolar va asbob-uskunalar.....	93 bet
2.4. Mis buyumlari va ularni bezashning texnik usuli.....	98 bet
2.5. Buxoro kandakorligi qiyosiy tahlili.....	103 bet
2.6. Kandakorlik san'atiga oid lugat terminlar.....	104 bet
2.7. Kulolchilik san'ati tarixi va rivojlanishi.....	108 bet
2.8. Kulolchilik texnologiyasi, unga naqsh kompozitsiyasini tuzish usullari va nazariyasi.....	114 bet
2.9. Buxoro kulolchiligi qiyosiy taxlili.....	131 bet
III. Xulosa	132 bet
IV. Adabiyotlar ro'yxati	139 bet
V. Ilovalar	141-150 bet

Kirish.

Mustaqil O'zbekiston jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan goyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash — davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Natijada xalqimiz o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadriyatlar va madaniyat sohibiga aylandi.

Yurtimizning istiqbolga erishishi milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi bilan bir qatorda, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atning naqqoshlik, ganchkorlik, yogoch o'ymakorligi, kashtachilik, badiiy kulolchilik, zardo'zlik, miniatyura san'ati turlari kabi zardo'zlik san'atida ham yangi amaliy ijodiy ishlar yaratilishiga hamda taraqqiy etishga keng yo'l ochib berdi.

O'zbek zardo'zligi, kashtachiligi, kandakorligi va keramika san'ati milliy madaniyatimiz, san'atimizning ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi. Asrlar davomida rivoj topib, shakllanib kelayotgan bu san'at turlari, o'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining alohida ahamiyatga egadir.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlaridan biri zardo'zlikdir. **Zardo'zlik** — zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do'zi (tikmoq) so'zini anglatadi.

Zardo'zlikni bilish uchun asosan quyidagi hunarlarni yaxshi bilishi kerak: 1. Rasm solish va naqsh chizishni; 2. Gul kesishni, ya'ni gulbur bo'lishni; 3. Kesilgan gulga zarni tika bilishi kerak;

Zardo'z quyidagi tartibda ishlaydi. Tikiladigan har bir buyum uchun alohida andoza tayyorlanadi va bichiladi. Axta va Xoka yordamida kartonga naqshi tushiriladi. Axta, ulgi, nusha - naqsh yoki rasmni oozga chiziqb, chiziq yo'llari igna bilan teshqilib, tayyorlangan andoza. Naqsh gullarini tuya bo'yin aychi yordamida kesib olinadi. Bunday ishni gulbur bajaradi. hozirda kartondan foydalanqiladi. Kartonni yuziga sari bo'z yopishtirilsa, bu holatda karton sinmaydi va bir tekisda chiqadi. Kartondan gul kesish tez va oson, zar bilan tikish ulay hamda sifatli bo'ladi. Gullar kesilib, chambarak tayyor bo'lgach,

ya'ni unga bo'zdan ilingan kerish tortiladi. Kerish ustiga tikiladigan buyum gazlamasiga adab chiqiladi. Gazlama ustidan uyqilgan gul bichilari surqilib ketmasligi uchun ular yirik avilar bilan chatib o'yqiladi. Odatda ta'vor ish batamom nioyasiga etgandan keyin olib tashlanadi. Usta zardo'z ikkita angishvona yordamida tikib ammamizga ayonki, zardo'zlik ikki o'l bilan tikqilib, ignasi kalta va nozik bo'lishi lozim. Tilla rangli zarni izil, sari iplar bilan, kumush zar ip bilan tikiladi. Zar ipni to'rt qavat qilib patilaga ya'ni zar ip o'raydigan cho'pga o'raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi.

Zardo'zlik ishi quyidagicha olib boriladi: dastlab zar ip bilan asosiy gullar, keyin toftado'ziy yoki simdo'ziy zar ip bilan gulning ismlari tikiladi. Bu iplarni berishimdo'ziy, ipak, sun'iy ipak ip aralashgan zarrin sim kabi nomlar bilan ataladi. Zargarlik ziynatlari, tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan muncholar, metall po'lakcha, bo'rtma naqshlar tikiladi. Shu tariqa gullarning barchasi tikilib bo'lgach, irolarini pishiina yigirqilgan zarrin ip tarir bilan nozik yo'l qilib, qator alachalar yordamida aylantirqilib chiqiladi. Gullarning girdini aylantirish bilan baravariga tikilmay olgan joylarni ham margula, tagalak (jingalak, spiralsimon jingalak nusxa gullar bilan to'ldirib bezatiladi. Erkak va ayollar kiyim - kechaklari, uy-ro'zor buyumlari zardo'zlik ishi tugashi bilan korcho'pdan birato'la olinadi. Ko'ylak kashtalari, poyafzal, do'ppilar, peshonaband, ro'mollar va bosha buyumlar qalinroq bo'lishi uchun teskari tomonidan elimda bir necha qavat gazlama yoki oz o'yib elimlanadi va tayyor buyum holatiga keltirib tikiladi.

Ma'lumki, xalqimiz asrlar davomida zardo'zlik bilan shugullanib kelgan. Bu san'at hunarmandchilikdan to san'at darajasiga ko'tara olgan va bizgacha boy madaniy meros bo'lib etib kelgan. Uni avaylab asrash, yanada sayqallash, qayta tiklash, takomillashtirish va kelgusi avlodga etkazib berish bugungi kun mutaxassislarining kelajak oldidagi burchidir. Mana shu burch mas'uliyati har bir hunar turining sir – asrorlarini ham amaliy, ham nazariy jihatdan juda chuqur, mukammal va keng qamrovda o'rganishni hamda tahlil qilishni taqazo etadi.

Zardo'zlik san'ati tarixi va amaliy jihatlarini o'rganish bo'yicha ko'plab san'atshunos olimlar va mutaxassislar shugullanganlar. Jumladan, P.A.Goncharova, S.Bulatov, M.Akromxo'jaeva, R.Akromxo'jaeva G.Pugachenko, L.Rempel, N.Sodiqovalarning zardo'zlik san'atiga oid ilmiy, amaliy ishlari e'tiborga loyiqdir. Mazkur izlanishlarda zardo'zlik san'ati tarixi, o'zbek zardo'zligi maktablari va ularning namoyandalari, zardo'zlik san'ati aks etgan badiiy buyumlar, naqsh namunalari, zardo'zlik asboblari, ulardan foydalanish usullari va tikish usullari haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Malakaviy bitiruv ishning nazariy qismi kirish, iqqita bob, xulosa, ilova va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.1. Zardo'zlik san'atining tarixiy rivojlanishi.

Zardo'zlik san'ati o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning Vatani hisoblanadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha erda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach, zar, ipak yoki jun ip qo'shib tiqilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Zardo'zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topib, zardo'zi kiyim-kechaklar faqat imperator a'yonlari va aslzodalarigagina mansub bo'lgan.

Sosoniylar davrida Eron podshohining saroyida ham zardo'zlik san'ati rivoj topgan deyishga asos bor, chunki bu mamlakat Vizantiya bilan muntazam madaniy va siyosiy hamkorlik qilgan. Hozirgi Eronda XV—XVII asrlardagi zardo'zlik namunalaridan anchagina yodgorlik saqlanib qolganligi badiiy an'analar uzoq yillar davomida rivojlanganligidan dalolat beradi.

Kadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib zardo'zlik san'atini o'rgangan.

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan Usmonli turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini hushganlar, Krim va Kavkazning qasridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt va kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha erda zardo'zlik ham rivojlanavergan. O'rta Osiyoda ham zardo'zlik san'ati, shubhasiz, o'zining chuqur ildiziga ega. Shu narsa ma'lumki, masalan, 1403—1406 yillarda Samarqandga sayoqat qilgan ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida, Temur saroyida zardo'zlikning milliy kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Esdalik sahifalarida elchilarni habul qilish marosimiga barishlab o'tkazilgan dabdabali ziyofatlar ta'rifini keltirib yozar ekan, zardo'zlik usulida tiqilgan ash'yolarni bir necha bor eslab o'tadi. Zar tiqilgan khrpa-to'shaklar, ipak matoga zar tiqilgan qimmatbaho darpardalar va chodirlar haqida batafsil hikoya etiladi. Klavixo erkaklar va ayollarning zar ipda tiqilgan va himmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyimlari haqida zavq bilan yozadi.

Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Hindiston safarnomasi» risolasida Shohruh 1442 yili Hindistonning Kalkutta viloyati hukmdori huzuriga yuborgan elchilaridan zardo'zi do'ppi ham sovga qilib berib yuborganini qayd etib o'tadi.

«Ishratxona» maqbarasi haqidagi 1465 yilgi hujjatlardan birida ham zardo'zlik buyumlari haqida eslab o'tilar ekan, «zardo'zi tiqilgan gunafsharang dasturxon (tuya junidan to'qilgan mato) astari malladan» va «zardo'zi tiqilgan gunafsharang darparda, astari malladan» degan satrlarga ko'zimiz tushadi.

Hirotda Alisher Navoiy davrida yashab ijod etgan Vosifiy o'zining risolalarida zardo'zlik kasbi tugrisida so'z yuritgan. Adabiy yig'inlarning qatnashchilari haqida gapira turib, Hasan zardo'z degan bir shaxsning nomini alohida uqdirib o'tadi va uni Hirotning eng obro'li, «istiqboli porloq yoshlari» qatoridan o'rin olganligini aytadi.

Podshoh Aleksey Mixaylovichning Abdulazizxon huzuriga yuborgan elchilari (1669—1671 y) Boris va Semen Pazuxanlarning hisobotida yozilishicha: elchilar Buxorodan jo'nash oldidan zardo'zi chopon, telpak va belbogg sovga olganlar. Bu esa zardo'zlik Buxoroda XVII asrdayoq rivoj topganligidan dalolat beradi.

XVII asrning oxirida yashagan samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo'zlik bo'lib, u zar ip bilan matolarga kashta tikkan. Shunday qilib hhozirgi kungacha Buxoroda saqlanib kelayotgan kashtachilik san'atining o'ziga xos va qiziqarli bu turi goyat uzoq davr mobaynida sayqal topgan va takomillasha borgan. Buxorolik zardo'zi ustalarining o'ziga xos sermazmun naqshlari, goyat nafis texnik uslublari, mukammal terminologiyasi, uzoq davrlar mobaynida sayqal topgan rangbarang choklarini nazarda tutsak bu san'atning tarixiy rivojlanish jarayonini tularoq tasavvur etishimizga imkon beradi.

XIX va XX asr boshlarida kashtachilik san'atining bir turi bo'lgan zarduzlik Buxoroning o'ziga xos xususiyatini aks ettirgan.

Mazmuni jihatidan xalqchil bo'lgan va qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo'zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o'rtasida keng tarqalgan ipak ip bilan kashta tikishga qaraganda nozik didni talab qilgan. Bu kiyim-kechaklar

asosan amir saroyidagilarning ehtiyoji uchun tiqilgan, ba'zangina shahardagi boy ayonlar uchun tayyorlanganlar.

Ota-bobosidan meros bo'lgan kashtachilik kasbi bilan shugullangan yuzlab qo'li gul ustalar Buxoro amirining hashamatli saroyidagi himmatbaho zardo'zi kiyimlarni tayyorlash bilan band edilar.

Buxoro zardo'zi ash'yolarining deyarli hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlatilardi, faqat juda oz miqdorigina sotish uchun bozorga chiqarilardi.

Erkaklarning zar bilan tiqilgan tun, kamzo'l, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog, salla, kuloh va jul faqat xonga va uning buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birontasi ham yuqorida aytib o'tilgan kiyimlardan hech birini o'ziga buyurtirishga haqi yuq edi, ular zarboft kiyimlarni amir sovga qilgandagina kiyishlari mumkin edi.

Ayollar va bolalarning zardo'zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning a'zolarigagina kiyish rasm bo'lgan. Bu kiyimlarni ular bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8—10 yoshdan katta bo'lmagan o'gil bolalariga sunnat tuyi munosabati bilan zarbof to'n kiydirishgan.

XIX va XX asr boshlarida, ya'ni 1785 yildan to 1920 yilgacha Buxoroda hukmronlik qilgan mangitlarning oxirgi sulolasiga taalluqli bo'lgan zardo'zi kiyimlari hhozirgi kunda bizgacha etib kelgan yagona yodgorlik nusxalardir.

Mangitlarning birinchi sulolasi vaqillariga mansub bo'lgan zardo'zi ash'yolar bizgacha deyarli etib kelmagan. Ammo Gaydar (1800— 1826 y) zamonidan yagona yodgorlik sifatida zardo'zi mahsi saqlanib qolgan. Mahsiga 1224 y raqami tiqilgan, bu melodning 1809—1810 yillariga to'g'ri keladi. Mazkur raqamning uchrashi shu paytgacha zardo'zi kiyimlarda ruy bergan yagona holdir.

Amir Nasrullodan (1827—1860 y) anchagina zardo'zi kiyimlar saqlanib qolgan. Buyumlarning ko'pchiligi 1895 yildan 1911 yilgacha hukmronlik qilgan Abdulahadga mansubdir, zero buxorolik kashtachilarning zardo'zlik san'ati shu davrda gullab yashnagan deb hisoblanadi.

Buxoroda zardo'zlik 1920 yil amir taxtdan agdarilguncha rasmiy jihatdan saroy san'ati hisoblanardi. Bu shaharda tayyorlanadigan zardo'zi buyumlarning deyarli hammasini egallab olgan katta buyurtmachini yo'qotgach, tabiiyki, zardo'zlik korxonalari keskin kamayib ketdi. Zardo'zchilar hunarmandchilik ustaxonalariga birlashib, mayda buyumlar, do'ppilar va ayollarning ayrim kiyim-kechaklarini tayyorlashga kirishdilar.

Zardo'z ustalar va ularning shogirdlari san'atlaridan ajoyib namunalar yaratdilar, unga yangicha mazmun, yangicha sayqal, yangicha kompozitsiya berdilar. Zardo'zlik ustaxonalariga jon deb a'zo bo'lib, tajribali usta kashtachilar ko'magida zardo'zlik san'atini tezda urganib oldilar. Kashtachilik san'atining tajribali ustasi, iste'dodli gulkor usta Omonjon Majidov va quli gul kashtachi usta Fayzullo Gaybullaevlar artelga kelgan yoshlar, ayniqsa, ayollardan mohir kashtado'zlar etishib chiqishida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar.

1.2. Buxoro zardo'zligi

O'rta Osiyoning boshqa hunarmandlari singari zardo'zlar ham o'rta asr hunar shirkatlari ko'rinishidagi maxsus tashqilotga uyushgan edilar. Zardo'zlar ishlari ustidan nazorat o'rnatuvchi bu tashqilot o'zining saylanuvchi ma'muriyatiga ega bo'lib, barcha rasm-rusumlar ga va urf-odatlarga izchil amal qilar, tantana va yigilishlar o'tkazib turar edi. Bulardan tashqari, u ko'proq diniy ruhdagi ba'zi qoidalar majmuasini hamda zardo'zlik hunarining kelib chiqishi haqidagi afsonaviy rivoyatlarni o'z ichiga olgan, mazmun e'tibori bilan stex ustaviga o'xshab ketadigan o'z risolasiga ham ega edi.

Amirlikning agdarilishiga qadar Buxoroda mavjud bo'lgan feodal davri ishlab chiqarish munosabatlariga xos bu barqaror korporastiyasiz zardo'zlik hunariniig qaror topishini tasavvur etish qiyin edi. Stex uyushmalariga kiruvchi ustalar ham iqtisodiy jihatdan, ham maishiy munosabatlar jihatdan bir-biri bilan uzviy bogliq edilar. Bunga ularning birbirlari bilan yon qo'shni, jon qo'shni bo'lib istiqomat qilganliklari ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Zardo'zlarning ko'pchiligi shaharning janubi-garbi qismida, Mirdo'stumbiy guzarida va tevarak-atrofdagi guzarlarda yashar edilar. Bozorbop buyumlar tayyorlaydigan ustaxonalarining katta qismi aynan shu Mirdo'stumbiy guzarida joylashgan edi.

Amirning saroy ustaxonalariga qarashli ustalar bilan bir qatorda xususiy ustaxonalarining egalari hamda ularga yollanib ishlovchi xalfalar ham mazkur stex uyushmalari tarkibiga kirar edi. Zardo'zlarning butun shahar stexi uyushmasi tepasida ular ichidan saylangan eng hurmatli va tajribakor kishilar turar edilar. Ularni bobo yoki oqsoqol deb atar edilar. Zargarlarning stex uyushmasi ichida (nisbatan oz sonli boshqa hunarmandchilik uyushmalarida bo'lgani singari) bobo u qadar muhim rol o'ynamagan. U faqat eng izzatli kishi hisoblanib, rasmiy ravishda saylab o'tirilmagan. Keyingi paytlarda u mutlaqo saylanmagan ham. Bobo diniyaxlohiy masalalar bilan shugullanib, ishi asosan uyushmadagi ishchilarinig xatti-harakatini kuzatish bo'lgan xolos. Bobo bo'lmagan paytlarda uing vazifasini oqsoqol bajargan.

Oqsoqol uyushma a'zolari turmushining iqtisodiy va maishiy jihatlarini bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman masalalarni hal etgan. Amir saroyi va amirlik ma'muriyati bilan munosabat o'rnatishda u stexning rasmiy vaqili bo'lgan. Ustaxonalararo yirik buyurtmalar olishda, taqsim qilishda va mahsulotni sotishda o'rtada turgan, ishchi kuchini taqsim qilishda yoki usta, xalfa, shogird va hokazolar o'rtasida paydo bo'lgan nizoli masalalarni hal etishda mutasaddilik qilgan. Ayniqsa, saroy ustalari taomilida bo'lmagan, ammo amir saroyi uchun zudlik bilan tayyorlanishi lozim bo'lgan zardo'zlik buyumlari yasashda ham, oqsoqol o'rtada turgan. Bular ro'mol, belbog, ayollar bezagi, xaltacha singari buyumlari bo'lib, ko'pincha ularni chakana ustaxonalarining egalari qilishgan. Bunday paytda amirning bosh amaldorlaridan qushbegi zarur buyumlarning ruyxatini oqsoqolga havola qilgan. Oqsoqol ularni xususiy ustaxonalar va yakka holda ishlaydigan ustalardan yigib olgan, narxini buyum egasining o'zi bilan kelishgan. Buyumlarni qushbegi mahkamasiga keltirib, pulini hisoblab olgan-da, ustalarning haqini to'lab, rozi qilib chiqqan. Amirning shahar tanqarisidagi Shirbudun (yoki Shirbadan) va Sitorai Mohi Xossa saroylarida har yili uyushtiriladigan bozor-saylida zardo'zlik buyumlarini sotishni tashqil etish ham oqsoqolning zimmasiga kirgan. Sitorai Mohi Xossada ikki hafta, Shirbudunda to'rt-olti hafta davom etadigan bu saylda ishtirok etishi hukumat tomonidan qonuniylashtirilgan, stex uyushmalari uchun vaqtinchalik savdo rastalari qurilgan

Uyushma a'zolarining turmushlari bilan bog'liq bo'lganishlardaham oqsholning ahamiyati katta bo'lgan. Chaaloh paydo bo'lganda, tuyda yo ulimda kimlarni aytish, nechta odam aytish, bunday marosimlar uchun nimalar olish, tuyona va kurmanalarga nimalar olib borish — hammasini oqsoqolning maslahati bilan qilingan.

Oqsoqolga xizmati uchun ma'lum haq to'lanmagan, sovga-salomlar tortiq qilish bilan kifoyalanganlar. Masalan, buyum sotgan ustalar unga choypuli berganlar. Saroy topshiriqlarini ado etgani uchun unga amir xazinasidan pul yoki to'n in'om qilingan. Navro'z bahonasi bilan o'tkaziladigan yuqoridagidek saylning nihoyasida hukumat nomidan oqsoqolga sarpom hamda saylda moli sotilgan kishilar

tomonidan pul hadya etilgan. Shogirdga oq fotiha berish, uyushma a'zolarining hovli yoki oila to'ylari munosabati bilan turli rasm-rusumlarni ado etishda rahnamolik qilgani uchun oqsoholga tunlar, matolar in'om etilgan.

Oqsoholga yordamchi hilib yana poykor ham tayinlangan. Poykor yosh ustalardan saylanib, xuddi oqsoqol va bobo singari, ma'lum maosh yoki haq bilan ta'miylanmagan. Unga ham uyushma a'zolarining tuyi, ulimi kabi marosimlarda boshidan oxirigacha qatnashganligi uchun xizmat haqi deb arzon mayu yoki arzon chopon berilgan, xolos.

Uyushma ustasidan uzluksiz va mashaedatli zhunar ta'limini olgan va bu zhunarda mustaqil ishlay boshlash uchun usta oq fotiha bergan kishigina uyushmaga a'zo bo'lgan.

Buxoro ustalarining zardo'zlik kasbi otadan bolaga meros bo'lib kelgan. Asli zardo'z bo'lgan oilaning ugil farzandi otasidan zardo'zlikni o'rganib, o'z navbatida u o'z bolalariga o'rgatgan. Pushti kamaridan o'gli bo'lmagan otalar bu kasbni eng yaqin qarindoshlariga o'rgatganlar. Kasbning avloddan-avlodga meros qolishi odatdagi hol bo'lganiga qaramay, zardo'zlik ham boshqa kasblar bilan bir qatordan o'rin olgan. Uning tarkibida biz misgarlarni ham, zargarlarni ham, dehqonlarni ham ko'rishimiz mumkin.

Zardo'zlik kasbini o'rgatish uchun 10—12, ayrim hollardagina undan kattaroq yoshdagi bolalarni jalb etganlar. Bolani usta oldiga olib borish o'ziga yarasha tantana bo'lgan. Bolaning ota-onasi va qarindosh-urgrlari buy degan bo'girsoq va holvaytar qilib, ustaning huzuriga kelganlar va «bolaning gushti sizniki, suyagi bizniki», qabilida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o'sha paytdayoq birgalikda tanovul etilgan.

Usta bolaga hunar o'rgatishdan tashqari butun davomida uni oziq – ovqat bilan ta'minlab ham turgan. Ikkala kelishuvchi tomon orasida yozma ravishdagi shartnomalar bo'lmagan. Kasb o'rgatish tekin olib borilgan. Yangi shogirdga chinakam ta'lim berish ishlarini usta birdaniga boshlayvermagan. Dastlabki paytlarda shogird uy yumushlariga qarashgan, ustaxonani supurib-sidirgan, suv tashigan, bozor-o'char qilgan, tikuvchilarga yordam bergan, ondasonda ish orasida,

uncha-muncha qatim tortib turgan. Oradan bir yil yo undan sal ko'proq muddat o'tgandagina unga tikish sirlari o'rgatila boshlangan. Shogirdga mablag to'lash borasida ma'lum qoida bo'lmagan. Hunar o'rgatish muddati ham cheklanmagan. Ta'lim berish 4 yildan 7 yilgacha davom etgan, bordi-yu, shogirdi o'ta qobiliyatli chiqib qolsa, bunday malakali ishchisidan mahrum bo'lishni istamagan ustoz uni 8—10 yilgacha ham saqlagan. Bunday paytlarda shogird oqsoqolni o'rta solib, ustasi tezroq ruxsat berishini so'ratgan. Bordi-yu, shogirdining talabi o'rinli bo'lsa, oqsoqol ustadan shogirdiga yo oq fotiha berishini yoki bo'lmasa mehnatiga haq to'lashi lozimligini aytgan. Albatta, shogirdga to'lanadigan hah xalfalarga tulanadigan haqdan ancha kam bo'lgan.

Norozilik paydo bo'lmasligi uchun usta qisqa vaqt ichida zardo'zlik sirlarini puxta egallagan layoqatli shogirdlariga ahyon-ahyonda chetdan ish olishiga mone'lik qilmagan. Gap shundaki, tushgan daromadning kattagina qismi ustaning cho'ntagini qappaytirgan, undan ortgani shogirdga qolgan.

Ta'lim muddatini o'tagan shogird ustozidan oq fotiha olgan. Shogirdning uyga qaytishi o'zi bir marosim bo'lgan. Uni «arvohi piri miyon bandon» deb atalib, kasb-hunar homiylarining ruhi qullab yursin degan ma'noni anglatgan. Bu marosim shogirdning zimmasiga tushib, zardo'zlik uyushmasi a'zolari ishtirokida uning uyida o'tkazilgan. «Shohi Mardon haqqiga belingga belbog bogladim»—deya fotiha o'qib usta shogirdining beliga belbog boglaydi va shu bilan unga zardo'zlik kasbi bilan mustaqil ish boshlayverishga ijozat beradi. Marosim kunida ustozga bosh-oyok; sarpo, tugun in'om qilingan. Bunday tugunlardan bobo, oqsoqol va poykor ham quruq hqoldirilmagan, albatta.

Ba'zi hollarda bechorahol shogirdlarini uzatar chorida usta ularga ishni oson boshlashlari uchun kergi (chambarak), qaychi, tayyor gul singari ashyo va buyumlardan berib yuborgan.

Bordi-yu, oq fotiha olgan shogird iqtisodiy jihatdan nochor bo'lib, mustaqil ish boshlashga ko'zi etmasa, ustozinikida qolib ishlashni so'ragan. Bunday holda unga xalfa tarzida ishlash huquqi berilib, har ikkala tomon ana shu shart asosida ish haqini kelishib olgan.

Feodalizm davridagi har qanday hunarmandchilik singari zardo'zlik ham muqaddas sanalgan. Go'yoki, zardo'zlikning kelib chiqishi ham ilohiyona emish: hazrati Yusuf eng birinchi usta zardo'z va eng birinchi ustoz, goyibona homiy va pir bo'lgan emish. Bu havda uncha katta bo'lmagan risola mavjud bo'lib, unda bu kasbning kelib chiqishi, qoidalari, har bir ishni boshlashdan oldin qiladigan duolar berilgan. Zardo'zlik kasbining homiysi «arvohi pir»ga siginish uzoq vaqtgacha qoida bo'lib keldi. Ilk bahor kunlarida, xususan «guli surx» ayyomida hamma zardo'zlar Buxoro yaqinidagi Bahovuddin qishlogiga kelib, pirning haqqiga so'yib, xudoyi qilganlar.

Usta zardo'zlarning aytishicha, yaqin-yaqingacha «pirzoda»lar bo'lib, ularni «risolachi» deyishgan. Haftada ikki marta, yakshanba va payshanba kunlari risolachi barcha zardo'zlik ustaxonalarini aylanib chiqqan va odamlarni to'plab, risola o'qigan, qilganlarini tafsirlab bergan. Odatda, qiroatxonlik dasturxon ustida davom etgan. Qiroatdan keyin risolachi tinglovchilardan tushgan uncha-muncha nazr-niyozni belbogiga tukkan-da, fотиha o'qib, navbatdagi ustaxonaga yo'l olgan.

1.3. Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar.

XIX—XX asr boshlaridagi zardo'zlik ishida chetdan keltirilgan turli xil fabrika materiallari singari mahalliy jaydari gazlamalardan ham foydalanilgan. Bizgacha etib kelgan zardo'zlik materiallarining juda ko'pchiligi, xususan, erkaklar choponlari chetdan keltirilgan, Barqutlardan tiqilgan. Bular ichida baxmal birishim eng a'lo navi hisoblanib, to'nlar uchun faqat shundan foydalanganlar. Baxmali farangi deb atalgan rus barquti ham keng iste'mol qilingan. Bu gazmol garbiy Evropadan Rossiya orqali keltirilgani uchun baxmali zagronish (zagranichniy) deb atalgan. Bunday Barqutlar sidirga rang, yo'l-yo'l, katak-katak, bosma gulli va hokazo navlarga ega bo'lgan. Sidirga Barqutlarning ba'zi afzalliklariga qaramay, sho'x gulli barqutlar ko'proq xaridorgir bo'lgan. Barqutlar goyat rang-barang tusda bo'lsa-da, biroq qizil, binafsha, yashil va ko'k rangdagilari kishilarga ko'proq eqqan. Qizil va binafsha rangdagi goyat tekis barqutlar ayollar va bolalar kiyimlari uchun hullanilgan. Sof ipak barqutdan tashqari baxmali musi degan silliq, yarmi ipak barqut erkaklar choponidan boshqa barcha buyumlar uchun keng qo'llanilgan. Zardo'zlik gullari tushirilgan Buxoro baxmali joydor (jaydari) barquti nisbatan keng qo'llanilgan. Uning ikki rangdagisi, ya'ni to'q qizil va to'q yashil tusdagilari jul va poyafzal tikishda ishlatilgan.

Zardo'zlik uchun barqutdan tashqari shoyi, atlas, doka, surp, movut, jaydari olacha va nihoyat, teridan foydalanilgan. Buxoroda ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan jaydari tekis shoyilar kabi turli-tuman navdagi barcha shoyi gazlamalar ayollarning ustki kurtkasi, erkak va ayollar kiyimlarining ayrim qismlari (ro'mol va belboglar) tikishda ishlatilgan. Erkaklar zarboft to'nlarini tikishda shoyi kam qullanilgan, ayniqsa silliq yoki yo'l-yo'l urusiy shoyisi mutlaqo yaroqsiz hisoblangan. Atlas buyumlarga zardan gullar tiqilmagan, bu, ehtimol, atlasning zarga chidamsizligidan, sitilib ketishidan bo'lsa kerak. Sidirga va gulli atlasdan, asosan, ro'mol va belboglar tiqilgan. Buxoro zardo'zligida dokadan faqat salla qilingan. Buxoro shahar ahlining katta qismi fabrikada to'qilgan turli navdagi dokadan oq rang salla uragan. Zardo'zlik sallalar ichida Istambul (aftidan Angliyaniki bo'lsa kerak) dokasidan qilingan salla keng qo'llanilgan. O'zining

mahkamligi, mayinligi bilan ajralib turuvchi bu gazmolni doka misqoniy yoki doka xanjariy deb atalgan. Barqutga nisbatan surp buxoroliklar turmushida juda kam qo'llanilgan. Zardo'zlikda surpdan faqatgina chakmon, jul, onda-sonda poyafzal tayyorlashda foydalanilgan. Faqat erkaklar ustki kiyimlari tikishda jaydari bilan bir qatorda hindlarning kashmiriyi singari chetdan keltirilgan movut keng qullanilgan. Buxoro ahlining faqat oliy saroy qatlamlarida mavjud bo'lgan Kashmir gazmollaridan qizil, ko'k, yashil tun va sallalariga zardan gullar tiqilgan. Jaydari movutlar zardo'zlik uchun ishlatilmagan. Yarim shoyi jaydari olacha gazmoli zardo'zlikda deyarli barcha buyumlar tayyorlashda ishlatilgan. Undan asosan uy-ro'zgor buyumlari: **so'zana, takiyapo'sh, joynamoz**, lo'la-bolishlar jildi tiqilgan. Olachadan erkaklar choponi kamdan-kam tiqilgan. U asosan, ayollar va bolalar kiyimi tikishda ishlatilgan. O'zining yuqori sifati bilan ajralib turuvchi Qarshi olachasi zardo'zlik uchun eng qulay gazmol hisoblangan, Usta Mullo degan qarshilik ustaning olachalari, ayniqsa mashhur bo'lgan. Turli-tuman ranglardagi sidirga olachalar zardo'zlikda keng qo'llanilgan, biroq sham'iy olachasi zardo'zlarning eng sevgan gazmoli bo'lgan. Zardo'zi teridan faqat ayollar kovushi tiqilib, uni mahsi bilan kiyilgan.

Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom ashyo bo'lib hisoblangan. Gazmollarga gul tushirish uchun foydalaniladigan zar va kumush iplar tayyorlash tarixi goyat uzundur. Bu usul qadimgi Misr va Vaviloniya (Bobil)da ko'pdan ma'lum edi. Dastlabki paytlarda «urama oltin» deb atalgan ingichka oltin sim ishlab chiqarilar edi.

O'rta Osiyoda ham oltin ip ishlab chiqarilganmi yuqmi, bu savolga hali javob topilganicha yuq. So'nggi yillar ma'lumotiga ko'ra, bu mahsulot eng ko'p ishlab chiqarilgan joy Dehli shahri bo'lib, Hindiston chet ellarga shu mahsulotni ko'plab chiqarar ekan. Oltin iplarning bir navi **sheroziy** deb atalganiga asoslanib, u Erondan keltirilganini taxmin qilish mumkin.

Biroq Buxoro zardo'z ustalarining ma'lumotlariga binoan XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab zar iplar faqatgina Moskvadan keltirilgan. Bundan bir oz

muqaddam esa bu ip Angliyadan keltirilganligi haqida uzoq-yuluq ma'lumotlar uchraydi.

Sharqdan Rossiyaga zar iplar XVII asr boshlarigachagina keltirilar edi. Bu davrda Moskva podshohlarining saroylarida nemis ustalari yordamida zar va kumush iplar ishlab chiqarish yo'lga quyilgan edi. 1623—1630 yillarda rus ustasi simgar Yuriy Kovalev nomi ham tilga olinadi.

Buxoro bozorlarida o'nlab navdagi zar va kumush iplar keltirib sotilardi. Goyat momiq zar tolalar buxorolik zardo'zlar tilida **kalyobatun** nomi bilan mashhur bo'lib, u goh zar, goh kumush ip o'rnida qo'llanilavergan. U yoki bu navni ajratish zarurati tugilib qolsa zar ipga tilla, kalyobatun, kumush ipga kalyobatun safed (ok) deb atalardi.

Kalyobatunning asosini tashqil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo'lgan. XIX asr 30—70 yillarda tiqilgan buyumlardagi zar ip ko'p hollarda turlicha tovlanuvchi sariq, ya'ni tillarang ipdan yigirilgan. 80-yillarda tuq sarih tusdagi ipak ip qo'llanilgan. U matoning rangi uniqqan joyida zarrin ip bilan birgalikda tiqilgan chogda ko'zga yaqqol tashlanib turgan. 90-yillar zardo'zligida esa tuq sargish tusdagi shoyi ip bilan qo'shib tiqiladigan tillarang ip iste'molda saqlanib qolgan, shu bilan bir qatorda qizgish-sariq va yarqiragan qizil tusga asoslangan zar tolalar ham paydo bo'lgan. Shu tarifa turli rangdagi iplardan tashqil topgan kalyobatun galma-galdan birgina buyumning o'zida uchrayvergan. 1900 yillar davomidagi zardo'zlikda alvon tusli ipni to'q jigarrang va och jigarrang tusdagi iplar egallaydi. XX asrning 10-yillaridan ipak kalyobatunning rang-barangligi bardam topadi va xuddi XIX asr 80-yillaridagi singari tuq sariq tusdagi iplar ishlatila boshlanadi. XX asrning 10-yillariga kelib, paxtalik sariq ipga qo'shib yigirilgan xiyla past navdagi zar ip paydo bo'ladi. Bu xildagi ip bilan erkak va ayollarning bosh kiyimlari tiqilgan. Boshqa turdagi har qanday zardo'zlik buyumlari oliy nav zar iplarda tiqilavergan.

Oq va tillarang tusdagi yassilangan kumush tola sim deb atalib, u Buxoro zardo'zlari tomonidan keng qullanilgan. Kalyobatun bilan sim buxoro zardo'zligining asosiy xomashyosi hisoblangan. Ayniqsa, kalyobatun XIX asrning

eng boshidan shu paytgacha bo'lgai davrga oid barcha buyumlarda uchraydi. Hatto bu nav ip Buxoroga dastlab keltirilgan 1893 yillarga oid zardo'zlyk buyumlarida ham uchraydi. Shundan keyin ham bu ikki tur ipning keng iste'mol qilinganini ko'ramiz. 1893 yildan keyingi Buxoro zardo'zligida ayrim gul va kashtalarda bir necha nav zar iplar qo'llanilgan. Bu ip kalyobatuni yak naxi o'rusi halli baland, ya'ni «obdon tilla suvi yugurtirilgan bir yo'lli rus kalyobatuni» deb atalgan. Bu ip odatdagidan ancha yo'gon bo'lib, tilla suvi yurgizilgan sof kumush simni alvon tusli ipak ipga qo'shib yigirilgan. Bu ipak ipning nomi esa kalyobatuni jingili o'rusi, ya'ni «jingalak rus zar ipi» deb atalgan. Tarkibi 84 prostentli kumush tolaga obdon tilla suvi yugurtirilib, tuz sariq yoki qizgish-sariq ipak ipga qo'shib yigirilgan. Uning xiyol gijim, to'lqin-tulqin sathiga ega bo'lishi silliq sathli odatiy zar ipdan farqlab turgan. Sherozi urusi du toba, ya'ni «sherozi urusi qo'shtanobi» deb atalgan ip ham tilla suvi yugurtirilgan yuqori nav kumush toladan qilingan. («O'rusi» so'zi «fabrika» o'rnida qo'llanilib, u bunday iplarning qo'lda yigirilgan «sheroziy» nusxasidan boshqa ekanligidan nishonadir).

Zar ipning likkak turi shoyi ip qo'shmay pishiq yigirilgan ingichka simdan iborat bo'lib, u Buxoro ustalari tomonidan onda-sonda ishlatilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya fabrikalarida chiqarilgan zar iplar keng qo'llanila boshlandi. Buxoro bozorlarida dastavval Malyutin fabrikasining iplari paydo bo'lgan edi. Biroq yo'gon, zardo'zlikka yaroqsiz bu ip keyinchalik «Aleksiev va K» fabrikasida chiqarilgan ancha mayin va tikishga qulay ip tomonidan batamom siqib chiqarildi. So'ngra esa V. Vishnyakov va A. Shamashinlarning savdo uyi ishlab chiqargan zar iplar paydo bo'ldi. Turli-tuman fabrikalardan chiqqan barcha zar iplarning bahosi bir xil bo'lib, ularni Buxoro bozorlarida attorlar sotishgan Zar iplardan tashqari zardo'zlikda jaydari rangdor npak iplardan ham foydalanilib, ular, asosan, gullarga qo'shimcha oro berishda hamda matoga zar yo'l tushirishda ishlatilgan. Bunday ishlar uchun zarning rangiga yaqin bo'lgan sariq, to'q sariq, qizgish sariq, jigarrang, ayrim hollardagina boshqa rangdagi ipak iplardan foydalanilgan. Ayniqsa, birishmi tillo chor tor, ya'ni «to'rt yo'lli zar ip» degan eng yaxshi sifatli ipak ip mashhur bo'lgan. Har bir ipak

ip ikkiga bo'linib, ikkita qilib eshilgan. Kumushrang gullar tikish uchun oq ipak ipdan foydalanilgan.

XIX asrning 90-yillari boshida zardo'zlikda 40-rasponi pechak galtak ip paydo bo'ladi. Ranglar tovlanishi xuddi ipakdagi singari bo'lib, faqat unga qizil va tuq qizil ranglar ham qo'shilgan. Ko'p o'tmay o'ta qimmatbaho zardo'zlik buyumlarida ishlatiladigan ipak o'rnini mana shu galtak ip egallaydi. Ba'zi hollar-da bitta buyumning o'zida ham u, ham bu ipni kuzatish mumkin.

Zardo'zlikda quyidagilar qullanilgan: barqut va ipak aralashma matosi, pulakcha deb ataluvchi o'rtasi teshik mayda oq, sariq piston (pirpirak)lar, mahalliy zargarlar ishlagan, odatda edra sir va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan zarhal tugalar, turli nav oltindan zardo'zlarning o'zlari yasagan zargarlik taqinchoklariga o'xshab ketuvchi olmos hubbalar deb atalmish bo'rtma naqshlar, dur va qimmatbaho toshlar.

Zardo'zlik qurollari unchalik ko'p emas. Chambarak, ya'ni korcho'bning tun, jul va mayda-chuyda buyumlar uchun muljallangan uch turi ma'lum. Ular tuzilishi jihatidan bir xil bo'lib, faqat hajmlarining katta-kichikligi bilangina bir-biridan farq qiladi. Korcho'b uzunligi 320 santimetrgacha bo'lgan ikki tengyonli silliq yogoch dastadan iboratdir.

Korcho'bning uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin bo'lgan. Chambarakka bo'zdan qilingan kerish, ya'ni ta'var tortilib, u tikib tayyor bo'lgan buyum bilan birga chiharib olingan. Korchubda chordona kurgan holda erda utirib ishlangan.

Ipni dumaloqlash (o'rash) uchun qattih yorochdan qilingan, uzunligi 20 santimetrdan bo'lgan, to'rt qirrali patiladan foydalanilgan. Ichiga qo'rgoshin solib vazminlashtirilgan bunday patilalar ipni zich qilib o'rashni ta'minlagan.

Zardo'zlik ishi chogida ikki xil angishvonadan foydalanilgan. Biri oddiy fabrika angishvona bo'lib, uni qulning o'rta barmogiga, ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasaliib, chap qo'lning o'rta barmogiga taqilgan. Ikkinchi angishvonaning ba'zan fabrikadan chiqqani ham bo'lib, u metaldan yasalgan. Ikki xil qaychi bo'lgan: biri qaychi ushtur gardan, ya'ni «tuya buyin qaychi» bo'lib,

egikligidan tuyaning buynini esga soladi. Ikkinchisi oddiy uy-ruzgorda ishlatiladigan metall qaychidir. Ignalarning fabrikadan chiqqan, o'rtacha kattalikdagilari ishlatilgan.

1.4. Zardo'zlik san'atida tiqish texnikasi.

Poshsholik ustaxonalarida zardo'zlikka mo'ljallangan har bir buyum, tikuvchining qo'liga kelib etguncha, dastlabki, murakkab va uzoq davom etuvchi ishlovdan chiqarilgan. Ustaxona bichiqchisi xosai bardor har bir buyumni andozasiga moslab bichgan. Bichiqdan chiqqan mato qogozga chizilgan andoza tarhi bilan birgalikda ustaxonaga keltirilgan.

Tarhkash tomonidan tayyorlangan andozalar amirga namoyish etilgan va uning ruxsati bilangina zardo'zlarga uzatilgan. Amir shaxsan istifoda etishi kerak bo'lgan har bir buyum uchun alohida andoza tayyorlangan. Mato bilan andozani olgach, ustalar andoza tarkibida bo'lgan kashtalarning ma'lum miqdordagi ayrimayrim qismlari uchun tayyorgarlik ko'rganlar, ya'ni tikish uchun to'shama (pilta) qilganlar. Buning uchun odatda qalin oq qogozga qora bo'yoqda chizilgan andoza shaklini igna bilan chekib chizilgan, uni teriga, kartonga yoki qalin qogozga yoyib, ustidan ko'mir kukuni sepilgan va shu tarifa andoza shakli ko'chirilgan. Ko'chirilgan shaklni qora buyoq yoki qalam bilan qaytadan chizib chiqilgan-da, tuya buyin qaychi bilan qiyilgan. Bunday ishni, odatda, gulbur bajargan. Bir kishi eplashi qiyin bo'lgan katta ishlarda tikuvchilar ichidan ba'zilar gulburga yordamlashib yuborgan. Gullar kesilib, chambarak tayyor bo'lgach (ya'ni ta'vor pishiq o'ralgan bo'lgach), korcho'blarda bichiqdan chivdan matoni tikishga kirishganlar.

Odatda ta'vor ish batamom nihoyasiga etgandan keyin olib tashlanadi. Ba'zan ish engil kechishini uylab, bundan tashqari matoga zar qatim qalin tushishini nazarda tutib, bo'z taglikni tikishdan oldin olib tashlaganlar, Tiqilayotgan matoni tarang tortib va uni bo'z taglikka tengma-teng rostlab, korcho'bni har tomondan aylantirganlar. Tiqilayotgan mto faqat astar ustida barqaror bo'lishi uchun taglikni kiyib chiqqanlar. Goho buyum batamom qo'ldan chiqqandan keyin bo'z taglikning bir kismini olib tashlangan. Bunday holda taglikning tikish uchun zarur qismi joyida qoldirilib, ortigi olib tashlangan.

Erkak va ayollar kiyimi, ot jullari va ruzgororbop buyumlar (so'zana, yostiq jildlari, joynamozlar) alohida korchublarda yoki bitta korcho'bda qismlarga ajratib

tiqilgan. Chopon tikishning uch yo'li mavjud bo'lgan: avval choponning yarmi, bir bari bilan orqasining yarmi tiqilgan. Bunda bar bilan orqani korcho'nga bor bo'yicha yoyib tortish mumkinligi ko'zda tutilgan. Choponning qolgan ikki yarmi elkaning o'rtasidan ulangan, andoza oxirigacha tushirilib, to buyingacha bo'lgan hamma joylar puxta tikib chiqilgan. Englar boshqa korcho'blarda alohida tiqilgan.

Ot jullarini bitta korcho'bda ikki yo'l bilan tiqilgan, avval uning pastki qismi tiqilgan, uning yuqori qismini nay ichiga qayirib, tikib quyilgan. Kashtalari qo'ldan chiqan qismi esa buklab quyilgan. Ishning dastlabki jarayoni tugashi bilan julning yuqori, ikkinchi qismini tikishga o'tilgan. So'zana, yostiq jildlari va joynamozlar ham xuddi shu tarzda tiqilgan.

Dastlabki tayyorgarlik ishlari bajarilib, mato taglikka yopishtirib bo'lingach, teridan, kartondan yoki hogozdan qirqilgan kashtaga yopishtirishga kirishganlar. Kashta hajmini zhoshiyadan hisob qilishgan. Bo'r surilgan qo'sh tanob bilan hoshiya chekkalarini chizib chiqqanlar. Hoshiyani har ikki tomondan chegaralab turuvchi ensiz obadan tikish ishi boshlangan, hoshiya ichlari zham shundan keyingina gulga to'ldirib chiqilgan. Mato ustidan quyilgan charm yoki qogoz gul bichihlari surilib ketmasligi uchun ular yirik qaviqlar bilan chatib qo'yilgan. Hoshiyalar tikib bo'lingach, kashtaning markaziy qismini to'ldirishga kirishilgan. Matoda gullarning o'rni-urnini topib qo'yish, xususan kiyimlardagi gullarni joylashtirib chiqish goyatda murakkab va mas'uliyattalab ishdir. Korchub tayyorlovchi usta sar korcho'b darkash matoga gullarni joylab chiqqan, buning uchun u zo'r o'quv va malakaga ega bo'lishi talab etilgan. U tez vaqt ichida va hech bir kamchiliksiz kashtalanishi kerak bo'lgan maydonni shunday to'ldirishi lozim bo'lganki, juda ko'p ayrim-ayrim tayyorlangan gul qismlaridan oxir-oqibatda yagona mukammal kompozitsiya yuzaga kelgan. Buning uchun butunicha sigmay qolgan gullarning ayrim bo'laklari qo'yi qismga yoki ostidan tushirilishini nazorat qilib turganlarki, ular kiyimning ko'zga yaqqol tashlanishi mumkin bo'lgan ochiq joyida o'rnashib qolmasin. Xususan, amirning o'zi uchun mljallab tiqilgan buyumlarda bu narsaga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshganlar. Aks holda kiyimni butunlay boshqqatdan bichib-tikishga tugri kelgan. Kiyimni necha bor

haytadan tiqilgan dollar ham uchrab turgan. Mazkur albomning 8 raqamli rasmda kursatilgan choponlardan biri to rasamadida bo'lgunga qadar uch qayta tiqilgani ma'lum.

Buyumga boshdan-oxir kashta tarhi tushirib bo'lingach, nihoyat, tikishga kirishilgan. Chambarak o'rnatilgan bitta buyumni qism-qismlarga aniq ajratib, bir necha tikuvchi tikkan. Katta korcho'blarda bir yo'la 10—12 kishigacha ishlagan. Zardo'ziy qilinayotgan chopon, mursak, kamzo'llarning eng nozik joyi eng uchi — no'gi osti va ko'ksi — sari dil bo'lib, kiyim kiyilayotganda «mo''minlar hukmdori»nnng nigohi eng avval o'sha joylarga to'shar ekan. Shu boisdan ustalar eng mohir zardo'zlarga kiyimning eng va ko'krak qismlarini topshirib, alohida kunt bilan bu ishni ado etganlar.

Shu narsani qayd etib o'tish joizki, zardo'zlik buyumlarining asosiy qismi shu qadar maxorat va nazokat bilan ado etilganki, ularni o'ta sinchkovlik bilan miridan-sirigacha o'rganib chiqilgandagina, shunda ham onda-sonda, bu bir kishining ijodi bo'lmay, ko'pchilik bir bo'lib amalga oshirganligiga arang ishonch hosil qilish mumkin.

Zardo'zlik ishi quyidagi alfozda olib borilgan: dastlab yigirilgan yoki zarhal ip bilan asosiy gul tiqilgan, keyin eshilgan to'ftado'ziy yoki zarrin simdo'ziy zar ip bilan gulning qismlari tiqilgan. Bu iplarning kalyobatun jingili o'rusi, bireshimdo'ziy, ipak ip aralashgan zarrin sim kabi nomlar bilan atalishi oldindan ma'lum. Zargarlik ziynatlari, bo'rtma naqshlar va hokazolar tiki lishi odatiy bir hol bo'lgan. Shu tarifa gullarning barchasi tiqilib bo'lgach, uning qirgoqlarini pishiqqina yigirilgan zarrin ip tahrir bilan nozik yo'l qilib aylantirib chiqilgan.

Bozorda chiqarib sotishga mo'ljallangan qimmatbaho buyumlardagi tahrir yo tahriri xom bilan, yo tahriri nimtoba bilan ishlagan. Bir necha yo'l zarrin ipni eshmasdan tikish tahriri xom, salgina eshilganini esa tahrirni nimtoba deyilgan.

4—8 yo'l ipni eshib tiqilgan tahrir eng keng tarqalgan usullardan bo'lib, buni taqiri yak toba deyilgan. 24 yo'l ipni ikki tanob bilan eshib tiqilgan tahrir **tahriri sheroziy** deb atalib, u faqat shohona buyumlardagina qo'llanilgan. Yaproqnusxa gullarni xorakdo'ziy (xorak—tikoncha degani) deb ataluvchi cho'zinchoq halqacha

yordamida gardishlangan. Gullarning girdi esa faqat ip bilan tiqilgan. Geometrik kashtalarning girdi yo birgina tahrir yordamida yoki **qobuliy** deb ataluvchi qator halqachalar yordamida aylantirib olingan.

Gullarning girdini aylantirish bilan baravariga tikuvchi tiqilmay qolgan joylarni ham margula, marguli nuktez, marguli dumchanyuk, tagalak (jingalak, uchli jingalak, dumli jingalak, spiralsimon jingalak va hokazo) nusxa gullar bilan to'ldirib borgan.

Chopon yoki boshqa har qanday buyum batamom zardo'zning qo'lidai chiqqach, uni chambarakdan olib, pardozlarini nihoyasiga etkazish uchun poshsholik tikuvchilarga uzatishgan. Tikuvchilar buyumning ayrim-ayrim tiqilgan qismlarini bir-biriga ulab va astarini tikib, shoyi tasma (jiyak) o'rnatish uchun ayollarga berilgan. Erkak va ayollarga taalluqli ba'zi kiyim-kechak va buyumlar (belbog, salla, kulutapo'shak, ro'mol), uy-ruzgor buyumlari (so'zana, yostiq jildi, joynamoz) zardo'zlik ishi tugashi hamon korcho'bdan birato'la olingan. Jul, poyafzal, ko'ylak kashtalari, do'ppilar, ro'mollar va xaltachalar avvaliga qalinroq bo'lishi uchun teskari tomondan sirachda elimlangan. Ro'mol singari buyumlarni yana ham qalinroq qilish uchun esa teskarisidan bir necha qavat mato yo qogoz qo'yib elimlangan.

Buxoro zardo'zlari zardo'zlik ishlarshsh bir necha qismga bo'lib chiqadilar:

1. Zardo'ziy zamindo'ziy — tagini yoppasiga zar bilan tikish.
2. Zardo'ziy guldo'ziy — charm, karton yoki qogozga tushirilgan andoza buyicha tikish.
3. Zardo'ziy bireshimdo'ziy — goh ipak ipda, goh zar ipda aralash tikish
4. Zardo'ziy pulakchado'ziy — pulakcha deb ataladigan piston hadab zardo'zlik tikishi.

Zardo'ziy zamindo'ziy odatda bo'z yoki charmga tiqilib, onda-sonda karbos deb ataladigan mahalliy matodan foydalanishgan. Karbosdan faqat otlarga jul va mayda-chuyda buyumlar qilingan, xolos.

Zamindo'zlikning ikki asosiy uslubi ma'lum: a) to'gridan-to'gri matoga tikish va b) siddiy deb ataluvchi to'shamaga tikish. Siddiy usuli, ayniqsa, mashhur

bo'lgan. Bunday tikishda jaydari kalyoba ipidan foydalanilgan. Engilbosh singari nozik buyumlarni tikishda esa o'zining pishiqligi va silliqliqi bilan ajralib turuvchi rasponi gazoriy nomli ip ishlatilgan. Rasponi farangiy fabrika paxta ipi to'shamalarni tikishda kam qo'llanilgan.

Ancha oldingi zardo'zlik buyumlaridagi to'shamalarda jaydari shoyidan foydalanganlar. Xuddi shu yo'sinda tayyorlangan etiklar materiali va uslub xususiyatlari jihatidan taxminan XVIII asrga taalluqli bo'lsa kerak. (Mazkur albomda siz uni 50 raqami ostidagi suratda ko'rishingiz mumkin.) O'tgan asrning 70-yillarida yasalgan buyumlarning ba'zi qismlari tiqilishida, istisno tarzida, shunday to'shamalarga ko'zimiz to'shadi.

To'shama uchuy tanlangan ip dastavval suvda ivitilgan, so'ng ikkitadan sakkiz qavatgacha qilib eshilgan. Shunday eshilgan ipdan keragicha tayyorlab va ularni patilaga o'rab, to'shamani boglashga kirishilgan. To'shamani boglash, siddiy boston — ikki xil yo'lda amalga oshirilgan: agar ip ingichka bo'lsa, uni matodan teshib o'tkazilgan, agar eshilgan ip yugon bo'lsa va matodan teshib o'tkazilayotganda uni yirtib yuborishi xavfi bo'lsa, uni mato ustidan ingichka ip bilan qadab-qadab quyilgan. Zardo'zlik to'shamalari ko'ndalangiga yonma-yon qilib quyilganki, zar ip bilan tikkanda baxyalar o'shalarga asoslangan bo'lgan. Eshilgan ip qanchalik ingichka va baxyalar qatori qanchalik zich qo'yilsa, chok ham shunchalik nafis va bejirim chiqqan. Zardo'zlik piltasining iplari sariq rangda bo'lgani uchun zarrin iplar bir-biridan qochganda oraliqlarda paydo bo'luvchi yoriqlar ko'zga darhol tashlanmagan. Iplarni tikuvchilarning o'zi zarcho'ba bilan bo'yaganlar. Piltasiz, shundoh matoning o'ziga qilingan zardo'zlikda ham mato sariqda bo'yalgan. Zar iplar faqatgina xom surp, doka, pardalik singari matolardan teshib o'tkazilgan. Buxoro zardo'zligida dokaga tikish xuddi qalin matodagidek amalga oshirilgan. Faqat eng keksa tikuvchilargina bir vaqtlar bevosita dokaga zar ip bilan tiqilganini eslaydilar. XIX asrning birinchi choragi oxiri va ikkinchi choragi boshida sallalarga xuddi shunday zardo'zi gullar tushirilganligi sathida ma'lumotlar bor. Tikuvchilar bu ishda tamburli ilgakdan foydalanilgani dahida taxmin hilsalar-da, bu ish qurolining o'zi bizgacha etib kelmagan.

— 2, 3, 4.) Qadimgi rus zardo'zligida bu tur kashtalar shaharcha yoki tuyoqcha deb atalgan. Bu tur XII asrda yasalgan buyumlarda uchraydi.

3 Mavji ocha-bacha — ona-bola to'lg'in. Bu kashtani tikishda navbatma-navbat qilib to'shamaniig ikkita yoki to'rtta baxyasi bitta qilib olinadi. Natijada tiqilgan yuzada goh qator tor-tor, yassi va qoramtir, goh keng-keng, do'ppaygai va yarqiroq yo'llar hosil bo'ladi. Bu usul ikki xil yo'l bilan tiqiladi: yak ro'ya (bir yoqlama) (IX — 5, 6) va du ro'ya (ikki yoqlama) (IX —7, 8).

4 Mavji chashmi bulbul (bulbul ko'zi to'lg'in)da chatish ilgaklari kichkina-kichkiia to'rtburchak yoki rombchalar hosil qiladi. (X — 9, 10.)

Mavji yak ruya bilai chashmi bulbul zardo'zlikda eig ko'p qo'llaniladigan gullardan hisoblanadi. Bu ikkala gul tiqilmagan bironta buyumii uchratish amri mahol. Chashmi bulbul aslida du ruya uslubidagi kashtachilik sirasiga kiradi. (IX—11, 12.) Qadimgi Rusiyada mazkur usuldagi kashtalarni meva yoki oddiy meva deb atalib, ular aslida Vizantiyadan kelib chiqqan va eng ko'p tarqalgan qadimgi kashtalardan hisoblangan. Chashmi bulbulni mavji yak ro'ya va mavji du ro'ya bilan chogishtirib tikkan zardo'z unga yaqin turli variantlar hosil qilgan (X — 1-9).

5 Shash xol (olti xol). Bir yoki ikki qator «tulqin» katakchasi orasiga joylashtirilgan gul (X—10, 11). Bu gulning ikkita varianti mavjud bo'lgan: olti baxyalik (shash xoli shishtai) va sakkiz baxyalik (shash xoli hashtai). Shash xol usuli ko'pincha chashmi bulbul kashtasi bilan chogishtirib tiqilgan. (X—12.)

6 Xishti haram (muqaddas gisht). Buxoro zardo'zlari mazkur iboradagi haram so'zini podshoning harami ma'nosida emas, balki arabcha haram (muqaddas) ma'nosida ekanini aytadilar. Bu kashta boshqa kashtalarga qaraganda juda ham chiroyli ekanini ham e'tirof qiladilar. Xishti haram kashtasini zardo'zlar bu xildagi kashtalar sirasiga kiruvchi jo'ngina xisht deb ataluvchi kashtasi bilan aslo aralash tirmaganlar kashtasi faqatgina ayollar uy va bosh kiyimlarining qirrohlarodni, ya'ni hoshiyalarini bezashda ishlatilib shash xol em — shoxchi shash xolnok (XI—21) bilan chorishtirilgan.

10 Kandoriydo'ziy yoki oddiygina kandoriy kashtasi Afgonistonning Kandahor shavdj nomidan olingan bo'lib, ustalarning ma'lumot berishicha, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'sha tomondan keltirilgan. Bu kashta kiyimlarning nisbatan kichik-kichik qismlarini tikkanda qo'llanilgan (to'rtburchak va romb ko'rinishidagi tor yo'llarda, kichik-kichik to'garaklarda, qirgoq (hoshiya)ning girdidagi yo'llarda va hokazo). Bundan tashqari ot junlari va erkak-ayollarning bosh kiyimlaridagi tagzaminni sidirga kashtalashda qullanilgan. Qandahorcha chok tikish matoga to'shamasiz tiqiladi. Patli (yungli) matolarning choki tagidan, zar ip orasidan patlarning chiqib qolmasligi maqsadida, oqiga kumushrang, sarigiga tillarang bo'z taglik quyilgan. Kashtaning ikki xili bo'ltan: kandori chor baxyagi—to'rt baxyali kandoriy (XI — 8, 9) va kandori hasht baxyagi — sakkiz baxyali kandoriy (XI—10—13). Xiyla murakkab bo'lgan 8 baxyali kandoriy bilan qimmatbaho zardo'zi buyumlar tiqilgan. Bu kashta odatda tarhini tushirmasdan turib ham mavji xojariy singari tiqilavergan. Kandoriyning asosini to'rtburchakli xonacha tashqil etib, u chetidan o'rtasiga tomon jingalak-jingalak bo'lib keluvchi zarrin kashta bilan to'ldirilgan. Natijada 4 baxyada tiqilgan xonacha salib ko'rinishida, 8 baxyada tiqilgan xonacha taralayotgan nur ko'rinishida joylashgan bo'lgan. 8 baxyada tiqilgan havihda, zardo'zlar nur va soyalar hosil qilish san'atida katta mahorat ko'rsatganlar.

Mazkur uslubning bir necha turi mavjud bo'lib, shulardan eng ko'p qo'llaniladigani quyidagilardir: a) o'rtasida qo'ndirmasi bo'lgan kandoriy — kavdori dila xonanok, rangli eshilmagan ipakdan qilingan (XI —14, 16) va b) tangachali kandoriy zar simlardan qilingan. Tangachali kandoriy 8 baxyali tikishda uchraydi, xolos (XI— 15).

Bu o'rinda biz eng ko'p qo'llaniladigan kashta gullarni va ularning turlarini sanab o'tdik. Ammo mohir zardo'zlar qayd etilgan uslublarni turli-tuman yo'llarga solib, ularning xillarini ko'paytirish imkoniga ega bo'lganlar.

Guldo'ziy kashtasini tikishda andazasini qanday matodan qilinishiga ko'ra, kashta ancha-muncha tekkis chiqqan. Zardo'zlikning xiyla eskirgan, taxminan 1870—1875 yillarga oid buyumlarida biz tikishi juda a'lo chiqadigan oq mesh

(zamsha) charmni uchratamiz. Bu usul tikishida esa ko'proq karton ishlatilgan. U qariyb butun XIX asr mobaynida charm bilan bir qatorda yasalgan barcha buyumlarda uchraydi. Bir yoki ikki qavatdan iborat yupqa ho'roz XX asrning 20-yillarida yasalgan buyumlarda foydalanilgan. Zargarlik taqinchoqlariga o'xshash mo'jazgina gullar tagiga ba'zan paxta qo'yib bir necha bor taxlangan matoga tiqilgan. Bunday gullar avval alohida tikib olingan, keyin matoning zarur bulgan joylariga chandib qo'yilgan. U yoki bu uslubning aralash texnikasida ijro etilgan zardo'zlikni zardo'ziy-guldo'ziy zamindo'ziy yoki zardo'ziy zamindo'ziy-guldo'ziy deb atalgan.

Zardo'ziy birishimdo'ziydagi rangli ipakda tiqilgan elementlar zar ipda tiqilgan elementlar bilan chogishtirilgan. Uni tikishda andoza buyicha chatishga tiqilgan zar iplar singari qizgish, malinarang, qizil, to'q qizil, xil-xil tovlanadigan yashil, ko'k, moviy, onda-soida nopormon, ba'zida oq va sariq tusdagi eshilgan va eshilmagan ipak ip qo'llanilgan. Zardo'zlikda ipak ip bilan tikishning juda ko'p usullaridan faqat kashta, yurmado'zi va iroqi nusxalari qullanilgan. Kashtada kam tikkanlar. Yo'rmado'zilik bigiz yordamida tiqilgan. Gullarning ayrim qismlari alohida tiqilib, uni qirqib olingan va kerakli joyga chandilgan. Yo'rmaduzlikning nusxalari to'garak, to'griburchak, to'rtburchak shakllarida bo'lgan. Iroqida ham gullarning qismlari alohida tiqilgan. Bu usulda gilam deb atalgan Shahrisabz do'ppilari tiqilgan. Zardo'ziy birishimdo'ziy deb atalgan aralash nusxani biz XIX—XX asrga oid zardo'zlikning chopon va jullarida ko'rishimiz mumkin.

Zardo'ziy pulakchado'ziyda pistonchalar guldo'ziy nusxasida bajarilgan tikishlarda chogishtirilgan. Pistonchalar, odatda, islimiy naqshlarning tagzaminini to'ldirishda ishlatilib, matoga zich qatorlarga terilgan va hech qanday gul shaklini bermagan. Ahyon-ahyonda gullarga qadalgan pistonchalar yulduzcha shaklini yoki to'rttadan salib shaklini ifodalagan. Goho jullarda ular bir yoki ikki qator islimiy naqshlarni ham aks ettirgan hollar uchraydi. Chopon, ba'zi ayollar buyumlari (kulutapo'shak bosh kiyimi va ko'ylak umizidagi tor yo'l—zei ko'rta) da 1\$llaniladi. XIX asrning 30—40 yillaridagi kiyim-boshlarda pistoncha keng 1\$llanilsa-da, keyinchalik biz uni faqat mayda-chuyda buyumlardagina uchratamiz.

jullarda esa pistoncha zhamisha ishlatilib kelgan, u ham bo'lsa davri gardish deb ataluvchi bozorbop juldagina uchraydi.

Marvarid bilan bezatilgan marvaridkori zardo'zlik buyumlari alohida o'rin tutadi. Marvarid va topaz, yoqut, olmos singari qimmatbaho toshlar bilan amirning tantanalarda, shahar tashqarisida uyushtirilgan sayillarda va ulug ayyom kunlarida kiyadigan dabdabali ust kiyimlari bezatilgan. Bunday kiyimlarni birovga tortiq qilib berilmagan, hattoki hukmdorning yaqin qarindoshlari uni kiyishi mumkin bo'lmagan. Choponlar, poyafzallar marvarid bilan ziynatlangan. Marvaridni bitta yo'l bilan aylantirilib tiqilgan. Toshlar esa to'p-to'p qilib, tekis zar gardish ichiga olib tiqilgan. Toshlar bilan bezatilgan zardo'zlik buyumlari saqlanib qolmagan.

Zardo'zlik naqshlari va ularning tuzilishilari.

Zardo'zlik san'atida qo'laniladigan naqshlarning mutlaq ko'pchiligi islamiy bo'lib, geometrik va shunga o'xshagan naqshlar undan keyingi o'rinda turadi. Islamiy naqshlar turlituman dastagullar, yaproqlar, butoqlar, daraxtlar, shoxlar, gulli guldonlardan iboratdir. Meva shakllaridan tuzilgan naqshlarda biz marvarid, turunj, anor, olcha, uzum (I — III va V — 7)larni ko'ramiz. Odam va hayvonot tasvirini inqilobdan oldingi Buxoro zardo'zligida sira uchratmaymiz. Bunday naqshlar faqat inqilobdan so'nggi davrlarda, o'z ham bo'lsa ayollarning uy ichida kiyadigan buyumlarida, xususan, do'ppilarda paydo bhldi. Masalan, bunday do'ppilarning tepa qismida tovu, ba'zilarining girdida qator hilib urdaknamo qushlar tasviri tushirilgan. Bunday buyumlar faqat maxsus buyurtma asosidagina tiqilib, bozorda sotuvga chiqarilmaganini zardo'zlarning o'zlari qayd etadilar. Buxoro zardo'zligida o'ziga xos va puxta ishlangan atamalar bo'lib, ular zardo'zlik sharoitining ayrim bosqichlarini anglatishdan tashqari bu san'atning uzoq davrlik taraqqiyot jarayonidan ham darak berib turadi. Gullar turidagi naqshlar uchun gul atamasi, barglar turidagi naqshlar uchun barg atamasi nam bo'lib qolgan. Bir qancha naqshlar guruhi uchun umumlashtiruvchi bo'lib xizmat qiladigan bunday atamalardan tashqari gul turidagilarga alohida, barg turidagilarga alohida mansub bo'lgan, aynan shularning o'zi uchun xos hisoblangan yana bir qancha nomlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, guli chorbarg —to'rt yaproqli gul, guli shashbarg

— olti yaproqli gul, guli hashtbarg — sakkiz yaproqli gul, lolagul va hokazolar. Yaproqlari sakkiztadan ortiq bo'lgan gullarni guli sadbarg — yuz yaproqli gul (V—2) yoki guli koshgariy — haymargul deb atalgan. Keng hajmdagi gullar guli kosagul yoki guli qal'agi (V — 4) degan nomlar bilan yuritilgan.

Barg turidagi naqshlar quyidagilarga bo'lingan: dona-dona yaproqlar — yakkabarg, juftjuft yaproq — dubarg, uchtalik yaproqlar — se barg, majnuntol yaprogi — bargi majnunbed (VII— 1, 6, 9) va hokazolar.

Aksariyat ornamental gul turlari o'zlarining uzoq davomli rivojlanishlarida shu thadar ko'p uslublarga va geometrik ko'rinishlarga ega bo'lganki, hatto ularning dastlabki islmiy shakllarini ilgab olish mushkul. Zamonaviy ustalar, ularni xohlagan maqomda talqin qila boshlaganlar. Masalan, to'rt yaproqli gul nayadni xudi ana shunday o'zgarishni boshidan kechirib, endilikda u kungirador peshtoqni eslatuvchi chor madoxil (to'rt darvoza) deb atala boshlandi. Agar bitta yaproqli gul naqshi ikkinchisiga ustma-ust qoldirilgan bo'lsa, uni chor madohili durun ba berun deyilgan (madoxil arabcha — kirish degani). Bunday gullar ko'pincha mayda islmiy naqshlar bilan tiqilib, eng uchida har ikki tomonga qarab turgan ikki dona yaproq tasviri bo'lgan. Odatdagidek, bu o'rinda ham islmiy naqsh o'zi uchun mutlaqo yot bo'lgan nom bilan atalgan (VIII — 5, 13 va 4, 8, 12). Zardo'zlikda keng rasm bo'lgan, chekkalari xiyol yuqoriga hayrilgan nozik yaproq naqshi bargi shallukiy — zulukbarg yoki hishacha shallukiy deb ataladi-yu (VII—7, 8, 2, 3, 10, 11), bari bir u yaproq shaklini o'zida sahlab holaveradi. Islmiy naqshlar, o'z navbatida boshqa tur naqshlarga ham ta'sir qilgan deb taxmin hilish mumkin. Masalan, yaproqlari nur yunalishida joylashgan ko'pbargli gul naqshidan nishon deb ataluvchi tamga belgisi bilan qo'shib yuboriladi. Bu atama XIX asrning so'nggi o'ttiz yilligida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Uning rus ordenlariga o'xshab ketishini shu bilan izohlasa bo'ladi. Demak, bu naqshlar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida zardo'zlikka kirib kelgan deb aytish mumkin.

Kelib chiqishi turlicha bo'lgan gul turlaridagi bunday o'zaro bogliq islmiy va ularning atamalaridagi o'ziga xos xususiyatlarning yuqolib ketishiga sababchi bo'lgan. O'rta Osiyo chorvador qabilalari milliy naqshlarida keng tarqalgan

qo'chqor shoxi tagalak, aftidan, bir qancha o'troq xalqlar san'atidagi islmiy naqshlarga kuchli ta'sir qilgan. Natijada novdalardan biri yangi nom bilan birga o'ziga xos uslublashuvga ham ega bo'ldi. Zardo'zlikda tagalak usuli kashtalarning orasidagi bo'sh qolgan tag zaminni to'ldirishda foydalaniladi. U o'rama ko'rinishida, ba'zan bir juft shohning bir-biriga o'ralib turganiga o'xshagan bo'lsa, boshqa «bir joyda u (ko'pincha katta-katta joylarni to'ldirilganda) xuddi uzum zangidagi naychani eslatadi.

Bunga misol tariqasida ancha aniq qilib tiqilgan islmiy naqshli XVIII asr etiklarini keltirish mumkin. Tagalak yo'lidagi naqshlarni ham shunda yaqqol ko'ramiz. Gullarning qirroqlarini aylantirib tiqilgan ipda zardo'z bira to'la ta gzaminni ham tagalak nusxa kashta bilan to'ldirib chiqqan.

Chinnigul, qashhargul singari kashtalar nomi qanday kelib chiqqanligi haqida aniq mulohazalar mavjud. Bunga, aftidan, xitoy chinnisidagi rasml ar aeos bo'lgan bo'lsa, ehtimol. Xitoy chinnilari O'rta Osiyoga ham keltirilar va goyat hadrlanar edi. Hatto XIX — XX asrlarda Buxoroning shahar boylari uyida ular keng rasm bo'lgan edi. Kalak (ayollar poyafzalining tovoniga taqaladigan nagal) guli ham xitoy chinnilaridagi naqshlardan olingan deb taxmin hilinadi. Mazkur gul xitoy chinnisida keng qo'llanilgan. Biz ularni IX—X asr sopolchiligida (keramikasida), VIII asr Rey sopolchiligi deb atalgan eron sopolchiligida ham uchratamiz.

XIX asrning so'nggi httiz yilida zardo'zlik gullarining nusxasi O'rta Osiyoga ko'plab olib kelingan rus fabrika gazmollaridan olingan. Sharq xalqlariga mo'ljallab to'qilgan gazmollar o'zlarining chiroyli ko'rinishi, bo'yoqlarining yorqinligi va puxtaligi bilan ajralib turgan. Ular tezda xaridorgir bo'lib ketgan va Afroniston orqali keltiriladigan hind gazmollari bilan bemalol bas boylashar edi. Gazmollardagi yirik-yirik gullar zardo'zlikka ham ko'chib o'tgan va ularni nomlaridan bilib olsa bo'lardi. Guli qal'agiy (qal'a so'zidan) nomi zardo'zlarga yaxshi tanish. Buxoro savdogarlari chegarachi posbonlar bilan qo'riqlanadigan bu shaharga mol olgani borar edilar.

Rang-barang naqshli, sirkor me'moriy yodgorliklar, ulardagi turli-tuman geometrik naqshlar zardo'zlik gullari va kashtalarini ijodiy jihatdan boyitishdagi boy

materiallar bo'lib xizmat qiladi. Shu siraga kiruvchi mehrob naqshi odatda uchli ark ko'rinishga ega, kitoba naqshi yuzasiga chiroyli qilib arabcha yozuv bitilgan qator cho'zinchoq halqachalar bo'lib, ular turar-joy binolarining, masjid va madrasalarning devor bilan shifti tutashgan erida joylashgan bo'ladi. Qadimgi Buxoro me'morchilik yodgorliklari ham koshin degan gulning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan va hokazo

Zardo'zlik kashtalarini chizuvchi gulbur ustalar boqqa namunalarga ko'r-ko'rona tahlid qilmay, atroflicha uylab kurganlar, o'z kasb-hunarlarining an'analari va speqifik xususiyatlari asosida ijodiy ghayta ishlaganlar.

Kashta naqshlarining tuzilishiga qarab, zardo'z ustalar buyumlarni ayrim-ayrim guruhlarga bo'ladilar. Bezak gullarining joylanish tartibiga ko'ra choponlar bir necha turlarga bo'linadi. Darham turidagi choponlar butun yuzaning bir sidra gul naqshlari bilan to'ldirganligi orqali ajralib turadi

Bunda turli katta-kichiklikdagi rombalar, kvadratlar, to'g'ri burchaklar va hokazolar yo'l-yo'l shaklda qator tizilib, zich islmiy naqshlar bilan to'ldirib chiqilgan. To'rt yaproqli qubba — madoxil (madoxili durun-badurun), uch yaproqli qubba — se barg, uch-to'rt yaproqchali buta va butachalari—barg yoki bargi shulluki, majnunbed (majnuntol), ayrim-ayrim joylashgan olti va sakkiz yaproqli gullar, aksariyat lola ana shu naqshlar sirasiga kiradi. Ko'pincha gul va yaproq naqshlari doyra markazidagi gul yoki yulduz atrofida aylana shaklida joylashib, geometrik shakllar tag zaminini to'ldirib turgan. Bu tur naqshlardan biri darhami daraxt kompozitsiyasi bo'lib, unda ham kashtalar bir tekis tushgan, faqat oldingilaridan serjiloligi bilangina ajralib turadi. Gul tushiriladigan joy parchalanmay, bachkanalashmay, goyat erkin tarzda yirik bir yagona manzaraga biriktiriladi. Daraxt islmiy guli goyat uzun tanadan iborat bo'lib, unga gul va yaproqlar chatilgan, goho bo'lak-bo'lak shoxlardan tana hosil etilgan, p qo esa har tomonga osilib turgan katta-katta sallagul (piongul)lardan tuzilgan (bu, fabrika gazmolidan olingan bo'lsa kerak) chetlari hirhma keng yaproqlar juda ham o'ziga o'hshatib ishlangan. Gullar hulda shunday erkin va engil chizilganki, hech qanday rasmdan ko'chirib olinmagan va boshqa gulning takrori bo'lib qolmagan. Libos bezashning

bu turi ancha boy va dabdabador bo'lgan. Amirning qimmatbaho, to'y tantanalarda kiyadigan kiyimlari shu bezaklarda tiqilgan. Bunday choponlarni tikish gulburdan katta ijodiy xayolot va tajriba talab qilgan, qattiq mehnat orqasida yuzaga chiqadigan bunday ishlar uchun ham ozmuncha harakat qilinmagan. Tayyor rasmga tikish bo'yicha o'rtacha murakkablikdagi tunlarni tayyorlash uchun to'rt kishi bir oy ishlasa, darxam xilidagi choponlar uchun o'n ikki odam uch oy mobaynida behad ko'p qimmatbaho ashyolar hisobiga ishlagan. Shunday to'nni tayyor qilish haqidagi hujjatda hammasi bo'lib 3233 tanga pul sarf etilgani qayd etilgan.

Zamindo'ziy va guldo'ziy tarzida bajarilgan darham kompozitsiyasi chopon, poyafzal va jullardan boshqa zardo'zlikka oid hech bir buyumda qo'llanilmaydi. Bu xildagi san'at namunalari bizgacha goyat oz miqdorda etib kelgan. Yuza bo'ylab bir tekisda har tomonga yoyilib turgan bir dasta gul aks ettirilgan choponlarni butador deb atalgan. Gulning o'zini esa buta deyilib, unda gulning poyasi va yaproqlari, majnuntol novdalari, xurmo shoxlari, turli katta-kichiklikdagi girihlar, qush bodom va hokazolar ifodalangan bo'lishi mumkin.

Bu tur kompozitsiyaga yana butadori tavqnok deb atalgan to'n ham kiradi. Bunday to'nlarning butun yuzasi buta naqshi bilan to'ldirilib, faqat elkasida—tavq (arabcha halqa) deb atalgan chiroyli gardishli turunji bo'lgan. Butadori chilyolak yoki jomi chilyolak deb atalgan tunlar ham shular sirasidandir. Ularning tiqiladigan butun yuzasi bir tekisda chilyolak degan halqachalar bilan to'ldirilgani uchun shunday nom bilan ataladi. Butadori daraxt kompozitsiyasi ham butador tipidagi guruhga mansub bo'lib, aslida darhami daraxtning variantlaridan biri hisoblanadi. Darhami daraxtdan uning birgina farqi shundaki, bunda ma'lum bir oraliqda tik joylashgan daraxt tanasi to'xtovsiz takrorlanaveradi. Buta tiqiladigan yuza buylab to'gri qatorlarga aksar holda shaxmat ko'rinishida joylashgan bo'ladi. Butador kompozitsiyasi ayollar libosida goyat noyob usul hisoblanib, u ko'proq katta yoshdagi erkaklar va bolalar buyumida qo'llanilgan. u kompozitsiyaning butadori tavqnok, butadori chilyolak va butador daraxt deb atalgan turlari nisbatan kam,

shunda ham katta yoshdagi erkaklar va bolalar liboslarida hllanilib, ayollar libosida mutlaqo .hllanilmagan.

Davhur (davri hur — hoshiyalangan so'zining bo'zib aytilishi) deb nomlangan thnlar goyat keng kulamda qo'llanilgan. Bunday tunlarning eng uchlari, barlari va quyi qismlari qur Kotinoy bilan aylantirib tiqilgan, to'n elkasiga esa turunj naqshi tushirilgan.

Tavq turunji naqshlarining turli-tumanligi va talqini bilan ajralib turadi, ular ham ko'rinishlari, ham katta-kichikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Ularning o'lchamlari diametr da 36X45 dan 48X56 santimetr orasida hisob hilinadi. Tavq turunjlarining tuzilishi sistemasi buyicha ularni .ikki turga bulish mumkin. Birinchi tur turunjlariga yoyiq halqa ichida tuzilgan kompozitsiyalar kiradi. Eng keng rasm bo'lgan bu kompozitsiya yo umumiy markazga ega halqanamo kashtagullar bilan yoki oralari islimiy naqshlarga to'la oltiburchak qatlamlari bilan to'ldirib chiqilgan. Ba'zan bu oraliqlar qator yo'llarga ajratilib, butalar naqshi bilan bezab chiqilgan. Doyra ichiga ko'pincha olti yoki sakkiz qirrali yulduz (sakkiz qirrali yulduz ikki kvadratni bir-biriga mindirib yasalgan) shakli tushirilgan bo'lib, markaziy qismida burtma girihli halha aks ettirilgan. Naqshlarning har bir qismi mayda gul, yaproq, butoq va xurmo barglari shaklida tiqilgan. Yulduzli halqaning pastki qismida kashta bilan tiqilgan yarimoy nusxasi deyarli har ikki buyumdan bittasida uchrab turadi.

Ikkinchi kategoriyadagi turunjlarining kashta gullari ba'zan jimjimador saliblar, sernaqsh yo'llardan yasalgan sakkiz qirrali yulduzlar, galma-galdan almashinib keluvchi gulli girih va butoqchalar kompozitsiyasi, guldon shakli ichiga joylashtirilgan, erga qaragan yarimoy qal'asiga kiydirilgan murakkab islimiy kompozitsiyalardan iboratdir.

O'rtasida doyra shakli bor turunjlarining gardishi sirt tomonidan kunguralar bilan aylantirib chiqilgan. Kunguralar gardish qirrasi buylab, yakkabarg deb ataluvchi bir qator qilib tizilgan yakka-yakka yaproqchalardan yoki bitta yaproq va bitta bodomcha shaklidan tuzilgan. Ba'zan yakka-yakka yoki turkum-turkum holda keluvchi o'sha yaproqchalar ishtirokida ham turunjlar gardishining kungurador

qilib aylantirib tiqilgan. Gulchambar yoki o'rilgan yaproqlar ko'rinishidagi murakkab islamiy naqshlardan ham kungura yasalgan.

Juda kamdan-kam hollarda istisno qilmasa, aytarli hamma turunjlarning markaziy tik o'qi bo'ylab qo'shimcha bezak elementlari albatta, uchrab turadi. Yuqorida xurmo yaprog'i, odatda goyat jo'n shakldagi 3—5 ta yaproq yoki elpigich ko'rinishidagi mayda uzum zanglari joylashgan. Turunjni bezab turgan elementlarning qanday gul shakli bo'lishidan qat'iy nazar toji gul nomi bilan ataladi, unga teskari tartibda joylashgan quyidagi naqshli bezak ka'bi gul (guldon) deb atalib, madoxil turidagi naqshlardan birining uslublashtirilgan ifodasidan iborat bo'ladi.

Xalqa ichiga olinmagan kompozitsiyali turunjlarning toji guli hajm jihatidan yirik bo'lib, gohida gul, xurmo naqshi bilan, ka'bi gul esa baland guldon bilan boyitilgan (30 r.e.).

Turunjlardagi bu detallar tavq uslubiga oid naqshlar islamiy xarakterdagi naqshlarga asoslanganligini kursatadi. Asta-sekin uzgara borgan tavq naqshlari ko'pgina hollarda o'zining dastlabki islamiy shaklini yuhotib, uning urnini geometrik shakl egallaydi. Islamiy talqinlarning o'ziga xos belgilari 'bul'mshi guldon va gulchambar endilikda yot unsurlargina bo'lib holadi.

Davhur turidagi tunlarning hoshiyasi (jiyagi) ham kashtalarining rang-barangligi bilan ajralib turadi: oddiygina islamiy butogidan tortib eni 23—25 santimetrli murakkab va dabdabali islamiy kashtalarni kurishimiz mumkin. Oddiy jiyaklar oba deb atalgan ensiz yo'l bilan aylantiriladi. Khmmatbaho zardo'zlik buyumlarida jiyakning ichki tomonidan ham qo'shimcha kungura bilan aylantirib chiqilgan. Jiyakning ichki tomonidan obasi bo'lmay, faqat tanqi tomondangina obalansa, bunday jiyak oldi ochiq jiyak — kuripesh yala deb ataladi. Kashtasi boy va serbezak jiyaklar o'tgan asrning 80-yillaridagi tunlarda uchraydi. Jiyakning kashtasi turunjning naqshlariga mos bo'lishi talab qilinsa-da, amalda ko'pincha bunga rioya qilinmagan. Katta yoshdagi erkaklar, bolalar to'nlari, mursaklar, kamzo'llarni bezashda asosan davhur kompozidiyasidan foydalanilgan.

Kulucha mursagi zardo'zlik bezaklarining tuzilishi jihatidan ikki guruhga bo'lingan: butadori chilyolak va davqur. Butadori chilyolakxilidagi mursaklarning faqat beligacha oldi va orqasidan kashtalar bilan bezatilgan. Tundan farqli o'laroq davhur mursaklarining turunji ham elkadan, ham ko'krakdan tiqilgan. Bunday mursaklarning chap barida, quyiroha, ko'ndalang bo'lib gul yoki butoq shaklida kashtasi bo'lgan. Mursaklar «eng zardo'zi cholvorlar (poyjomalar) bilan kiyilgan. Ularga lampasga o'xshash kashtalar tiqilgan, bu kashtalar ikki yon tomondagi yirmochlar bilan poyjomaning pochasini qamrab olgan. Old tomonning quyi qismida butoq, gul yoki turunj joylashgan. Mursakning belidan osma bezakli feruza qadamali, ba'zan qimmatbaho toshlar, sirlar bilan bezatilgan vazmin turali belbog taqilgan. Amir va uning amaldorlari bunday liboslarni shahardan tashqariga chiqan kezlarida va turli tantanali marosimlarda zardo'ziy ukchali etik va oppoq zardo'ziy salla bilan kiyganlar. Darbiy amaldorlar esa bunday libosni salla o'rniga chetlariga muyna solib tiqilgan zardo'ziy telpak bilan kiyganlar.

Otlarning davriy usulida tiqilgan jullari, xuddi tunlar singari, amir saroy a'yonlarining tantanali kunlarda tutadigan buyumlari sirasiga kiradi. Ular ikki toifaga bulinadi: 1) xosagiy — amirning o'zi foydalanishiga mo'ljallangan va 2) in'omiy tortiq xilidagi boshqa zaruriy ashyolar qatorida o'rin olgan. Birinchi toifadagi jullar goyat boy naqshlangan, ko'pincha zargarlar tomonidan kumush va tillakori turalar qadab bezatilgan, popuklari kumushband bilan o'ralgan. Bunday jullar zinpush degan shohona egar yopqisi bilan birga qullanilib, yo'lda amir egardan tushgan chorlarda u egar ustiga tashlab qo'yilgan. Zinpush ham davriy bilan bir xil barqutdan va bir xil tarada ishlangan.

Ikkinchi toifa jullar ko'p miqdorda bozorda sotishga mo'ljallab yasalgan. Ular o'zlarining oddiy tiqilishlari va gullari bilan farqlangan.

Jul ikki qismdan iborat: egar qoshiga kiygiziladigan turli burchakli kesmasi bor oldxoni zingi qismi, hamda ot sarrisini berkitib turadigan ort — chakkikoshi zin qismi. Julning, tabinyki, ko'proq ochiq, ko'zga ko'rinib turadigan qismlarida kashtalar mo'loq bo'lgan. Suvoriy berkitib turadigan old qismining bezaklari xiyla

oddiy bo'lib, o'rta qismda chiroyli, bejirim qaviqdan boshqa hech qanday bezakni ko'rmaymiz.

Gul va naqshlarining turlari jihatidan jullar ham bir necha qismga bo'linadi. Darham turidagi jullar guldo'ziy tarzida ham, tagzamini tilla yoki kumush iplar bilan bir sidra tiqilgan zamindo'ziy tarzida ado etilgan.

Tilla yoki kumush yuzalarda gullar teng qator qilib joylashtirilgan guldo'ziy-zamindo'ziy tarzi yoguilar uchun eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Barcha guldor yuza handahor choki (tikishi) "bilan tiqilgan zardo'ziy buyumlarning yagona toifasi kandorido'ziy jullari bo'lib, ular ko'proh bozorda sotish uchun tiqilgan.

Davri gardish deb atalgan jul guli darhami daraxt turlaridan biri hisoblanadi. Bunda daraxt yoki shox yirik jingalak butoq tarzida beriladi. Butoq uchida anorga o'xshagan, ammo zardo'zlar gul deb ataydigan yirik meva nusxasi ham bo'ladi. Bu toifa yophilar doim guldo'ziypulakchado'ziy tarzida ado etilgan (tagzamini sim ipda tiqilgan. Davri gardish yopqilari XIX asrning 80—90 yillarida bozorlarda sotish uchun ko'p miqdorda tayyorlangan. Biroq o'sha asrning 40—50 yillarida ular sal bo'lmasa amirning shaxsiy buyumi sifatida foydalaniladigan zardo'ziy yopqining yagona turi bo'lib qolgan edi. Bundan ancha vaqt muqaddam davri gardish jaydari (buxorocho) shoyi barhutga yuksak sifatli zar bilan tiqilgan. Ular tikishining puxtaligi, jiyaklarining bejirimligi, tagzamini kumush ip bilan kalin qilib tiqilishi ila ajralib turadi. So'nggi davrlarda xuddi o'sha jullarni yarim shoyi jaydari barqutga sifati past zarda tikishgan, gullarning tarhi ham u qadar mukammal bo'lmagan Ish sifati ham o'rta darajada bo'lgan. Davri se gula jullari odatda yirik gul qubbasi yoki yirik bodom shakli, goho qo'sh bodom shakli bilan bezatilgan. Naqshlar yopqining markaziy qismida, burchaklarida o'rin olgan.

Xuddi davhur turidagi to'nlarda bo'lganidek, gul naqshida ham dastlabki islmiy shakllar ozmi, ko'pmi yuqolgan, ammo ka'bi gul (guldon, islmiy talqinning asosiy belgilari saqlanib qolgan. Eguilarda ka'bi gul naqshining joylashuviga goyat qat'iy ravishda amal qilingan: markaziy gul hamisha bor buyi bilan pastga qaragan bo'lgan, qolgan ikkitasi esa burchaklarga tomon yunalgan. Se gula jullari

faqatgina amirning buyrugiga binoan yoki unga in'om etish uchungina tiqilgan. Uni sotish uchun bozorga olib chiqilmagan. Bunday jullar katta amaldorlarga hadya etilgan. Zardo'zlarning guvohlik berishlaricha, bu toifa jullar XIX asrning 90-yillarida yuzaga kelgan. Biroh ular bundan ancha oldin paydo bulganini tasdiqlovchi dalillar ham yuq emas. XIX asrning birinchi choragi yoki ikkinchi choragining ayni boshlariga oid namunalarning birida mazkur toifa julning yaratilishiga asos bo'lgan namunasi »mavjud bo'lib, undagi bezak gullar o'zlarining islmiy shakllarini saklab qolganligi shundoq ko'rinib turibdi. XX asrning boshlarida jiga davri deb atalgan yangi nusxadagi jul paydo bo'ldi. U yarim doyra shaklida bo'lib, kashta, zargarlik kumush turalar, bandiga tilla qoplangan zar popuklar bilan

obdon bezatilgan. Bunday yopqilardan bizgacha etib kelmagan. Zardo'zlarning gapiga qaraganda, ulardan bor-yugi 5 tagina tiqilgan ekan. Jira davriy juli se gula julidan ancha yuqori turgan. Xuddi to'nlarda bo'lganidek, se gula va jiga davriy jullari uchun ham maxsus gul naqshlar tuzilgan, holbuki boshqa har qanday turdagi jullardan bitta rasm andozasiga qarab bir nechtdan ishlangan.

Erkaklar zardo'ziy poyafzali barqutdan tiqilib, ular bir qancha turlarga bo'lingan. Shulardan biri kavushi mirzoyi yoki kavushi xatirchigiy kavushlari bilan kiyiladigan mahsidir. Bunday mahsi-kavushlar bir xil rangdagi barhutdan tiqilib, bir xil gulda bezatilgan. Yana poyafzal turlaridan biri mo'za: tagcharmli, ukchasi past, o'rtacha yoki baland bo'lgan. Mo'za bilan mahsining yozgi — tobistoni, qishki — zimistoni turlari bo'lgan. Yozgi mahsilarga jaydari yarim shoyi mato — adrasdan astar quyilgan, qishqilariga muynadan astar quyilgan, ukchasi keng va past bo'lgan. Zardo'ziy poyafzalning uchinchi turi — kunji uzun, ukchasi baland mo'zi xatirchigiy bo'lib, ularni asosan suvoriylar, ovchilar, chavandozlar kiyganlar. Poyafzallardagi gul naqshlari butun yuzani bir tekisda qoplab olgan. Ular, odatda yo daraxt turidagi islmiy naqshlardan yoki gullardan, bir tekis sochilgan girih va halhalardan iborat kompozitsiyalar bo'lgan. Gul va girihlarning oralaridagi bo'shliq yaproq nusxalari yoki zar ipda tiqilgan bodom, turunj kashtalaridan iborat kompozitsiyalar bilan to'ldirilgan. Goho xuddi o'sha kashtalar

yordamida guldonlardan «o'sib chiqqan» murakkab islamiy kompozitsiyalar ham uchrab turadi va nihoyat namunalari keltirilgan darham turidagi kompozitsiyalar mavjud. Bolalar zardo'ziy poyafzalining ikki turi ma'lum: mahsi va past, keng ukchali mo'za. Ayollariing faqat mahsisigina tiqilgan. Uni yo zardo'ziy barxut kovush bilan yoki zar gulli charm kovush bilan kiyishgan. Ayollar va bolalar poyafzali ancha oddiy girih va halqalar bilan bezatilib, ularning oralari yaproq nusxalar yoki tagalak gajaklari bilan to'ldirilgan. Bodom kashtasi kompozitsiyasi juda ko'p uchraydi, ayollar va bolalar poyafzali faqatgina guldo'ziy tarzida ado etilsa, katta yoshdagi erkaklar poyafzali ham guldo'ziy, ham zamindo'ziy tarzida tiqilgan.

Erkak va ayollarning quyidagi buyumlari ham zardo'ziy usulida tiqilgan salla, kuloh, ayollar do'ppisi, peshonaband. Buxoro ayollari 40—46 yoshidan boshlab kiyadigan kultapo'shak — bosh kiyimi, sarandoz va rido — ro'mollari, miyonband — erkak va bolalar belbogi, ayollar kuylagi yoqasi girdini bezaydigan yo'l — zei kurta, eng uchlari — nugi, ostin, ayollar kamzo'lining yoqasi, paranjining peshak va dumi — paranji kashtalari, chashmband — yuz niqobi, qopchuq — hamyoni, shona xalta — taroq xaltasi, jildi soat — soat xaltasi, shaxsiy muhrini solib qo'yadigan muhrdon va boshqalar.

Erkaklar zardo'ziy to'nlari odatda zardo'ziy kuloh ustidan zardo'ziy salla bilan kiyilgan. Kuloh to'nning rangidagi barqutdan tiqilib, islamiy naqshlar bilan oro berilgan. Bu naqsh uncha katta bo'lmagan butoq yoki guldan, ba'zan usimlik mevasi — bodom yoki zirkning badiiy uslublashtirilgan ifodasidan iborat bo'lgan. Khimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, tunlar bilan kiyiladigan kuloh ham shunga munosib bo'lgan. Sallaning umumiy uzunligi 24 gaz (bir gaz —78 santimetr) bo'lib, shundan uchdan biri — 8 gaziga zardo'ziy bezak berilgan. Bir tomondan hirgori bhylab 8—10 santimetr enlikda juda halin qilib zardo'ziy kashta tiqilgan. Sallaning ikkinchi uchi — fachi salla 20—25 santimetr uzunlikda bodom nusxa yoki shunga uxshagan biron gul naqshi bilan bezatilgan. Sallani kuloh ustidan shunday o'ralganki, kashtasiz qismi kashtalik hoshiya tagida qolib ketgan. Uning

ikkinchi uchi fachi salla nomoz uhiylayotgan paytda chap tomondan tushirib huyilgan.

Kallapushi zardo'ziy—erkaklar bosh kiyimini yoshroq odamlar, o'smirlar kiygan. Utgan asr oxiri va asrimizning boshlarida yasalgan bunday chubinamo bosh kiyimi ayollar kallapushidan tagining ancha baland kutarilib turishi bilan farqlanib turgan. Ayollar dupnisi dam, erkaklar do'ppisi dam sidirga rang barqutga tagidan zamindo'ziy, guldo'ziy tarzi bilan yaxlit gullar berib tiqilgan. Ancha engil va nafis bo'lganligi uchun ko'prohqguldo'ziy tarzidagi gullar ishlatilgan. Do'ppilarga boshdan-oyoq islimiy kashtalar bilan xam, turli kurishshdagi geometrik shakllar bilan dam oro berib chiqilgan. Geometrik shakllar olti va sakkiz dirrali shakllar bo'lib, ko'pincha ular bir-biriga qalashtirib tiqilgan va oralari gul va yaproq nusxa nadshlar bilan to'ldirilgan. Chorgul nadshi dam erkaklar, dam ayollar do'ppisida baravar ishlatilgan. Chorgul kompozitsiyasida zargarlikka yoki zardo'zlikka oid dubba — burtma tadinchogi dhllanilib, dar bir butod yoki gulga uch donadan duyib tiqilgan. Bunday do'ppilar chor guli duvozda dubba (un ikki qubbali to'rt gul) deb atalgan.

Turli xildagi to'rt qirrali yulduzchalar. XX asr boshlaridagi erkaklar do'ppisi uchun xos kashtalardan hisoblanadi. Erkak va ayollarning cho'qqi do'ppilarining gardishi zar ipda tiqilgan yoki rangli shoyi jiyak bilan aylantirib chiqilgan .

Peshonaband barqutga, shoyiga, guldor atlasga, aynnksa fabrikada thilgai atlas ro'mollarga tiqilgan. Keksa zardo'z ustalar XIX asrning 80-yillarida dizil alvonga (alvonisurx) zardo'ziy peshonabandlar tikish keng rasm bulganini eslaydilar. Peshonabandlar ensizgina bo'lib, kashtalari qator qilib terilgan 5 yoki 7 ta halqachalardan (chilyolak) iborat bo'lgan. Bizgacha saqlanib qolgan peshonabandlar, asosan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga taalluqlidir. Kashta 8 dan 11 santimetrgacha enlikdagi yo'l bo'lib, chorsi ro'molda ko'ndalang tarzda joylashgandir. Ro'molning ikki qarama-qarshi burchaklari bitta qilib buklanib, oldindan tayyorlab olingan tarh asosida kashtalangan, qolgan burchaklari esa bosh orqasiga boglash uchun qoldirilgan. Peshonabandlar kashtasi zamindo'ziy va guldo'ziy tarzlarida ado etilgan. Se kitoba (uch kitoba) deb atalgan

kompozitsiya shu davr bosh kiyimlarini bezashda keng ishlanilgan. Bular yo cho'zinchoq doirayu to'rt yaproqli girihlar, yoki olti va sakkiz burchakli shakllardan iborat bo'lib, uchtasini bir qatordan qilib islmiy naqsh yoki yozuvlar bilan bezalgan barthut yoki zar tagzaminga joylashtirilgan . Ba'zan bunday kitobalar ichiga fabrikada ishlangan oltiburchakli metall yulduzchalari taqilgan halqachalar bilan bo'lingan. Yulduzchalar qimmatbaho toshlarga o'xshab ketadigan rangli shishalar bilan bezatilgan. Majnunbed (majnuntol) kashtasi peshonaband uchun eng sevimli mavzu hisoblangan, moh yarimoy kompozitsiyasi ham tez-tez uchrab turadi. Moh peshonabandi zargarlik turnorichlari bilan bezalgan. Uralgan. XIX asr boshlarida ayollar zardo'ziy do'ppilarining ikki xili mavjud bo'lgan. Xiyla eskiroqlari chuvdinamo bo'lib, uni tuppi kavushnok deyilgan, keyinroq, 90-yillarning so'nggiga kelib paydo bo'lgan, usti yassi va gardishi baland do'ppilarni do'ppi tahsimigiy deyilgan. Tahsimigiy do'ppilarning gardishiga shoyi jiyak tiqilmagan, zardo'ziy naqshlar esa butun gardishni hoplab, kungura ko'rinishi kasb etgan . Kungura nusxa kashta bilan tikish uzoqda bormay, taxminan XX asrning dastlabki un yilidayoq bardam topdi. Soch o'rimlarini qoplab turadigan uzun «dum»li kulutapo'shak bosh kiyimini yoshi katta ayollar kiyganlar. Sochlar har tomonga yoyilib ketmasligi uchun «dum»ning tagidan ikki-uch joyiga tugma ham hadalgan. Bosh qismining sirtiga guldo'ziy tarzidagi islmiy naqshlar bilan sidirga bezak berilgan. Gardishning old qismi va dumning hirroqlari islmiy yoki ishkandar pechak kashtalari yusinida qilib engilgina gullar tiqilgan. Gardish chekkalariga enli shoyi jiyak yoki zarrin jiyak qadab tiqilgan. Gulning qo'yi yuza qismiga guldondagi gul tasviri tushirilgan. Gulning qirgoqlari ham jiyak va keng zardo'ziy yo'l bilan aylantirib chiqilgan. Bu xildagi zardo'ziy bosh kiyimlari ko'pincha piston qadamali pulakchado'ziy tarzi bilan qo'shib yuboriladi.

Chorsi sarandoz ro'moli ham zardo'zlik kashtalari bilan bezatilib, turri ikki buklangan holda boshga tashlab yurilgan, bunda ro'molning to'rtala uchi ham orqaga tushib turgan. Sarandozni do'ppining ustidan, peshonabandning ostidan taqilgan. Uchburchak rido ro'moli esa peshonabandning ustidan tashlab, bir uchi orqaga, ikki uchi ko'krakka tushirib taqilgan. Sarandoz ro'mollari popukli kattakon

fabrika atlaslaridan qilingan. Ular kashtalarining goyat oddiy va yaxlit tuzilishlari bilan ajralib turadilar, o'rtacha enlikdagi jiyak (hoshiya) bilan aylantirilib, islimiy naqshlar bilan to'ldirib chiqilgan, to'rttala burchagida buta kashtasi, o'rtada umumiy markazga ega bo'lgan halqalardan iborat kattakon doyra bo'lgan. Qalin to'qilgan, shoyi matodan qilingan rido larga burchaklarida bodom kashtasi va o'rtasidan yarim doyra nusxasi tiqilgan.

Katta yoshdagi erkaklar va bolalar belbogi shoyi va atlasdan tiqilib, sarandozdagidek kashtalar bilan bezatilgan, faqat o'rtadagi doyra bo'lmagan, xolos. Kashtalarning jimjimadorlikdan xoliligi va tarhlarining oddiyligi ularni ro'mollardan farqlab turgan.

Ayollar bayram liboslari uchun uni 7 dan 10 santimetr gacha bo'lgan zei ko'rta—yoqa tiqilgan. Bunday yoqaning uzunligi tizzagacha tushgan, ba'zan undan ham uzunroq bo'lgan. Unga tiqilgan gul va kashtalar o'zlarining rang-barangligi, serbezakligi bilan diqqatga sazovordir. Zardo'ziy zei kurtalarning haddan ortiq jimjimador kashtalari zardo'zlikdan taishqari yana bosma islimiy naqshlar tushirilgan yuqqa zarrin kumush qoplamalari bilan ham bezatilgan. Ayollar kuylagi engining nugi ostiniy alohida tiqilib, uni boshqa har qanday bayram libosiga kuchirib uthazish mumkin bo'lgan. Buxoro shaefi ayollari mehmonga borayotib bir nechta ko'ylakni ustma-ust kiyib olganlar. Ularning qimarilgan uzun englaridan nechta va qanaqa ko'ylak kiyganlari yaqqol ko'rinib turgan. Badavlat bo'lmagan ayollar bunday zardo'ziy ko'ylak o'rniga eng taqishgan. Englarni asosan shoyiga tikkanlar, kashtalari enli jiyak ko'rinishida oddiygina islimiy naqshlar bilan to'ldirib bezatilgan. Xuddi englar singari kamzo'llarning yoqasi ham alohida tiqilib, boshqa kamzo'lga kuchirib uthazish mumkin bo'lgan. Yoqalar silliq sidirga rang barqutga tiqilgan. Paranjining faqatgina ko'krak qismidagi (har bir tomonida bittadan) peshakka uncha katta bo'lmagan bodom nusxa zardo'ziy kashta tiqilgan yo'gon englari — dumi paranjining uchlarini biriktirib turadigan ensizgina yo'lga ham xuddi shunday kashta tiqilgan. Ot eli parda — chashmbandning pastki diomidan 8—10 santimetr enlikdagi zardo'ziy jiyak islimiy tarzidagi kashta bilan to'ldirib chiqilgan. Chashmband ham yuza qismidan, ham ochib yurilganda

ko'rinib turgani uchun ichki qismidan kashtalar bilan bezatilgan. Tagzamin o'rnida nopormon barqutdan foydalanilgan.

Pul, tarod, cho'ntak soatlar singari buyumlarni solib yuradigan turli xaltachalar bir xil rangdagi silliq barqutdan tiqilgan. Bunday xaltachalarga islimiy ko'rinishdagi butodcha, bodomcha nusxa kashtalar bilan bezak berilgan. Damyonlar har ikkala tomonidan, qolgan barcha buyumlarni faqat bir tomonidan kashtalar tiqilgan.

Uy-ruzgor buyumlaridan sazana zardhzlik naqshlari bilan tiqilgan. Takiyapo'sh yostid jildi, lo'la-bolish gilofi, joynomozlar ham shunday usulda bezatilgan. Suzana va tadiyahpushlar ko'prod nopormon barqutga guldo'ziy va guldo'ziy-zamindo'ziy tarzida tiqilgan. Bu har ikkala buyum kashtalari goyat oddiy bo'lgan: islimiy naqshli o'rtacha enlikdagi jiyak dator tik butalar yoki burchak-burchagida islimiy naqshlardan iborat halhachalar markaziy maydonni qurshab olgan. Suzanadagi butalar orasida ochid qolgan qismlar ancha mayda butachalar bilan to'ldirib chiqilgan. Butachalar naqshi, ayniqsa, keng rasm bo'lgan. Lo'la-bolish giloflari guldo'ziy tarzida ko'proq butachalar naqshi bilan orolanib, tiqiladigan hamma joy baravar to'ldirib chiqilgan. Lo'laning qirrodlari islimiy kashtali ensizgina jiyak bilan aylantirilgan.

Yuqorida batafeil bayon etilgan zardo'ziy buyumlar faqatgina O'ziga thq odamlarning uyida bo'lib, to'n pa tantanalarda (kelin tuyi, xatna to'yi, beshik to'yi va hokazolar) taqmonlarni ko'rpa-to'shakka to'ldirib, uyni kurkam qilishda foydalanilgan. Joynomozlar to'qsariq rangdagi Qarshi olachalaridan tiqilgan. Ularning kashtalari uchala tomondan kirroq bo'ylab aylantirib chiqilgan enli jiyaklarda uz ifodasini topgan. Jiyaklarning tagzamini, odatda, alohida joylashgan butalar bilan kashtalanib, buyumning o'rtasi ochiq qoldirilgan.

1.5. Buxoro zardo'zligi qiyosiy taxlili

Tikuv tarz-tariqalarining bir qancha uslubiy xususiyatlari va tahliliga hamda ularning tayyorlanish jarayoniga asoslanib, XIX asr va XX asr boshlaridagi Buxoro zardo'zlik yodgorliklariki to'rt guruhga ajratish mumkin. XIX asrning 30—60 yillari; II—XIX asrning 70—80 yillari; III—XIX asrning 90-yillari; XX asrning birinchi o'n yilligi; IV—XX asrning ikkinchi un yilligi. Birinchi asrga oid zardo'zlik yodgorliklari, eng avvalo, o'zining oddiyligi na mukammal uslubga ega ekanligi bilan diqatni tortadi. Ularda aks ettirilgan islmiy kompozitsiyalar qanchalik oddiy bo'lsa, kashta gullari ham shunchalik ravon va jozibadordir. Kashtalar u qadar yirik bo'lmay, aksariyat hollarda butun maydonni bir tekisda to'ldirib turadi. Tagzaminning ma'lum kismiga kashtalar tiqilib, buyumga ortiqcha zargarlik bezaklari va taqinchoqlar bilan zeb berilmagan. Zardo'zlikda ko'pincha ykgirilgan zar va kumush iplar, buyumning ayrim kislari uchun esa eshilgan zar (kumush) ni kullanilgan. Bu davrga oid buyumlarning chok kashtalari uchun juda oddiy bo'lgan naqshlar tanlangan (mavji yak ro'ya va mavji du ro'ya, bulbulko'z, mavji chor dar chor).

Xomashyo takchilligi tufayli usta zardo'z bu kashtalarni katta maxorat va nozik did bilan ado etgan. Gul bosishdagi rang turlari goyat cheklangan sharoitda tikishlarning turli-tuman kombinastiyalaridan barakali foydalangan va nur va soyalar uynoqiligini kuchaytirish maksadida kator texnik usullarni qo'llagan holda zardo'zlar buyumlarga chuqur badiiy ma'nodorlik bagishlashga muvaffaq bo'lganlar. Material sifatida sidirga rang silliq barqut, ayrim hollarda atlasni tanlangan zardo'zlar o'zlarini yuksak badiiy sezgirlikka ega ekanliklarini namoyon etganlar. Olovrang dizildan tortib nopormon qizilgacha bo'lgan o'nlab tusda tovlanuvchi bunday barqut eng maqbul material deb xisoblangan. Goh-gohda nopormon barqut bilan moviy atlas ham ishlatilgan. Turli ko'rinishlarda tasvirlanuvchi butador va darham yo'lidagi gullar, darhami daraxt yo'lidagi engil erkin poziqiyalar, yoxud asosan 30—40 yillarda keng rasm bo'lgan guli chinni — xrizantema kashtalarini zardo'zlar o'z ishlarida bajonidil qo'llaganlar.

Bu davr zardo'zligida jiyaklar so'nggi davrga oid buyumlardagidek hali ancha taraqqiy topmagan edi. Jiyaklar nisbatan ensiz, oddiy bo'lsada, kashtalari hamisha nafis tiqilgan: u islimiy — nozik o'simlik novdasi, goho islimiy du raftora — ikki yo'ldan iborat o'simlik novdasi ko'rinishida ifodalangan. Jiyak qirgoqlari ensiz silliq yo'l — oba yoki bo'rttirib tiqilgan obi lo'la tikishi bilan aylantirib chiqilgai. Bunday jiyakning ichki qatori bo'ylab engilgina kungura nusxa yo'l o'tqazilgan. O'zining uslublashtirilgan xususiyatiga kura, 1224 yil xijriy (1809—1810) deb sana qo'yilgan, yuqorida zikr etilgan mahsilar ham zardo'zlik buyumlarining shu guruxiga mansubdir.

Dastlabki davr uslub xususiyatlarini deyarli butunlay saqlab qolgan bo'lsa-da, 70—80-yillar zardo'zligi o'zining xos xususiyatlariga ham egakim, bu hol uni alohida guruhga ajratishni taqozo etadi. Butador (uning turlaridan biri butadori tavqnok) xilidagi kompozitsiyaga ega bo'lish, sidirga rang mayin barqutlardan foydalanish, odmi tikish usullarini qo'llash, islimiy xilidagi jiyaklarning mavjudligi singari 70-yillar kashtalariga xos bo'lgan uslub xususiyatlaridan tamqari buyumiing bejirimligiga, tantanavorligiga va bo'yoqlarining yorqinligiga erishish uchun bo'lgan intilishni ham ko'ramiz. Ranglar yorqinligiga, birinchidan, zardo'zlik tikishida rangdor shoyidan ko'proq foydalanish va unga barqutni «edirish», ikkinchidan, rangarni ochadigan bir qancha yangi tikuv yo'sinlarini qo'llash orqali erishilgan. Kashtaning ayrim qismlari uchun qo'llanadigan va unga goyat yarashib turadigan, bundan tashqari gullarning girdini aylantirib chiqishda ishlatiladigan zar ip yoki zar aralashtirilib eshilgan ipak ipdan foydalanish diqqatga sazovordir. Kashtalarga ma'lum darajada mayinlik bagishlab, rangini ochib yuboradigan rangli ipak erishlar ham (pushti, to'q qizil, moviy, yashil, nopormon) bu davrga xos bo'lgan asosiy belgilardandir. Zardo'ziy birishimdo'ziy deb nomlangan murakkab texnikali zardo'zlikning o'ziga xos turi ham aynan mana shu davrga taalluqlidir.

Gullari fabrikada to'qilgan gazmollardan olingan daraxt xilidagi islimiy kompozitsiyalar va butador xilidagi dabdabali, bezakli kompozitsiyalar islimiy naqshlarning talqinidan o'tkir reallikni saqlab qolgan (bu 70-yillarning boshlarida

voqe' bo'lgan), biroq shunga qaramay, naqsh va milliy bezaklarni geometrik shaklga solishga, uslublashtirishga intilish, umuman olganda, xuddi shu davrning xarakterini belgilaydi. Dastlabki davr kashtalaridagi gul butodlari ancha real ifodalansa, bu erda turli ko'rinishdagi xurmo yaproqlari, salib ko'rinishidagi girid va hokazo vositalar orqali talqin etiladi. Kashtalar hajmi jihatidan «o'sa» boshlaydi. Dastlabki davrga xos bo'lgan, yaproqnusxa kashta daldasi bilan durshalgan mayda gul girihlarni naqshli yirik daldalar sidib chiqaradi (diametridan 30—40 santimetr).

80-yillar oxirida esa ancha murakkab yangi kashtalar yuzaga keldi, tagzamindagi oralid bush joylarni ikkinchi darajali elementlar bilan to'ldirishga intilish paydo bo'ldi. Kashta gullari ayrim-ayrim shoxobchalarga ajralib ketdi. Dastlabki davrga oid bo'lgan islmiy kashtali ensiz, odmi jiyaklar xiyla murakkablashdi. Uchinchi davr zardo'zlik yodgorliklari uchun taalluqli bo'lgan keng «ochih» jiyak turlari bunyodga keldi.

Bu davr (80-yillarning oxiri) tun zardo'zligida katak-katak barqutlar keng miqyosda dhllanila boshladi. Qizil mayin barqutlardan tashqari och ko'k va nopormon Barqutlar iste'mol qilinardi. Bu davr zardo'zligining yana bir O'ziga xos tomoni bu toqnishon deb atalgan usul hisoblanadi. Gazmol ustiga rangli shoyidan to'shama qo'yilib, ustidan kalyobatun bilan mayda katakchalar tikib chiqilgan.

90-yillarning boshida (1893 yil) zar iplarning yangi navlari ko'p miqdorda ishlab chiqarilib, ular rangli ipak iplarni deyarli batamom siqib chiqardi va umumiy tikish uslubini ham tubdan o'zgartirib yubordi.

Uchinchi davr (1890—1900 yillar) zardo'zligi tikishining haddan ortiq milligi, detallarining ko'pligi, ko'pincha ishining zargarona uta nozikligi bilan ajralib turadi. Turli kurinishdagi bo'rtiq girihlar, yulduzchalar va shunga o'xshagan boshqa bezaklar buyumga o'zgacha zeb berib turgan, ular a'lo sifatli zar sim bilan tiqilib, rangli shoyi iplarda goyat hafsala bilan jilo berilgan. Butun kashta yuzasi buylab sochilgan bunday bezaklar qimmatbaho zargarlik taqinchoqlarini esga soladi. Tagzaminning ochiq joylari qo'shimcha elementlar bilan zich tiqilib

to'ldirilganidan gazmolning rangi gira-shira ko'rinib turgan. Jiyak kashta hoshiyasini to'ldirishi bilan barobarida uning salmogini ham oshirib yuboradi. Milliy naqshlar islamiy elementlarning uslublashuvi va geometrik shakllar kasb etishi tobora takomillashib boravergan.

Butador xilidagi butoqlar kashtasi ancha ilgari mumkin qadar real narsa deb talqin etilar edi, 1890—1900 yillar buyumlarida esa ular ichi mayda islamiy uslublashtirilgan naqshlarga tula yirik-yirik cho'zinchoq doiralar, kvadratlar, halqalar va hokazo ko'rinish kasb etgan. Milliy naqshlar ichida davhur kompozitsiyasi alohida o'rin tutadi. Bu davr zardo'zligida paydo bo'lgan rango-rang gulli barqutlar aynan shu turdagi kiyimlar tikishda foydalanilgan. Bunda gazmolning ancha-muncha Kismi kashtagullardan xoli qolib, a'lo barqut o'zining qiymatini yo'qotmagan. Ayrimlari 25—27 santimetr enlikdagi «ochiq» maydonlar vam xuddi shu milliy naqshlardan andoza olib tiqilgan.

Bu davr zardo'zlik yodgorliklaridagi darham va butador kompozitsiyalari dabdabali liboslarga zeb berishda foydalanilgan, darhami daraxt kompozitsiyasi esa sira uchramaydi.

XX asrning ikkinchi un yilligi zardo'zlik buyumlari bizgacha goyat kam etib kelgan. Shu boisdan bu davr umumiy uslubi haqida bir narsa deyish qiyin. Umuman olganda bu ham 1890—1900 yillardagi goyat serhasham zardo'zlik uslubidan uncha farq qilmagan, biroq uning shunday o'ziga xos xususiyati ham borki, bu davr buyumlarini alohida tahlil qilishga to'la asos bo'la oladi. 1890—1900 yillar uchun xos bo'lgan buyumlar va texnik uslublar rango-rangligi bu erda ko'zga tashlanmaydi. Usta zardo'z imkoni boricha oz narsa imlatib, soz buyum yasashga tirishadi — u birgina ip — zar yoki kumush «sim»dan foydalanadi. Natijada kashta shunday bir orir manzara kasb etadiki, keragidan ortiqcha — yarqirab turgan zarrin rang kishi gashini keltirib, noxush kayfiyat paydo qiladi. Bunda biz zardo'zlikning na o'tgan asr 70—80 yillariga xos bo'lgan rangdorlikni, na 1890—1900 yillariga xos bo'lgan zavqyob jimjimadorlikni ko'ramiz. Boy bezagi va yorqin tovlanib turishi zardo'zlik bilan aslo chiqisholmaydigan rang-barang gulli barqutlar nisbatan so'nggi davrlarda yaratilgan buyumlarning

ko'rkamligini oshirish u yoqda tursin, balki ularning badiiy hiymatiga putur etkazdi.

O'rta Osiyoning mohir ustalari qulida barq urib gullagan Buxoro zardo'zlik san'ati o'zining badiiy qiymati bilan muhim o'rin tutadi. Necha asrlar davomida usta zardo'zlar tikishning eng ajoyib yo'llarini topdilar va uni takomillashtirdilar.

Ranglardagi nazokatni chuqur his etilgan holda ochiq rangli shoyilar zardo'zlikka tatbiq etila boshlandi. Milliy naqshlarning ayrim elementlari va kompozition tuzilishlari beqiyos xayolot mahsuli ekanligi aslo sir emas. An'anaviy talqinlarning keng miqyosda qo'llanilishi va an'anaviy kompozition sxemalarning mo'lligiga qaramay, bunda qotib qolgan andaza yoki shablondan asar ham ko'rmaymiz. Bular hammasi ustalarning Uzbekistan xalqlari madaniy merosi xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladigan chinakam san'at durdonalari yaratishiga imkon beruvchi qizgin ijodiy mehnatdan darak berib turibdi.

1.6. Zardo'zlik terminlari lugati

Almosiy (olmos)— girdobsimon gajakdor barglar turkumi ko'rinishidagi naqshning bir bo'lagi.

Angur— Uzun gujumlari shaklining jilosi.

Bayt — she'r — xashamdor yozuvlarga taqlid «kitoba» naqsh to'rini to'ldirish yo'li.

Barg —xar qanday yaproq shaklida tiqilgan kashta.

Bargi majnunbed — majnuntol.

Bargi shullukiy — zuluk ko'rinishidagi ingichka egma yaproq tasviri.
— shoyida tikish.

Bodom birishimdo'ziy — bodom.

Bodomi na'laknok — tana tasviri bilan to'ldirilgan bodom shakli.

Bodomi xazonnok — bargi suligan bodom shakli.

Bodomi shoxnok — bodom va shoxcha tasvirini beru

Bodomcha — bodomcha.

Buta — gulli buta.

Butacha — butacha.

Butador — yuza buylab bir tekis yoyilgan, gul dastalaridan tuzilgan bir butun naqsh, «Butador» usulida bezaklangan buyum turi.

Butadori daraxt — bir butun naqsh, «darxami daraxt» varianti, bunda gul tik yo'l-yo'l qatorlar buylab joylashgan bo'ladi.

Butadori tavqnok — bir tekis yoyilgan va orkasida katta «tavk» turunji bo'lgan bir butun naqsh.

Butadori chilyolak — yuza buylab bir tekisda «chilyolak» halqachalari joylashgan bir butun naqsh.

Gardish — «darxami daraxt» naqshining bir turi.

Guli bibishak — ayollarning manglayga takadigan gulga o'xshash zargarlik takinchogi.

Guli kal'agiy — nusxasi chet el idishlaridan olingan yirik gul shakli.

Guli kashkariy — qarang: «guli sadbarg».

Guli kosagul — karang: «guli kal'agiy».

Guli sadbarg — yuz yaproqli gul — ko'p mikdordagi yaproqlardan tuzilgan gul naqshi.

Guli chinni — xrizantema.

Guli chorbarg — to'rt yaproqli gul naqshi.

Guli xasht barg — sakkiz yaproqli gul naqshi.

Guli shishbarg — olti yaproqli gul naqshi.

Gul — xar kanday gul naqshi.

Guldo'ziy — charm, karton yo qogozdan kiyib tayyorlangan rasmga tiqilgan kashta.

Guldo'ziy zamindo'ziy — «guldo'ziy»ning «zamindo'ziy» bilan birikib, «guldo'ziy» xosil etuvchi aralash (murakkab) texnika.

Daraxt — daraxt shakli ifoda etilgan kashta (gul).

Darxam — butun tikish yuza buylab naqshi bir tekis joylashgan bir butun kashta. «Darxam» uslubida bezatilgan kiyim turi.

Darxami daraxt — asosini daraxt shakli tashqil etgan, gullari barcha tikish yuzasi buylab bir tekisda joylashgan bir butun naqsh turi.

Davkur (davri kur birikmasidan) — orkasida «tayok» turunji bo'lgan kiyimning jiyak guli.

Davriy gardish — «gardish» usulida tiqilgan jul.

Davriy se gula — «se gula» usulida tiqilgan jul.

Dubarg — juft-juft gul.

Jiga davriy — yarim doyra shaklidagi jul.

Zamindo'ziy — zaminni bir tekkis zar ipda tikishning turli yo'llari.

Zamindo'ziy-guldo'ziy — «zamindo'ziy» ustunligidagi aralash texnika. «guldo'ziy-zamindo'ziy».

Zardo'z — zardo'z.

Zardo'ziy — zarda tiqilgan.

Zardo'ziy — berishimdo'ziy — zar va rangli ipak ipda tikishning aralash texnikasi.

Zei ko'rta — ayollar kuylagining yoka va dagi kashtalar.

Iroqi — salib ko'rinishidagi chok (tikish) turi.

Islimiy — o'simlik navdasi ifodasi.

Islimiy du raftora — bir-biriga o'rilgan ikki novda shakli.

Islimiy yak raftora — yakka xoldagi novda shakli.

Ishkandar pecha — «gajak».

Ishkandarpechoni bodomnok — bodomli gjak shakli.

Ishkandarpechoni tangachanok — tangachali gjak shakli.

Ka'bi gul — guldun (arabcha ka'b — idish va forscha gul so'zlaridan). «Tavk» turunjining kuy i kismida joylashgan naqsh bo'lagi.

Kalyobatun — zar yo kumush ip ko'shib yigirilgan ipak ipda chok tikish.

Kalyobatuni safid — ipak ipning kumush ip ko'shib yigirilgani.

Kalyobatuni tillo — ipak ipning zar ip qo'shib yigirilgani.

Kandoriy — qarang: kandoriydo'ziy.

Kandoriy dila xonanok — rangli ipak kalava qo'shib kanda\orcha tikish usuli.

Kandoriydo'ziy — kandahorcha tikish, qatimlarning kesishuvidan xosil qiliigan kata- katak naqshlar.

Zardo'ziy tangachanok — odatda sim zardan qilinadigan «taigacha» kandoriy Kandoriy hasht baxyagiy — sakkiz baxyali qandaxorcha tikish bo'lib, bir-biriga qalashgan kvadratlardan iborat.

Kandoriy hasht baxyagiy dila xonanok — barkut, shoyi kabi mato parchalari huyib, sakkiz baxyali kandahorcha tikish usuli.

Kandoriy qasht baxyagiy tangachanok —«tangacha»li sakkiz baxyada tiqilgan kandahorcha tikish.

Kandoriy chor baxyagiy — kvadratlar turi yoki zanjiri qosil qilib, to'rt baxyada tiqilgan kandahorcha usul.

Kitoba — me'moriy bezak elementlariga o'hshatib tiqilgan kashta. Yozuvli uzun to'rtburchakning ichi islimiy naqshlar bilan to'ldirilgan.

Kobuliy — kobulcha tikish — baxyalar dumaloq qalkachalar koʻrinishida boʻladi.

Koʻshbodom — bir juft bodom nusxasi.

Koʻshbodom xazonnok — barglari suligan bir juft bodom nusxasi.

Qoshin — sirli sopol naqshlarga oʻhshatib, buyumga kadab tikish usuli.

Qubba—boʻrtik zargarlik yoki zardoʻzlik bezagi boʻlib, kashta yo gulga qoʻshib kadaladi.

Kungura — dumaloq yoki tugri chiziqli tishlar.

Qoʻr — bezakli xoshiya.

Qoʻri pesh-yala—«oldi ochiq hoshiya»—faqat bir tomonidan obasi boʻlgan, ikkinchi tomoni umumiy bezaklarga kushilib turadigan xoshiya.

Lolai qalʼagiy — nusxasi Rossiyaning fabrikada tuzilgan gazmollaridan olingan lola shakli.

Lolagul—lola naqshi bezagi. ____ **Majnunbed** — majnuntol naqsh bezagi.

Madoxili durun ba durun — karang: «chor madoxili durun ba durun».

Madoxil — yaproqnusxa ark shaklini eslatuvchi naqsh bezagi. Karang: «chor madoxil».

Margula — gajak.

Margulay dumchanok — dumli gajak.

Margulai nuktez — oʻtkir uchli gajak.

Mavj — toʻlqin tikish bezagi.

Mavji du roʻya — ikki taraflama toʻlqin—koʻndalang yunalishda yurgizilgan kush yoʻlli ilonizi tikish bezagi.

Mavji ocha-bacha — ona-bola toʻlqin biri tor va yassi, ikkinchisi keng va boʻrtiq (shu boisdan u yarkirab turadi) ikki yoʻldan tashqil topgan kashta guli.

Mavji pushti mox,iy «balik tangachasi», karang: «mavji duruya».

Mavji xanjariy — uchburchak maydonni toʻldirib turuvchi tikish bezagi, baxyalar bir-biriga yonma-yon xolda turli-tuman tomonlarga yunalgan boʻladi.

Mavji bulbuli — ikki taraflama bulbul koʻzi tulqini.

Mavji chashmi bulbuli chorta—toʻshamaning toʻrttadan ipiga bulbulkoʻzi toʻlqin tushirilgan tikish bezagi. Karang, «chashmi bulbuli chortai».

Mavji chashmi bulbuli shishta — to'shamaning oltitadan ipiga bulbulko'zi to'liqin tushirilgan tikish bezagi. Karang: chashmi bulbuli shishtai.

Mavji chashmi bulbul — bulbulko'zi — mayda kvadrat va romblar kosil qiluvchi naqsh bezagi.

Mavji chor dar chor — to'rtga to'rt to'liqini — urimlarga uxshagan naqsh bezagi.

Mavji yak ruya — bir taraflama to'liqin — ko'ndalang yurgizilgan kush yo'l ko'rinishidagi kashta bezagi.

Mox — yarimoy.

Mashrafa — ko'za.

Mexrob — yaproqnusxa ark.

Na'lak — tak, yurak shaklidagi juft gajak.

Na'laki nuktez — taka.

Nim gisht — yarimta gisht — ko'ndalangiga kesilib, ikkita uchburchak xosil qiluvchi kvadrat.

Nishon — nur yunalishida joylashgan va orden shakli bilan yugrilgan yaproqchalar.

Oba — hoshiya qirgoqparidan yurgizilgan yo'l, suv.

Obi chor dar chor — mavji chor dar chor varianti buyicha tukima savatga o'xshash ensiz yo'l ko'rinishidagi kashta guli.

Pulakcha — tangacha. Turli rangdagi va buyumga qadash uchun o'rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha.

Pulakchado'ziy — pistoncha kadab zarda tikish.

Se barg — uch barg.

Se gula — uchta guldan tashqil tovgm naqsh, kashta.

Se kitoba — uch «kitoba» — cho'zik doyra, to'rt yaproqli naqsh yoki ko'pburchakli shakllardan tashqil toptan, xar qatorida uchtdan joylashtirilib, islimiy yo xusnixat bilan tikib chiqilgan kashta.

Siddiy — bir necha kat ipdan eshilgan va matoga yonma-yon qilib kuyiladigan erish.

Sim — ok yo zarrin tovlanuvchi yassi kumush ip (sim),

Simdo'ziy — kumush ipda kashta tikish.

Tagalak — olkor shoxi — o'rama shaklidagi naqsh bo'lagi, ba'zan bunday shoxlar juft-juft holda tiqiladi.

Tangacha — kichkina doirachalar shaklidagi naqsh.

Tahrir — kashta chekkalarini aylantirib chikishda ishlatiladigan, zar tolalardan eshilgan ingichka ip.

Tahriri du bardor tuftagiy — karang: «tahriri sheroziy».

Tahriri du toba — karang: «tahriri du bardor tuftagiy».

Tahriri nim toba — zar tolalardan salki qilib eshilgan ip.

Tahiri xom — xom taxrir — bir necha kavat zar toladan iborat kalava.

Taxriri sheroziy — 4—6 dan 24 qavatgacha toladan ikki yo'lda eshilgan ip.

Tahriri yak toba — 4—8 toladan oddiy yo'lda eshilgan ip.

Tavk — (arab. — xalka) — chopon elkasida joylashgan keng turunj.

Toji gul — gultoj — «tavk» turunji bezab turadigan xurmo bargiga o'xshash shakl.

Tuftado'ziy — eshilgan zar ipda tikish usuli.

Turunj — zirk butasi shaklida ifodalangan kashta, gul.

Turunji na'laknok — zirk va taka shakllarining birgalikdagi shakli.

Xazon — sulgin, suligan (barg).

Xazoni du raftora — ikki taraflama urilgan sulgin barglar.

Xasht barg — sakkiz yaproqdan nborat naqsh.

Gisht — gisht — to'rtburchak shakl.

Gishti xaram — mukaddas (arab. — xaram) risht — bir-biriga qalashtirib tiqilgan to'rtburchak shakl.

Xorakdo'ziy — (xor — tikan) odatda eshilmagan zar yo kumush ipda kashta bulbuli — karang: «mavji chashmi bulbuli du ruya».

Chashmi bulbuli chortai — qirgoqlarini du ruya ensiz tarang tugunchalar bilan aylantirib chiqish.

Chashmi erishi to'rt kavat ipdan tashqil topgan bulbulkuz kashta guli (karang: «siddiy»); baxyalar 4 ipdan iborat erishni kamrab olib, kvadrat yo romb shaklidagi kashtalar qosil qiladi.

Chashmi bulbuli shishtai — erishi olti kavat ipdan tashqil topgan bulbulkuz kashta guli, karang: «chashmi bulbuli chortai». Bu erda baxyalar 6 kavatli ipdan iborat erishni kamrab oladi.

Chashmi bulbul — karang: «mavji chashmi bulbul».

Chilyolak — xalqa — gullar bilan to'ldirib chiqilgan kubba.

Chorgul—to'rtta guldan iborat bir butun naqsh.

Chor madoxil — to'rt kirish yo'li (arab, madoxilu — kirish)—yoy o'qining uchi ko'rinishidagi to'rtta yaproqdan tashqil topgan gul shakli.

Chor madoxili durun ba durun — bir-biriga qalashtirib tushirilgan arklar tasviri.

Shash xoli du mavja — kush to'lqinli olti xol (karang: «shash xol» va mavji du ruya»).

Shash xoli kashtai — erishning sakkiz ipiga tiqilgan «shash xol» gul naqshi (karang: «siddiy»).

Shash xoli yak mavja — bir qator to'ltinli oltita xol (karang: «shash xol»).

Shash xol — «olti xol» — bir yoki ikki qator to'lqinlar orasiga joylanib, tur hosil qiluvchi kashta guli (karang: «mavj»).

Shox — Shoxcha shash xolnok — «shoxcha» bilan «shash xol» elementlarining birikuvidan xosil shox shaklida ifoda etilgan gul, kashta.

Shoxcha — shoxcha — baxyalari archa shaklini xosil qiluvchi kashta guli.

1.7. Kashtachilik san'ati tarixi

O'zbek milliy kashtachiligi amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta (fors tilida – chizilgan, tortilgan) amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi: igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh.

Arxeologik topilmalar kashtado'zlikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit muhit bilan bogliq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb hunar turlari bilan birga ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi.

Kashtado'zlikning paydo bo'lishi teridan qilingan buyumlarda boglash va choklarning yuzaga kelishi bilan bogliqdir. Kashtado'zlik taraqqiyotini Qadimgi Osiyo, Evropa, Amerika madaniy yodgorliklari adabiy manbalardagi kashtalar tasvirida, shuningdek, saqlanib qolgan kashtado'zlik namunalarida kuzatish mumkin.

O'zbekiston hududidagi kashtachilik namunalarining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV – XV asrlarga mansub minaturalar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzalis de Xlavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Bekzod “Zafarnoma”ga ishlagan “Temur taxtda” minaturasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashigasining ixtiro qilinishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur etkazdi.

Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlab qolindi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlanadi.

O'zbek kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afgon, Qozoq, Qirgiz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini o'rgatamiz. Chor Rossiyasi bosqimnidan so'ng qardosh xalqlar madaniyatining ta'siri kuchli bo'ldi. Bu san'atda bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan Qozoq va Qirgiz

kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an'analarga ko'ra o'zbek qizlari – bo'lajak kelinchaklar seplari har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlaganlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa qayliq shunchalik yuqori baholanar edi.

Qizlar 7 – 9 yoshdan boshlab kashta tikishga o'rgatilar edi. Ular 3 – 4 yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar.

1.8. O'zbekiston kashtachilik san'ati maktablari

Kashtachilik – O'zbekiston amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'analariga ega bo'lgan san'at turi hisoblanib O'rta Osiyoning yirik savdo hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. San'atning ushbu turi o'zining poetik rang – barangligining saqlab qolishi bilan birga xalq orasida qadrlanib, o'z mohiyatini yo'qotmadi. Kashtachilik asosan 6 ta hududiy guruhlariga, ya'ni maktablarga bo'linadi. Jumladan, Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent hamda Fargona kashtachiligi maktablaridir.

Kashtachilikning yirik markazlaridan biri sanalgan **Nurota** asrlar mobaynida kashtalarning mukammalligi, aniq ifodaliligi, tasvir aniqligi, o'simlik naqshlarining serjilvaligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. XIX asrda Nurota kashtalari gulli guldastalar bilan bezatilib matoning oq foniga tigiz to'ldirilmagan. Nurota kashtachiligi o'zining gullarning serjiloligi Kompozistiyaning bunday turi Nurotada "Chor shohu yak moh" – "4 ta shohu bitta oy" degan ma'noni anglatadi. Shu turdagi so'zanalarga XIX asrning o'rtalarida Nurota kashtachiligi tomonidan yaratilgan, hozirgi kunda esa O'zbekiston Davlat San'at muzeyida saqlanib kelinayotgan ajoyib so'zana o'zgacha engilligi va gulli naqshlarning serjilvaligi bilan ajralib turadi.

So'zana ornamentining ayrim joylarida guldastali guldonlar hamda guldastaning o'rtasida anor shaklini ko'rishimiz mumkin. Mallarang, tillarang, havorang, pushti, nofarmon och yashil ranglar bir – birlari bilan uygunlashib, so'zanaga o'zgacha bagridillik baxsh etadi. Naqshlari romb shaklida tuzilgan hamda tishli barglar bilan bezatilgan.

("Tobadoni" – katakli, panjarali) so'zanalar ham Nurota kashtachiligining yana bir turi hisoblanadi. Uning kataklari shoxli barglar, shoxli gullar va kosagullar, hamda qushlar va hayvonlarning shakli bilan to'ldirilgan.

Shunday so'zanalar ham borki, ular mato fondidan ayrim gulli motivlar shaxmat tarzida joylashgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Nurota kashtachiligida keskin pasayishi seziladi.

Gulli motivlar detallarning rang – barangligini yo'qotib, bir xil doiralarga aylanib qoladi.

Nurota kashtalari asosan “bosma” uslubi bilan tikiladi va naqshlarning cheti zanjirsimon uslub bilan aylantiriladi. Kashta ranglari och ranglar bilan tikilgan. Nurota kashtachiligida quyidagi kashta turlari va badiiy buyumlar tikiladi: so'zana, nimso'zana, takiyapo'sh, joynamoz, joypo'sh, zardevor, gulko'rik, dastorpech, belbog, qo'lro'mol, yostiq, oynaxalta, choyxalta, choyshab. Kashta asosan bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal movutga tikiladi. Iplari ipakdan yigirilib, bo'yoqlari tabiiy o'simliklardan olinadi.

Lekin hozirgi kunda sun'iy toladan yigirilgan va kimyoviy bo'yoqlar bilan bo'yalgan iplar kashtachilikda ishlatilmoqda.

Nurota kashtalarini engil, yorqin tonlar: qum, oltin, havorang, malina, pushti, och ko'k roangli iplari bilan tikilgan.

Samarqand kashtachiligi yorqin va o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyatga ega. Buxoro, Nurota, Shaxrisabz kashtachiligini an'anasiga yaqin bo'lishiga qaramay Samarqand kashtachilik maktabi o'zining badiiy mahobatligi, ranglarining qat'iyligi, tozaligi, shakllari harakatchanligi bilan alohida ajralib turadi.

Samarqand kashtalari Nurota va Buxoro kashtalaridan farq qiladi. Ularning guli yirik va uygundur, hamda ko'pincha “bosma” chok qo'llanilgan. Samarqand kashtalarining asosiy motivi barglar bilan o'ralgan doira – turunjdand iboratdir. Eski kashtalar kishiga nozikligi va gullarining xilma – xilligi, batartibligi hamda ranglarining bir – biriga monandligi bilan ta'sir etsa, yangi kashtalar kishilarni formalarining kuchi o'ynoqligi, dadilligi, ifodaliligi va gullarining rango rangligi bilan kishini maftun etadi.

Samarqand kashtalarida mahobatlilik va fikrini ochiq ijod qilishi sezilib turadi. Buni doira – turunjlarning aniq ritmik, qora jimjilarining aniq, erkin soyalari ta'minlaydi.

O'rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri **Shahrisabz** kashtalari diqqatga sazovordir. Shaharda ko'zlarni yashnatuvchi gullar va yaxshi o'simliklar ko'p

bo'lganligi uchun u "yashil shahar" nomini olgan. XIX asrda Shahrisabz Buxoro amirligi tarkibidagi bekliklardan biri edi. Beklar va amirlar saroylari kashtalarga buyurtma beruvchi asosiy iste'molchilar edi. Shuning uchun Shahrisabz ayollari mayda kashtachilik mahsulotlaridan sanalgan so'zana, to'n, shuningdek, ot yopgichlariga bezaklar tikishar edi. Shahrisabz kashtalari shahar muhitining estetik didini aks ettirdi. Chunki ular saroy ustaxonalarida ishlagan ustalar va rassomlarning ijodiy ishi.

Xalq bezagi an'analari shahar kashtachiligi uchun asos bo'lgan.

O'rtada gul ko'rinishidagi asosiy nishon, uning atrofida turli naqshinkor gul shaklidagi bezaklarni tushirib, ishlov berish shahar kashtalarining asosiy xususiyati edi.

Odatda, asosiy markaziy va eniga ko'ra kashtaning o'rta qismidagi qayishmaydigan 2 ta ingichkaroq qo'shimcha hoshiya qatordan iborat.

Bunday kompozitsion qurilmalar gilamlar uchun xos bo'lgan kashtalar tayyorlash uchun qo'lda tikilgan paxta yoki moyi mato shuningdek, ipak va jun iplardan foydalanilgan. Shahar kashtalari yuqori sifatli bilan ajralib turgan.

Shahrisabz chevarlari kandaxayon chokidan ko'proq foydalanilgan.

Shuningdek, ular bosma, yo'rma, iroqi choklari ham ishlatilgan.

Tadqiqotchilar, Shahrisabz kashtalari gul bezaklarining mo'lligiga ko'ra Buxoro va nurota kashtalariga yaqin turadi. Bunda tag matoning ayrim qismlarigina ochiq qolgan. Kashtachiligida hamda saroy san'atida keng tarqalgan edi. Ular Shahrisabz yodgorliklari me'moriy bezaklarida ham o'z aksini topgan. Shahrisabz kashtachiligi uchun hoshiyaga tushiriladigan chohor, chiroq usuli xos xususiyat hisoblanadi. Bu usul turmushda ishlatiladigan chiroq shakliga monand ishlangan. Shahrisabz kashtalarida ko'p sonli gul bezaklari orasida bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan qumgon, xo'roz, anor kabi tasviriy vositalar ko'p uchraydi.

Toshkent Davlat san'at muzeyi kolleksiya-sida saqlanayotgan XIX asr oxiriga oid kashta bunga misol bo'la oladi. Shahrisabzning bu qadimiy kashtasi ko'pgina maqola bu yoki tadqiqotlarda tilga olinadi. Bu kashta faqat bezakdorligi

va tasvir qatori bilangina emas, balki qo'shimcha qiya hoshiya bo'ylab, arab harflarida tilak ifoda etilgan yozuvi mavjudligi bilan ham e'tiborni tortadi. Shahrisabz bezakchiligida keng tarqalgan yo'nalishlardan biri ko'p mayda gullar bilan bezatilgan gullayotgan novda ko'rinishdir.

Kashtachilik o'zaro qarama – qarshi ranglar bilan kashtaning go'zal bo'lib ko'rinishiga erishgan. XIX asr so'ngida anilin bo'yoqlaridan foydalanish Shahrisabz kashtalari sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Garchi kashta tikishda safsr moviy rang, yashil kabi ranglardan foydalanish imkoniyati paydo bo'lgan bo'lsada, kashtalari o'zigagina xos bo'lgan tabiiy ranglarning nozik uygunligidan mahrum bo'ldi. Xususan, to'q qizil rangni och ko'k bilan yoki yorqin qizil rangni sariq rang bilan ishlatish odat bo'lgan.

Yana bir kashtachilik markazlaridan biri **Toshkent** kashtasi hisoblanadi. Toshkent kashtalari ikki tipga bo'linadi: bu palak va gul ko'rpadir.

Toshkent kashtachiligidagi palak va gulko'rpalarni bezashda ko'p mativlar masalan, yulduz, katta – katta doiralar, gulli shaxchalar ishlatilardi. Tikishda asosan “bosma” chok qo'llaniladi. Toshkent palaklarining kompozistiyasi to'q qizil rangli bir – bir tekis tikilgan doiralardan iborat.

Doiralarning soniga qarab masalan “olti oylik kapalak”, “o'n ikii oylik kapalak” va hokazo deb yuritiladi. Gul esa markazdagi yulduz yoki doira va gulli shoxlardan iborat bo'lib, fonining ko'p eri tikilmaydi, bo'sh qoladi. Hozirgi kunda Toshkent kashtalari butunlay o'zgarib ketdi. Doiralar soni kamayib, o'lchami kattalashdi, ular qatori o'rnini yangi usuldagi bitta katta doira egallaydi.

Bunday palaklar “oy palak”, “qiz palak” va “tohora palak” deb ataladi. Ular bir tekis fonida ochiq joy qolmaydigan qilib tikiladi. Kashta ranglari bir – biriga umuman qarama – qarshidir.

Kashta ranglari bir – biriga umuman qarama – qarshidir. Kulrang chiziklar tikilgan, qolgan joylari bir tekis to'q qizil rangli iplar bilan to'ldirilgan.

Fargona vodiysi kashtachiligi ham eng diqqatga sazovor kashtachilik markazlaridan biri hisoblanadi. Fargona vodiysi - kashtalar shoxsimon grafik gul yoki konstentrik aylanalardan, doira turunjlaridan iborat bo'lgan va yaxshi

yigirilgan ipak bilan “vosita” chokda tikilgan, shuningdek kompozistiyasi fonida ko'p bo'sh joy qolishi bilan ajralib turadi.

Fargona kashtalari to'q ko'k yoki binafsha rang shohi va satinlarga tikilgan bo'lib, gullar yuzaga erkin joylashgan va ular juda nafisligi bilan ajralib turadi.

Ro'yjo uchun qayrishma gulli kungurali buta motivlarining qaytarilishi xarakterlidir. Fargona kashtasi asosan qora fonga yorqin ipaklar bilan tikilgan, qizil malina rang gulli oq qizil malina rang oq sariq butalarning galma – gal qaytarilishi natijasida rangdor ritmli hosil qilinadi. Hamda Fargona do'ppilarini eslatadi.

Mahalliy kashta maktablari orasidagi farqni gapirar ekanmiz **Surxondaryo** kashtachilik san'ati bilan ham tanishishni joiz topdim.

Surxondaryo kashtalari o'troq va ko'chmanchilik madaniyatining qorishuvini ifodalovchi ranglar jilosi, kompozition tuzilmasi, bezak lavhalari tizimida o'z ifodasini topadi. Surxondaryo kashtachiligida XX asr birinchi yarmida o'simlik va geometrik bezaklardan keng foydalanilgan. Ilon izi chiziqlar, gullar tasviri, qo'chqor shoxlari to'lqin ko'paytiruv alomatlari shular jumlasidandir.

Hozirgi paytda O.Shoyqulova, N. Qurbonova, U.Jo'raeva, Z.Murodova kabi Surxondaryolik kashta chevarlar an'anaviy kashtachilik davomchilari hisoblanishadi. Ular o'ziga xos unsurlarni saqlagan holda kashtachilikda lola gul, egizgul, oygul, paxta gul kabi zamonaviy talqinlarni qo'llamoqdalar.

Surxondaryo viloyatining Boysun degan tumanidagi deyarli har bir uy o'ziga xos xalq madaniyati.

Ularga mayda nuqtalar tushirilgan yoki qush va jonivorlar shakli qo'shib tikilgan. So'zanalar o'ziga xos alohida boy manzarani namoyon etgan, ularda dunyoning yaratilishi, tabiat, baxt va muhabbat haqida asrlar davomida yuzaga kelgan tasavvurlar she'riy shalda aks ettirilgan. O'rtada odatda, aks quyosh va oyni mejozit aks ettiruvchi ulkan doiralar joylashadi. Doiralar oraligida bodomgul, lolagul, atirgul kabi ismli naqshlar erkin joylashgan, butalarda qaldirgoch va bulbullarning turli maqomdagi tasvirlari aks ettirilgan.

Butun manzara she'riy ramzni namoyon etib turadi. Xalq ustalari, jannatni ana shunday tasavvur qilishadi. Manzaraga qanotli jonzorlar shakli kiritilishi bejiz

emas, kashtachilar ularni farishtalar deb atashadi. So'zana chetlaridan "obiyo – suv yo'li" o'tadi, u go'yo ertaklar olamini ramziy tarzda chegaralab turadi. Joynamozlarning bezagi ma'lum darajada cheklangan – namozxon oyogi turadigan joy odamda gulsiz qoladi. Chetlar esa gul bilan bezatiladi. Surxondaryo viloyatining boysun degan tumanidagi har bir uy o'ziga xos xalq madaniyati muzeyiga ega bo'lib, ularda xilma – xil kashtachilik buyumlari, gilamlar, kigizlar namoyish etilgan.

2003 yilning yozi va kuzida Boysunning Ko'chkak, Bogibola, Labisoy, Ariqusti, Machay, To'da, Duoba, Och machit, Dadband kabi qishloqlariga qilingan bir qancha ekspeditsiyalar natijasida qayd etilgan kashtalarning asosiy tarkibi 1960 yillardan hozirgi vaqtgacha yaratilgan buyumlarni o'z ichiga oladi. Ularni orasida eng ko'p tarqalgan buyumlar borpo'li, bo'gjama, zardevor, joynamoz, bolinpo'sh, belbog, oynaxalta, choyxalta, so'zana va hokazolar sanaladi. Yorqin kalorit va o'ziga xos gullar Boysun kashtalarining yorqin ko'zga tashlanuvchi xususiyatlaridir.. Qizil, yashil, sariq, ko'k ranglarining mo'lligi hayratomuz engillik va nafislik ila Boysun kashtalarida ajoyib uygunlik kashf etadi.

O'zbekistonning boshqa tumanlarida bo'lganidek, Boysun kashtachiligida ham ishlash va handasaviy naqshlar ustunlik qiladi. Joynamozlarda ko'pincha anor va lola tasviri aks ettiriladi. Choyxalta, oynaxalta, belbog, dastro'mol va sochiqlar ham gul bilan to'ldirilib chiqiladi.

Kashtachilik san'atining qadimgi maktablaridan bo'lmish **Buxoro** viloyatining milliy kashtachilik, san'atini o'ziga xos xususiyatini, tabiiy bo'yoqlarini qo'llanilishi texnologiyasi va bezaklarining qadimiy nusxalarini tikilishi, shu kunda xalqimiz diqqat e'tiborini o'ziga tortdi.

Buxoro kashtachilik san'ati bilan tanishish, uni o'rganish yoki avlodga etkazish kerak.

Buxoro kashtalarining o'ziga xos belgilaridan biri ularda "yo'rma" choki mahorat bilan qo'llanilishida va havo rang, gul rang, binafsha rang, pushti va och sariq rang, qizil malina va ko'k ranglar bilan uygunlashidadir.

Buxoro kashtalarida “yo’rma” chokdan tashqari, kompozistiyasi, tuzilishi va gullarni ham juda xilma – xildir. Mato yuziga bir tekis joylashgan ingichka shoxdagi gullar shoxlar bilan o’ralgan yo’rma do’zi qilinganligi bilan ajralib turadi. Buxoro maktabida esa, ko’proq igna bilan birga yo’rma choki bajarilgan.

Gijduvon chevarlari ipak ipni chap - rost qilib chillikda tob berib bajarsalar, buxoroliklar birishim iplari bilan chap rost toblamasdan kashta tikishgan. Gijduvon kashtalari asosan oq, kulrang, malla, tabiiy rangli karbos, qizil satin, oq surp va qo’ngir rang rensa tikilgan bo’lsa, Buxoro kashtalari oq karbos, rangli adras, shoyi va hisori matolarga bajarilganligi bilan farqlanadi. Gijduvon so’zanalari joypo’sh va joynamozlari kompozistiyasi an’anaviy markaziy maydon, keng hoshiya va 2 ta tor hoshiyalardan iborat, markaziy maydonda simmetrik naqshlar ketma – ket holatda joylashtiriladi. Keng hoshiyada asosan markaziy maydondagi naqshlar simmetrik holatda takrorlanadi yoki “islamiy” holatda takrorlanadi, naqshdan iborat bo’ladi. Ikkita tor hoshiyada bir – biriga o’xshash geometrik “islamiy” ngaqsh, “miandr”, “mavj” yoki “sebarga”dan ikki yoki uch qator yo’rma chiziqlari o’tkazilgan. Kompozistiyani birinchi holatda asosan geometrik doiralar, “to’pbarggullar”, butalar va shoxchalar tashkil qiladi. Ochiq qolgan joylarga barg, shoxcha, ko’zacha, oftoba, ayrim hollarda qushlar tasviri tikib to’ldiriladi.

Kashtalarda – butagul, gul daraxt, qo’shko’rak, tagalak, anguri, shobarg kabi shaqshlar uchraydi. Ba’zi hollarda katta binolarning arab yozuvida forsiy va turkiy tillardagi baytlar tikib bezatishgan. Odatda, yirik katta buyumlari nusxalarini maxsus tajribaga ega bo’lgan chizmakash – nusxachalar chizishgan. Chizmakash naqshlarni “rangli siyo” – qora tabiiy bo’yoqlar bilan chizgan. Kashta kompozistiyasi chizilayotganda, matoh yaxshi taxta qilib tikilgan, uning dioganallari bo’yicha qatlab markazi topilgan, keyin asosiy maydon va keng hoshiyaga ajratilgan. Har bir kashta nusxasini yaratish chizmakash uchun ijodiy jarayon hisoblangan. U hech vaqt tayyor ulgudan nusxa kuchirmagan. Ammo u kashta nusxasini kashtachiga ham chizma tariqasida bermagan. Uning hunari shaxsiy sirga ega deb hisoblangan. Kashtachilar kashta tikishda ayrim unsurlarni tikmay qoldirishgan. Buning ma’nosi, kashtachi chevarga ko’z tegmasin.

“Chashmi bulbul”, “dandon”, “dutarafa dandon”, “zanjiri”, “barra tishi” naqshlari kashta qismlarini chegaralashda qoʻllanilgan. Gijduvon kashtachilari ranglarni mahalliy tilda: pistoqi yashil, nofarmon – siyohrang gulobi koʻk, shirchoyi – nilobi, gilosi – toʻq qizil, kaboʻti – yashil, siyoh – qora, zard – sariq, xokistar – kulrang.

Ipak iplari tabiiy boʻyoqlarga boʻyash uchun ip kalavalari achchiq tosh eritilgan suvga solib qoʻyilgan, keyin tozalab olingan, rangga solib qaynatilgan va sirkali suvga botirib olib quritilgan.

Quritilgan ip qayta kalava qilinayotganda “xor – choʻp” silliq tayoqcha bilan tekislangan.

Tekislangan ip igna teshigidan yaxshi oʻtgan. XX asr boshlarida kelib tabiiy ranglar oʻrnini anilin boʻyoqlar egalladi. Gijduvon kashtalari, oʻzining mayin rangini yoʻqotib, oftobda tez oqaradigan sunʼiy ranglarni koʻproq ishlata boshlashdi. Bu esa Gijduvon kashtalarining ham qimmatini pasaytirishga sabab boʻldi.

1.9. Kashtachilik san'ati turlari va tikish uslublari

O'zbek xonadonining asosiy bezaklaridan biri – kashtadir

Ayniqsa, bayram, to'y, marosim paytlarda ular o'zbek xonadonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Zardo'zlik – kashtachilikning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Zardo'zlik O'zbekistonda, ayniqsa Buxoroda qadimdan rivojlangan. Zardo'zlikda oltin va kumush suvi bilan ho'llangan, shuningdek zanglamaydigan ingichka metall simlar, hollangan ip (zar ip) lardan foydalanib kashta tikiladi. Ipak, paxta iplari ham ishlatiladi. Kashta guli shakli avvalo, karton, charida qirqib tayyorlanadi, u kashta tikiladigan matoga tikib yoki elimlanadi, ustidan kashta tikiladi

Kashtachilikning yana bir turi **applikastiya** bo'lib, asosiy matoga boshqa rangdagi mato parchasi, qirqimi, movut, charm kabilar qadam atrofi kashta choklarida tikib chiqiladi. Bu usulda kashta tayyorlash o'zbek kashtado'zlari orasida rivoj topmagan.

Hamma xalqlarda ham kashtado'zlarning asosiy ish qurollari igna, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, angishvona, to'gnagich, qaychi va chambaraklardan iborat.

Kashta tikishdan avval kashta tikiladigan mato, kigiz, charm va shu kabilarning qalin yupqaligi, tikiladigan kashta xarakteriga qarab ip hamda igna tanlanadi. Tikish qulay bo'lishi uchun ip uzunligi 50 – 60 sm dan ortiq bo'lmasligi qaychi esa o'tkir uchli bo'lishi kerak.

Chambarak asosan yogochdan yasaladi. U doira, to'gri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi. Chunki u qulay. Umuman, qo'lga tikiladigan kashtaning ikki turi mavjud

a) bezatiladigan matoning arqoq hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish;

b) matoga gul tasviri konturi chizilib, kashta erkin tikilaveradi. Arqoq va o'rim iplarni kesishtirib to'qilgan matolarga ishlatiladi. Buning sababi tikishga qulaydir.

Sanama kashta turi O'zbekistonda keng tarqalgan. Sanama kashtaning iroqi turi ancha keng ishlatiladi. O'zbek kashtachiligida – yo'rma, ilma, iroqi,

bosma, xando'zi, chaman chippa xayol, baxya, kanda xayol, chinda xayol, ko'ppa, qarsdo'zi dol tashlab tikish usullari mavjud.

Yo'rma choki – yo'rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida xalqalar zanjiri hosil qilib tikiladi. Bigizga o'tkazilgan ipak matoning sirtidan chap qo'l bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa xalqa hosil qilinadi. Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan bandlar tikiladi. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadilar.

Ilma chokning 2 turi mavjud. Ilma bir tarafa, ilma ikki tarafa. Ilma bir tarafa choki gorizontal yo'nalishda chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga tomon tikiladi. Ilma ikki tarafga chokining ikki xil bajarish usuli bor. Birinchi xili – bir tomoni changdon o'ngga xalqa qilib tikib chiqilgach, keyin kashtani o'chirib, qolgan tomoni ham shu tarzda halqa qilib tikib chiqilgach, keyin kashtani o'chirib, qolgan tomoni ham shu tarzda halqa hasil bo'ladi. Ikkinchi usulda ip o'tkazilgan igna gazlamaning o'ng tomonidan qadab, yotiq chiziq bo'ylab, chap tomonidan sugurib olinadi. Chap qo'l bosh barmogi bilan ilib orqaga surilgan ip igna ostida qolishi kerak.

Shu tarzda bir yoqlama halqa hosil bo'ladi, so'ngra o'ng tomondan yana igna qadab, chapdan yotiq holatda sugurib olinadi.

Lekin bu ikkinchi va undan keyin o'ng tomonga uriladigan ignalarni sal qiyaroq tushuvchi vertikal ipdan yuqoriga avvalgi halqa chokning ichkarisiga qadaladi. Shu tarzda o'ng tomon halqasi hosil qilinadi. Ilma choklari odatda bosma choki bilan tikilgan kashtalarni hoshiyalashda ishlatiladi. Ilma choki, Fargona vodiysida ko'proq tarqalgan.

Ilmoq choki – tikilish usuli igna bilan tikiladigan yo'rma chokiga yaqin, bunda ham yuqoridan pastga tomon tikiladi, igna yonma – yon ikki qatorda sanchilishi bilan yo'rma chokidan farqlanadi.

Iroqi choki – ikki xil bo'lib, kashta butun va yarim xochlar tizmasidan tashkil topadi. Chokning ikkinchi turi mavjud, ular terma iroqi va iroqi deb yuritiladi. Terma iroqi bir – biri bilan ko'ndalang kesishadigan qiya

chiziqchalardan iborat bo'lib kashtado'zlar odatda bu chokka pastdan yuqoriga qarata tikadilar.

Terma iroqining ham ikki xili mavjud: sanama iroqi. Bu chokda ishlatiladigan to'rga yoki arqoq va o'rishidan ip tortib olinib, to'r shakliga keltirilgan matoga kesma chiziqlar sanab gul tikiladi, chizma iroqi xili esa matoga qalam bilan chizilgan naqsh gul ustidan tikiladi. Iroqining boshqa turida esa mato ustiga ip to'shalib, u maydpa choklar bilan bir tekisda kesib chiqiladi, keyin uning yoniga yana ip to'shalib, shu tarzda kesib tikib chiqiladi. Bu chok qadimdan Qashqadaryoda rivoj topgan.

Bosma chok – tik yoki yotiq to'shalgan ip ustidan kesib tikib chiqiladi, mato sirtqi sidirga qoplanadi, o'ng tomondan chapga, so'ng chapdan o'ngga, yana o'ngdan chapga va shu tarzda ip to'shalib ustidan bostirib chiqilaveradi.

Kanda xayol – chokida ip to'shama yoki yotiq bo'ladi. Bu chokning ham 2 xili mavjud. Bir xilida to'shama ip ustidan chatiladigan chok qiyalatib ustma-ust to'shadi, kashta tayyor bo'lganda novdadan to'qilgan savatga o'xshab ko'rinadi.

Ikkinchi xilida kashtado'z birinchi qatorni oldingi kashta xili tarzida tikib chiqqach, ikkinchi katorni tikayotganda oldingi qator ostki qismidan o'tkazib tikiladi, shunday qilib, choklar to'shama ip ustiga diogonal yo'nalishdagi ilon izli chiziqlar hosil qilib tushadi.

Chinda xayol – (duro'ya) choki igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, keyin teskari o'girib yana tikib chiqiladi, shu tarzda matoning oldi – orqasida bir xildagi gul hosil qilinadi. Bu chok bilan ikki tomoni ham ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro'mol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

Xomdo'zi – choki ham ikki yoqlama tekis tikiladigan bo'lib, ip tik yoki sal qiyaroq qilib tikiladi. Xom ipak bilan tikilganidan shu nom bilan atalgan.

Do'ppi gullarida, belbogcha nozik geometrik naqshlar tikish va shu kabilarda bu chokdan ko'p foydalanishadi.

Fargona vodiysida, Samarqandda keng tarqalgan.

Chamak (hunariy) choki rus kashtado'zlari orasida “kozmik” nomi bilan mashhur. Bu chapdan o'ngga qarab ikki parallel chiziq bo'ylab bajariladi. Ip

o'tkazilgan igna o'ng tomondan sanchiladi. Yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqariladi, pastki chiziqqa parallel ravishda to'g'ri qadaladi va pastga qiya qilib chiqariladi, shu tarzda davom etaverib, bu chokni pastdan yuqoriga ham tikkan ma'qul.

Bu chok ayniqsa do'ppilarni bezashda ko'p foydalaniladi.

Baxya choki qadimdan qo'lda tikilgan, hozir ko'pincha mashina bilan tikiladi. Bu chok kashta chetlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bir tekisda tikib chiqib, keyin mato o'girilib yana tikib chiqiladi, shu tarzda chiziq hosil bo'ladi.

Baxya choklari ikki qator, shuningdek qatorlar o'zaro tutashtirib chiqilgan ham bo'lishi mumkin.

Kuppa choki turli yo'nalishda ya'ni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sdirga qilib tikiladi.

Bunda yonma – yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan kichiklashib borishi mumkin. Bu chok sanama do'ruya, pishtado'zi nomlari bilan ham yuritiladi. Turli – tuman kashtalarda, do'ppido'zlikda keng foydalaniladi.

1.10. Kashtachilik buyumlarining kompozition xususiyatlari

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan.

Shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o'zi tayyorlashgan.

Bezak buyumlarining turi juda ko'p. Masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor palak, gulko'rpa, darpech, bugjoma parda, belbog, takyapo'sh (yostiq ustiga yopiladigan), do'pp, ko'ylak, dastro'mol, joynamoz, sumka, nimcha, maxsikovush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan.

O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Do'ppi – O'zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Do'ppi engil kiyim dastlab Eronda va turkiy xalqlar orasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo'lgan.

Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan.

Baxmalga, satinga, sidirga shoyiga ip, ipak, zar bilan do'ppi gullari tikilgan.

O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'zaro xosdir. Respublikamizning barcha viloyatlarida do'ppi tikiladi. Uning iroqi, chust do'ppi, Gilam do'ppi, Chakmato'r, Qizil gul, Piltado'zi, Zardo'zi, To'ldirma deb nomladigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir – biridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan 3 xil shaklga ega bo'ladi. "kuloh", "araqchin", "tus –do'ppi"

Kuloh – konussimon bosh kiyim. U asosan darvishlar qalpogi. Uning matohi. Toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

Araqchin – sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi.

Toshkentda sharsimon do'ppilar kandaxayol, bosma, chakmato'r iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida 8 ta xoveler chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, chita, zanjira, to'gri chok, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirga baxmaldan tikilgan bo'ladi.

Buxoro do'ppilaridan sidirga yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz – erga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ishlatadilar. U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi.

Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin.

Masalan, chopon, qiyiqcha, sholcha nuqtai nazardan pok hisoblanadi.

Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan bo'ladi. Tikish uslubi esa ko'proq yo'rma uslubidan foydalaniladi, hamda kashtado'zga ko'z tegmasligi uchun ko'proq qalampir munchoq va pichoq sopi nusxalari tasvirlanadi.

Zardevor – uy jihozi, u sidirga shoyi, baxmal, sapincha kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor o'zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi.

Palak – devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlardan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarning tirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi.

Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi.

Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi.

Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin. Shuning uchun oyni soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak

tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab o'z mahoratlarini namoyon etganlar.

Agar oyni ichi sidirga rangda ifodalangan bo'lsa, uni oypalak, agar naqshli bo'lsa gupalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi.

Kirpech – kirpo'sh, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim – kechak ustidan yoki devorni vertikal bo'sh joylariga ilib ustki bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezatiladi. U kiyim – kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi.

So'zana – forscha so'zani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi.

So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatishi uchun devorga ilinib qo'yiladi.

U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalaniladi, so'zana har bir xonadonda bo'lgan, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan.

So'zana bu kelinlarning sepi bo'lib hisoblangan. So'zana kambagal oilada malla oq bo'zdan, baxmaldan tikilgan. So'zana uchun kompozition joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo'lib, XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurato, Fargona, O'ratepa, Shahrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston va Toshkent, Tojikiston territoriyalarida qadimdan keng tarqalgan.

Choyshab – forscha – tojikcha ruyi jotun chodir degan ma'noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to'shak ustidan to'shaladi.

To'shak ustidan yoziladigan choyshab kam kashtali oq surp taxmonga tushiriladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi.

Belbog Nurotada qadimdan har bir qiz bo'lajak qayligiga, qayotasiga, sovchiga belbog tikishi urf bo'lgan.

Qo'l ro'mol – xuddi belbog singari tikiladi, faqatgina o'lchami belbogning to'rtidan bir qismiga to'gri keladi.

Zul, jul – ot ustiga yopiladi. Trapeستيya shaklida bo'lib, chetiga tukakchalar osiladi. U bigiz bilan tikiladi.

1.11. Kashtachilikda naqshlarning qo'llanishi va kompozition masalasi

Bizgacha yetib kelgan kashtachilik namunalarini sinchiklab o'rganib chiqilsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, kashta naqshlari qadim – qadim zamonlardan, eramizdan oldingi davrlardan shakllanib, uygunlashib boyitib kelingan va shu bilan birga asosiy yo'nalish va naqshning turli xillari saqlanadi.

Kashta naqshlarida kishilarning tabiat hodisalari aks ettirilgan. O'zbek kashtasining naqshlari obrazida bu yashnab, gullab turgan bog timsollarini ko'p ko'ramiz. Ayrim nusxalarida hayvonotlar shakli va buyumlar (oftoba, choynak, ko'za) shunday tasvirlanadiki, ularni moviy ko'rinishlaridan, asli shaklini ajratib bo'lmaydi, balki ular o'simliksimon qiyofaga kirib kashtaning umumiy uslubi bilan boglanib uzviylashib ketadi.

O'zbek millati azal – azaldan dehqonchilikni erni juda qadrlagan millatlardan biri bo'lgan. Shu sabab har bir qishloq aholisi daraxt, gul, o'simlik va hayvonot olamini asrab – avaylayda, ardoqlaydi. Bunday tabiatga bo'lgan mehr albatta o'zbek kashtalarida o'z aksini topgandir. Tabiatdagi lolaqizgaldoqlar, boychechaklarning chaman bo'lib ochilishi har qanday inson qalbiga qanchalik zavq baxsh etishini tasavvur qilish qiyin emas. Balki ana shunday go'zallikning kashtaga ko'chishi tabiiy bir holdir.

Har bir so'zana alohida san'at asaridir. Albatta bunga kashtado'zning o'z oldiga qo'ygan yagona maqsadidir: san'ati va mahorati fantaziyasining ko'p qirraliligi bilan odamlar qalbiga quvonch, shodlik baxsh etishdadir. Kashtachi o'z ijodiy fantaziyasini har bir so'zana detallarida namoyish qilishga harakat qiladi. U gullardan – yulduzlar, guldastalar, oy, quyoshni tasvirlaydi.

Gullarning novdalarini tasvirlab, ular shoxchalarga silkinib nafis butoqlarda osilib turgandek namoyish qilinadi. Kashtachi tabiat manzarasini tasvirlar ekan u borliqdagi bor o'simliklarni, hayvonot olamini uy – ro'zgor buyumlarini hatto inson suratlarini ham tikishga, tasvirlashgan – bu baxt saodatli, quvonch va shodliklarga to'la hayot orzusi, quyosh – yoruglik issiqlik mo'l hosil, bu baxt va visol osoyishta baxtli hayot, oila, yulduzlar, moviy va musaffo osmon, orzu, umid,

baxt- iqbol tunning mayin shabadasi, ertaning baxtli kun orzusi; oftoba – mo'l – ko'lhilik, ro'za – suv, dehqonchilik umidi, hosilning mo'l bo'lishi, oilada fayz – baraka va seroblik, serfarzandlik

Ko'za, oftobalar asosan so'zananing yuqorida bo'lgan qismida tikiladi. Qushlar tasviri ham qadimiy san'atga xosdir. Qadim – qadimdan biror ishni boshlashda, shu ish yaxshi, saodatli bo'lishi niyatida qushlar tasviri tushirilgan, shu sababli hashamatli boglarda qushlarni boqish odat bo'lgan.

Katta dekarativ san'at asarlarini kishi tomosha qilar ekan uning ko'z oldida milliy arxitektura manzaralari gavdalanadi. Yaqinroqdan esa yirik – yirik shoxlar va gullar, juda yaqindan qaralganda esa naqshning nafisligi bilinadi.

Sharqning ko'p xalqlari singari o'zbek xalqlarida ham anor hosildorlikning ramzi bo'lib kelgan. Uni Anaxita haykali qo'lida eramizning boshlarida qurilgan (I – IV asr) ossuriylar devorlaridagi naqshlarida ham uchratish mumkin.

Anor juda sodda shaklda beriladi: dumaloq ko'rinishi va ichidagi gul kosachasigina tasvirlanadi. Kashtalarda tasvirlangan anor ham shunga juda o'xshaydi. Mevaning mohiyatni aks ettiruvchi donachalari, po'stidan nur sochilayotganday, tovlanib turganday tasvirlanadi. O'simliksimon bezaklarning ichida keng tarqalganlaridan yana biri lola, bodom yoki qalampir tsvirlari bo'lib, ular juda ko'p shakllarga ega. G.Grigorevni yozishicha u gul tasvirlarini bir – biriga taqqoslash yo'li bilan bu bezalarning (bodom, qalampir) qushlar tasvirlaridan (xo'roz, qirgovul) asta – sekin ixchamlashish va ayrim qismlari bo'lib qolinishi natijasida kelib chiqqanligini aytadi.

Agar biz e'tibor bilan qarasak bunday shakllar eramizdan avvalgi Ayrimom, Frizi bezaklarida uchraydi. Rang – barang iplar bilan tikilgan. Doira gullari guruhlarga bo'linadi va ular “zabonchcha”, “oftobacha” yoki “ko'zacha” deb ataladi. Doiraga chizilgan shakllar yoki sakkiz qirrali yulduzlardan iborat bo'ladi. Bu qirralar ko'proq qizil, to'q qizil ranglarga galma – gal almashib tikiladi.

Toshkentda doira gul, oy, Buxoro va Nurota “moh”, Samarqandda “lola” deb yuritiladi. Naqshlarda buyum tasviri ko'p ishlatilishi mumkin. Masalan, ko'za

tasviri. Ko'za yoki choynakka ba'zan shoxcha solib qo'yilib, uning ko'rinishiga tangachalar bilan bezak beriladi.

Bulardan tashqari kashtalarda qushlar tasviri ham uchraydi. Ular tovus, qirgovul, o'rdak, xo'roz va boshqalar.

Qushlar shunday ustamonlik bilan joylashtiriladiki, ularni bir qarashda aniqlab bo'lmaydi.

Masalan, qush patlari demakrativ uslubda tikilgan, dumi va tanasi turli rangdag ipaklarda tikilgan bo'ladi yoki qush tanasi yarim oy shaklidagi turli rangli ko'ndalang qismlarga bo'linadi va ular turli rangdagi ipak iplarda tikiladi.

Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasi bilan bogliq ekanligining guvohi bo'lamiz va bu an'ana juda qadimdan davom etib kelganligini muzeylarda (S.Peterburg –Ermitaj)da shoxchani cho'qib turgan va tumshugida shox saqlab turgan qush bezagini uchratamiz

XIX asr oxirida o'zbek kashtachiligida qushlarga juda kam e'tibor berilgan va ular so'zananing bir chetiga kichik hajmda tasvirlangan. Hozirgi kunda ham kashtachilikda qushlar juda kam uchraydi. Shunisi diqqatga sazovorki, kashtachilikda hayvonlar, qushlar tasviri bezak sifatida berilsada, kashtado'z boqiylikni obrazlar orqali berishga, atrof – muhitni to'g'ri, real tushunishga harakat qilgan.

Kashta naqshlarini badiiy vositalar, uning dekorativ talqini, ranglari, buyumlarning tanlanishi va tikish texnikasi bir – biriga uzviy bogliqdir. Chunki kashtachilikda yuqorida ko'rsatilgan har bir talqin bir – birini to'ldiradi, boyitadi va natijada qismlari o'zaro bogliq bo'lgan dekorativ badiiy asr yaratilishiga olib keladi.

Kashtachilikda bezatish alohida va muhim rol o'ynaydi.

Kashtachi – san'atkorning badiiy didi, bezaklarini o'z o'rniga, joyiga topib, biri ikkinchisiga shaklan bir bo'lsada, bezaklari ranglari boshqacha bo'lgan tasvirlarni yaratishi, kashtaning ta'sirchanligini oshiradi.

Kashtachi bezaklarini matoga joylashtirar ekan, gazlamani haddan ziyod bezab ham tashlamaydi, bekorchi, bo'sh o'rinni ham qoldirmaydi. Fon albatta,

naqsh va bezakka kashta ta'sir qiladi. Shu sababli kashta fonining oq malla va boshqa rangda bo'lishiga e'tibor bermogi, fonining o'zi ham qo'shimcha bezak ekanligini diqqat markazida bo'lishini talab qiladi. So'zanada gullar qat'iy o'lchamli, geometrik simmetrik emas, ular erkin o'lchamsiz, taxminiy ochiladi. Shu sababli bunday dekorativ kashtalar yaqinda uyg'unlashib, butun bir yaxshilikni vujudga keltiradi. Bunda har bir gul, o'simliksimon chiziqlarning erkin bir – biriga boglanishi umumiylikni hosil qiladi.

O'zbek kashtalarining kompozistiyasi turli hududlarda turlicha bo'lsada, ularning bir – biriga yaqinligini gullarining xarakteri va rang berishida umumiy prinsiplarni aniqlashga imkon tugiladi. Buxoro kashtachiligida kompozistiyani muhim va asosiy qismini tashkil qiladi. Umuman kompozistiyani bir necha guruhga bo'lib o'rgansa bo'ladi:

I guruh – Markaziy gul sathi kompozistiyasi

II guruh – Chekka hoshiya kompozistiyasi

III guruh – O'simliksimon kompozistiya

IV guruh – Makraziy gul va unga yondosh to'rtburchakni bitiruvchi kompozistiya

IV guruh Markaziy gul davrasi kvadratsimon rombsimon va ko'p burchakli to'rsimon kompozistiyadir.

Yuqorida ko'rsatilgan kompozistiyalar tikiladigan kashtaning qanday maqsadga foydalanishga, ishlatishga bogliq

Kashtachini gulni tasvirlashda ipak bilan gulning kashtaligini berish emas, eng muhimi, dekorativ san'ati asariga rang berish, ularga jilo berish ko'proq qiziqtiradi.

1.12. Kashtachilikda ranglar ahamiyati

Kashtachilikda rang asosiy va muhim o'rinni egallaydi. Kashtaning rangi uning fonidan ya'ni asosidan kelib chiqib, rang kaloriti tanlanadi. Oq bo'z hech qachon sutdek oppoq bo'lmaydi. Uning bir oz kulrang, sargish tusi uzviy kaloritni hosil qilishga bir qadar mosdir.

Agar fon rangli bo'lsa, u holda shu rangga mos kashta ipaklari tanlab olinadi. Ba'zan fon ipaklar bilan birga ornamentning rang – barang mos kashta ipaklar bilan birga ornamentining rang – barang ochilib turishiga xizmat qiladi.

XIX asrda kashtalarda ipakning to'qqiz xilidan tortib, o'n to'rt xiligacha, ba'zan undan ham ortiq ishlatilganini ko'ramiz.

Bunday rang – baranglik so'zanani jozibali bo'lishiga olib keladi.

Asosan oq fonga qizil ranglar solib tikish odatda jozibadorligini oshiradi. Gullar va doira bezaklari ham qizil ipaklar bilan tikiladi.

Ornametn yaproqlari yashil, ba'zan havorang va zangori shakllar, yaproqlarning markazlari jigarrang, och jigarrang va ko'm – ko'k ipak bilan tikiladi.

Bunday rang – baranglik tabiatdagi o'simliklarning rangiga tabiatan mos keladi.

Qizil rang, to'q sariq, och qizil, to'q qizil va yashil ranglar esa ularni yashnatib turadi.

Qizil rang, to'q sariq rang kabi turli yoqimli ranglarga taqqoslab tikilib chiqadi. Bular yonida “sovuq” ranglardan to'q qizil va och qizil ranglar tikiladi.

Kashtalarda qo'llaniladigan yashil ranglar ham turli – tuman bo'ladi. Ularda sargish yashil va ko'kish feruza (dengiz suvi rangi) turlari bilan birga to'q havo rang, yashil ranglarning har xil qo'llanilishi mumkin. Sariq va havo ranglarning aralashuvidan hosil qilinadigan yashil rang ham har xil ko'rinishga egadir. Unda goh zarhal, goh havo ranglar tovlanib, ajoyib joziba hosil bo'ladi.

1.13. So'zana bajarish jarayoni

Bizga ma'lumki, so'zana – forscha so'zani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma'noni bildiradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi yoki bo'z matolariga kashta tikib tayyorlanadi.

Men so'zana tayyorlashdan oldin kashtachilik haqidagi adabiyotlar bilan tanishdim. Bulardan – S. Bulatovning “O'zbek xalq amaliy san'ati”, K. Tursunaliyevning “Kashtalog vʻishevok Uzbekistana 19 – 20 vv.” “Moziydan sado” va “San'at” jurnallarining kashtachilikka atab ayrim sonlaridan foydalandim.

Bundan tashqari Buxorodagi barcha muzeylardagi so'zanalarning qadimiy eksponatlarini ko'rib o'rganib chiqdim. Eski shahar rastalaridagi so'zanalarni ham taqqoslab, o'rganib chiqdim.

Buxoro viloyatining turli tumanlaridagi Shofirkon, Gijduvon, Qorako'l, Vobkent kashtachilik maktablariga borib, ularning shu texnologiyalari bilan tanishdim.

Bulardan Shofirkon tumanidagi Hilola To'qsanova ijodiy ishlari, Gijduvon tumanidagi narzullaevlar oilasi ayollari, Buxorodagi Kenjaevlar oilasi ayollari va Halimova Dilbar Akramovnaday qo'li usta kashtachilar ishlari va ularning shu texnologiyalari bilan chuqurroq tanishib chiqdim.

Shundan so'nggina kerakli xulosalar chiqarib, o'zimning malkaviy bitiruv ishim uchun so'zana tikishni ahd qildim va unga mos kompozistiya tuzishni boshladim.

Men boshlagan so'zana kompozistiyasi ikki qosmdan iborat:

Markaz qismi va hoshiya qismi

So'zana markazida doira gul mavjud bo'lib, uning atrofida 4 ta katta bodom joylashtirilgan.

Bodomlar gulli novdalar bilan, mevali shoxalar bilan o'ralgan. Markazning 4 ta burchagida hayvonlar tasvirlangan.

Ular chayon, xo'roz, baliq va toshbaqadir. Hoshiya qismida esa bodomlar, barglar, mevali o'simliklar tasvirlangan. Yoqimli qizgish va "yoqimsiz" to'q qizil ranglarning tartibli ravishda qaytarilishi asosida tikiladi

Yoqimli to'q qizil va "yoqimsiz" malla ranglarning bir xilda almashinib kelishi Buxoro, Shofirkon kashtasiga mosdir.

Rangli bezaklar ishlashda faqat qizil ranglarga qo'llanilmay, balki gullar, doira bezaklarining ayrim joylari sariq, zangori, novvoti, och binafsha va pushti rang iplarda tikiladi.

Odatga ko'ra gullar va doira bezaklarining chetiga konturlar tikilmaydi. Bu esa bezaklarning tabiiy gulga o'xshashiga olib keladi. Gulning barglari qora yoki boshqa rangli chiziqlar bilan chegaralanadi.

Kashtalardagi rang – baranglik qizil va yashil, sariq va binafsha, to'q sariq va havo rang, qizil va havo rang, yashil va to'q sariq, qora va oq ranglar kontrastini asosida beriladi. Buxoro, Shofirkon kashtalarining xarakterli tomoni shundaki, ularda ko'proq zangori, kul rang ishlatiladi.

Aynan shu ranglarni Varaxsha devori naqshlarida ham (mil.avv. VII asr yodgorligi) uchratish mumkin.

Men so'zana tikishda iplarni tabiiy rangda bo'lganini tanladim. Buning uchun ipak tolalar tabiiy yo'l orqali ranglanadi. Avvalambor, mahalliy sharoitda pilla tolasini yumshatib, bu quyidagicha bajariladi.

10-15 litr suv oladigan qozonga 10 kg ishqor xaltachaga solinib qozonga tashlanadi va suv 5 – 10 daqiqa qaynatiladi. Ipak iplar kalavasi maxsus ishqorlangan ikkita yogoch tayoqlarga joylashtirib, qozonga solinadi, goh – gohida ular aylantirib turiladi.

Tabiiy bo'yoq tayyorlashda eng muhimi o'simliklarning qaysi turidan va ularning qanday qismidan bo'yoq olish mumkinligini bilish zarur.

Misol tariqasida, bir necha tur o'simliklardan bo'yoq tayyorlash usullarini keltiramiz

I. 1 kg ipakni sariq rangga bo'yash uchun – anor po'chogi nim qorono'u joyda quritiladi. Quritilgan anor po'choqlarini yaxshilab yanchiladi. 500 gr

yanchilgan anor po'chogi, 5 gr ishqor. Bu aralashma 40 – 45 daqiqa past olovda qaynatiladi, so'ng 80 gr achchiqtosh solinib, 10 -15 daqiqa aralashmada ipak saqlanadi va iplar sariq rangga bo'yaladi.

II. 1 kg ipakni yashil rangga bo'yash uchun- maxsus quritilgan o'sma o'simligi barglaridan 500 gr, 50 -60 gr achchiq tosh, 5 gr soda, 200 – 300 gr II yoki III temir oksidi. Aralashma 40 – 45 daqiqa past olovda qaynatiladi. Qaynatilgan suv aralashmasiga iplar solinadi va 10 - 15 daqiqa ikki qo'llab aylantirib turiladi. Iplar yashil rangga bo'yaladi.

Men bajargan so'zanadagi iplar rangi asosan o'sma, anor po'chogi, piyoz, shotut, yongoq po'chogidan olingan.

1.14. Buxoro kashtachiligining qiyosiy taxlili.

O'zbekistonning mustaqilligi milliy madaniyatimiz, ayniqsa xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi taraqqiyotigina keng yo'l ochib berdi. Qadimdan rivoj topib kelayotgan naqqoshlik, ganchkorlik, yogoch o'ymakorligi, badiiy kulolchilik, misgarlik, kashtachilik turlari yana gurkirab o'sa boshladi, uning milliy badiiy an'analari yanada rivojlanmoqda.

O'zbekistonda milliy amaliy san'at va hunarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 346 – sonli qarorida 1997 yili “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab – quvvatlash chora tadbirlari to'grisida-gi qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

Albatta, bunday qaror kashtachilik san'ati rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Kashtachilik sohasida bir qator viloyatlarda xususiy ustaxonalar ochilgan bo'lib, ularda ko'plab yoshlar san'at sirlarini o'rganmoqdalar, badiiy asrlar yaratmoqdalar.

II bob.

2.1. Kandakorlik san'atining umumiy tarixi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. O'zbekiston hududida joylashgan Markaziy Osiyo shaharlarida metaldan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo'lib, bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Arxeologik topilmalardan eramizdan avvalgi III asr oxiri hamda II asr boshlarida birinji (maxsus mis qotishmasi) to'gnagichlar Misr, O'rta er dengizi, Mesopotamiya, Hindiston, Markaziy Osiyoda keng tarqalganligi aniqlangan. Bu badiiy metall buyumlari ishlashning ilk namunalari edi. To'gnagichlarda kichik-kichik voqealar, hayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Fargonada topilgan marosim qozoni 1 ming yillikning o'rtalarida kandakorlik «hayvonot uslubi» rivoj topganligini isbotladi.

III—VIII asrlarda, ya'ni so'nggi antik va ilk o'rta asr davrida Markaziy Osiyoda kandakorlik juda yuqori darajada rivoj topdi. Qimmatbaho metallardan hokimlar hamda a'yonlar uchun har xil nihoyatda chiroyli bezak buyumlari ishlatildi. Bu oltin yoki kumush buyumlarda to'ytomosha, taxtga o'tirish marosimlari, dunyoviy mavzular, shikor va kurash manzaralari, mifologik hamda epik qahramonlar, hayotiy mavjudot, parranda va boshqa tasvirlarni ko'rish mumkin edi.

IV asrda Markaziy Osiyo janubiy viloyatlarining Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinishi tasviriy va amaliy san'atning mahalliy an'alarining tarqalishiga imkon yaratdi.

VI—VII asrlarda badiiy metall buyumlar yuksak texnik sifatda bajarilganligiga Anikov lagani misol bo'la oladi. Bu laganda qal'a darvozasi oldidagi sahna tasvirlangan, «Yakkama-yakka olishuv» voqeasi tasvirlangan kosa o'sha davr hayotidan bir parcha bo'lib, undagi o'ymaning mayinligi, aniq nafosati, kompozitsiyasi, ta'sirchanligi, kuchliligi bilan mashhurdir.

VIII—XIII asrlarda qimmatbaho metallardan qilingan idishlar islom dini dunyosining ko'pgina burchaklarida urf bo'lib qolgan edi. Oltindan juda ko'p

narsalar ishlanar, binolarning bezaklariga oltin suvi yugurtirilar edi. Keyinchalik esa xom ashyo sifatida birgina qimmatbaho metallarning o'zi kifoya qilmay hiyla arzon materiallar mis va uning turli qotishmalari ishlatildi. Qizil misdan har xil ko'zalar, dekchalar, idish-tovoqlar, jezdan va sariq misdan shamdonlar, poymonlar, oq mis hamda brinjidan ko'zalar, kir togoralar, katta-kichik piyola va shu kabilar yasalar edi.

Arxeologlarning topilmalari shuni ko'rsatdiki, arab istilosi davrigacha so'gd aholisi ro'zgorlarida badiiy metal buyumlar keng tarqalganligi isbotlandi. Hayvon shakli ifoda etilgan mis naqshlar, ya'ni yovvoyi hayvonlar kallasi va boshqalar topilgan.

IX—XIII asrlarda kumush ishlab chiqarish inqirozga uchraydi Temur hukmronligigacha buyumlar asosan bronza va misdan tayyorlangan.

IX—X asrlarda islom dini Markaziy Osiyo viloyatlariga kirib borishi munosabati bilan turli-tuman xalqlarning san'ati an'alarini o'zida mujassamlashtirgan yangi goyaviy uslub paydo bo'ldi. Musulmon Sharqda birinji va mis buyumlar ko'p tarqalgan bo'lsada keyinchalik ular o'rnini kumush va oltin metallar egalladi.

XI asrda hunarmandchilik, naqqoshlik yanada rivojlandi, jonivorlar tasviri va ertak syujetlari ustalar ish tematikasida yana ko'p vaqtgacha saqlandi. Bu davr buyumlari Termiz va Namangan shahar muzeylaridagi mis laganlar, oftobalar, ko'zgular, siyohdonlarda yuksak sifatga ega bo'lgan afsonaviy voqealarni ifodalagan.

Yuqorida aytib o'tilgan materiallardan yasalgan buyumlar oltindan juda kam farq qilar edi. XI asrda yashab o'tgan shoir Nosir Xusrav asarlarida brinjidan qilingan ko'zani ko'rib lol qolgani, uni oltindan hech farq qilmasligini bayon qilib o'tgan edi.

XI asrning o'rtalarida Markaziy Osiyo xalq amaliy san'atida katta burilish bo'ldi. Kandakorlik tez sur'atlar bilan rivojlandi, mis va uning qotishmalaridan yangi-yangi buyumlar paydo bo'ldi, to'gri to'rtburchakli barkashlar, qorni sharsimon hamda bo'yniga naqsh solingan ko'zalar, yarim doira ketmonlar,

siyohdonlar, hovoncha va boshqalar juda ko'p ishlatilar edi. Bu buyumlarning yuzalariga bo'rtma kandakorlik usulida naqsh ishlash kamayib borib, uning o'rniga o'yib naqsh ishlash (gravyura) urf bo'lib qoldi. Ishlangan bezaklar IX—X asrlarda beo'xshov qo'pol shaklini yo'qotib juda chiroyli ko'rinishga ega bo'ldi.

XI—XII asrlarda idishlarni qanotli sfinks xamda taqalarning, odambosh qushlar, arslonlar shakllari bilan bezash odat tusiga kirdi. Bu bezaklar ichida dunyoviy mazmundagi bezaklar, ya'ni saroy bog manzaralari, to'y, bazm, saroy ichkarisi, shikor, naqsh turlaridan turunjlar ishlatildi. Turunj naqshlar juda ko'p ishlatilib buyumlarning ajralmas qismi bo'lib qoldi.

IX—XII asrlarda kandakorlik san'atida ham katta yangilik bo'ldi. Idishlarni bezashda yozuvchi naqshlar keng miqyosda qo'llanildi. Qadah va idishlarga har xil yozuvlar masalan, shon-sharaf, omad, tansihatlik, baxt-saodat, farovonlik degan naqshli yozuvlar «kufiy» va «nasx» usulida bitilgan. Bu yozuvli bezaklar shunday rivojlanib ketib juda mayda, juda nafis bo'lib, hattoki ularni o'qiy olish qiyin edi.

XIII—XV asrlarda kandakorlar bezaklarga kumush va oltin iplarni qadab zeb berib, naqshlarni judayam nafis bo'lishiga harakat qilishgan. Registon maydoni yaqinida topilgan xazinalar, ya'ni oltmishdan ziyod turli-tuman idishlar, piyolalar, ko'zalar, qopqoqlar, tagliklar, qozonchalar kandakorlikning XIV—XV asr badiiy an'analari to'grisida ma'lumot bergan.

XIV asrda metallga badiiy ishlov berishda jiddiy siljish bo'ldi. Amir Temur o'z davrida xalq hunarmandchiligi rivojlanishiga katta e'tibor berdi. Amir Temur va temuriylar avlodi hukmronlik qilgan davrda buyumlar ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlandi. Bu davr xalq amaliy san'atining barcha turlarida badiiy uslubning o'zgarishi bilan xarakterlidir. Metal buyumlarni bezash yanada o'zgardi, o'sdi. Buyumlar naqshlari yanada badiiylashdi, noziklashdi, mayda islimiy naqshlar, yozuvli naqshlar yanada ko'p ishlatildi. Masalan, Ermitajdagi shamdonlar, halqa, etti xil metallardan quyilgan qozonlar misol bo'la oladi. «Shamdonlar» sadaf suyak qadab ishlangan eshiklar uchun qilingan nafis shabaka halqalar o'simliksimon gullari zaminida yaratilgan. Bu yozuvlarda shamdonlarning ishlangan vaqti (1397 yil) va usta Izaaddin Isfaxoniy nomi bitilgan. Qozon

o'simliksimon naqsh va yuksak badiiy husnixat yozuvi bilan naqshlangan. Bu afsonaviy qozon dunyoda yagona bo'lib, uni tabrizlik Abdulaziz ibn Sharofiddin rixtagar yaratgan».

O'zbekiston hududidagi qazilmalardan topilgan metall buyumlarda chet ellik ustalar nomini uchratish mumkin. Chunki Amir Temur yurishlari vaqtida chet ellardagi ustalarni ko'chirib Samarqandga olib keltirgan»². Ular o'z asarlarida mahalliy badiiy did va qarashlariga bo'ysungan.

Ispan elchisi Klavixoning zsdaliklarida Amir qabulida va ziyofatida bo'lgan vaqtida ko'rgan ajoyib idishlarni yuksak darajada bajarilganligi haqida aytib o'tgan. O'sha davrlarda Samarqand, Buxoro va Xivalarda yuqori sifatli va bejirim metall buyumlar ishlab chiqilgan.

«Buxoro va Xivadan Moskva hukmronlariga sovga sifatida taqdim etilgan buyumlar, shuningdek, Markaziy Osiyo savdogarlari keltirgan mollar ichida oltin suvi yuritilgan maysa bilan hoshiyalangan gurzi, o'q, o'tkir tigli qilichlar, oltin suvi yuritilgan qilich qinlari, kumush zanjiralar, «tulunbosar» (do'mbiralalar), oltinrang va o'trang bo'yoqlar yuritilgan qilichlar tilga olinadi, tarixiy hujjatlarning guvohligiga qaraganda, XVI—XVII asrlarda Samarqand va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida mahoratli ustalar juda ko'p bo'lgan».

XVI—XVIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoda xo'jalikning turgunlik davri bo'ldi. Chunki ichki notinchliklar ishlab chiqarishda va savdoga katta ta'sir etdi. Hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarish to'xtadi, lekin qurol-yaroglar ishlash va uni bezagi yanada rivoj topdi. Buxoro, Xiva, Samarqand va Fargona vodiylardagi shaharlar aslaha va jang kiyimlari tayyorlaydigan asosiy markazlar hisoblangan. Amir hamda sarkardalar uchun mo'ljallab yasalgan qalqonlar, shamshirlar, dubulgalar, oyboltalar, enli kamarlar, xanjarlar, o'yma naqshlar, qimmatbaho metall va rangbarang toshlar bilan bezatilgan. Keyinchalik esa uchta markazlashtirilgan davlat Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklar tashkil etilib xo'jalik ishlari qayta tiklana boshladi. Hunarmandchilik asta rivojlana boshladi.

XVI¹¹—XX asrlarda kandakorlik yaxshi rivojlangan bo'lib, Buxoro, Qo'qon, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi hamda Toshkent shaharlari kandakorlik

buyumlari chiqariladigan markazlar bo'lgan. Boy xonadonlari naqsh tushirilgan idishlar bilan bezatilgan. Ular xonadon sohibining davlatmandligini namoyish qilib turgan. XIX asr o'rtalarida vopurushlar paydo bo'lgan. Fargona vodiysida do'kondor Buxoro va Toshkentda esa vopurush (olibsotar)lar deb yuritiladi. XIX asr o'rtalaridan boshlab vopurushlar hunarmandlardan buyumlarni arzon baholarga sotib olar edilar. Ularni savdogarlarga oshirilgan narxda o'tkazganlar yoki bozorlarga olib borib sotganlar. Ular xalq amaliy san'ati ustalarining tayyorlagan gilam, oftoba, quticha, qilich, har xil idish va boshqalarini xalqqa etkazib berishda «Savdo vositachilari» rolini o'ynaganlar. Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi fabrika mollarini kelishi va uni shu erda ishlab chiqarilishi mahalliy hunarmandchilar ishiga jiddiy ta'sir etdi. Shuning uchun ham hunarmandlar talabiga bo'lgan ehtiyoj pasayib ketdi.

1914—17 yillarda urush tufayli xo'jalik qiyinchiliklari Markaziy Osiyoga metall, asosan mis taxtalari olib kelish kamayib, badiiy metall ishlab chiqarish pasayib ketdi, shogirdlar an'anasiga e'tibor berilmadi. Shuning uchun 30 yillarga kelib misga zarb qilish ustalari juda kamaydi. 1930 yilda Samarqand badiiy bilim yurti tashkil etildi. 1932 yilda esa Toshkentda badiiy o'quv ishlab chiqarish kombinati tashkil etildi. Buxoroda shogirdlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bu o'quv ishlab chiqarish kombinatlariga Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlardan kandakor, kulol, yogoch o'ymakor va boshqa san'at turlari ustalari taklif qilindi.

1960 yillarda davlat sanoat korxonalarida tashkiliy pala-partishlik oqibatida kandakorlik buyumlari ishlab chiqarish inqirozga duch keldi. Qo'qon va Xivadagi kandakorlik ishlari uncha-muncha davom etdi.

1967 yilda Buxoroda kandakorlik to'garak-ustaxonasi tashkil etildi. Unda mashhur kandakor, ustazoda Salimjon Hamidov rahbarlik qildi. U kishi qisqa muddat ichida 50 dan ortiq shogird tayyorladi.

1973 yilda usto Salimjon Hamidov vafotidan keyin shogirdlari uning ishini davom ettirdi.

Bugungi kunga kelib usto Salimjon tomonidan etipggirilib chiqargan kandakorlar ham e'zoz va obro' topib o'z ishlarining mohir usta kandakorlaridirlar. Ular kandakorlikni yanada ravnaq topishi uchun tinimsiz ishlayaptilar va izlanmoqdalar.

Ayniqsa 1991 yildan hozirgacha kandakorlik san'ati barq urib, gullab yashnayapti. Kandakorlik maxsulotlari rang barangligi, naqsh kompozitsiyasining nixoyatda boyligi, ish sifatini juda ham nafisligi va ko'rkamligi kishini hayratga qoldiradi. O'z ustida ishlayotgan ustolar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan A.Hamidov, M.Axmedov, S.Muxsinov, U.Aliev, T.Qosimov, R.Fatullaev, R.Avezov, R.Ro'ziev, D.Halimova kabi buxorolik kandakor ustalar hamda ularning iktidorli shogirdlari I.Muxsinov, Sh.Gulomov, Q.Saidov, B.Halimov, J.Qosimov, J.Sodikov, D.Fayzullaevlar yuksak saviyadagi badiiy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarlarini yaratib kandakorlik san'atining rivojiga o'z hissalarini ko'shib kelmoqdalar.

2.2. Kandakorlikda qo'llaniladigan naqsh turlari va kompozitsiyalari.

Insoniyat o'zi uchun zarur hisoblangan barcha kiyim-kechak, ro'zgor va uy anjomlarini doimo takomillashtirib bezab keladi. Shuning bilan birga, xar kanday badiiy bezatilgan buyum va jihozlarning o'z bezatilishi usullari va materiallarga badiiy ishlov berish bosqichlari mavjud. Bunday bezak va ishlov berilib yasalgan buyumlar kishilarga estetik zavq bagishlab, hayotga bo'lgan muhabbatlarini yanada oshiradi. Qo'li gul ustalarimiz tomonidan sayqal topayotgan zargarlik, pichoqchilik, kashtachilik, ganchkorlik, yogoch o'ymakorlik buyumlari nafaqat bugunimiz, albatta, kelajak avlodlarimizni xam tarixiy boyliklarini, ma'naviy kadriyatlari bo'lib hisoblanadi.

Kandakorlik san'atida ishlatiladigan naqshlar mazmuniga ko'ra – islamiy (o'simliksimon) , geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi.

Islimiy naqsh - tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, guncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan.

Geometrik naqsh - turlaridan biri girih bo'lib chigal, tugun degan ma'noni anglatadi. Handasaviy naqsh murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, turtburchak, uchburchak, aylana va yoylar hamda ko'pburchaklardan tashkil topadi. Tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq, egri- chiziq va aralash chiziqlardan tashkil topgan girihga bo'linadi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi. Evropada arabeska deb yuritiladi.

Geometrik naqsh elementlari to'rt qismdan - uchburchaklar, to'rtburchaklar, ko'pburchaklar va egri chiziqlardan tashkil topadi. Shu girih elementlari yordamida minglab naqshlar yasash mumkin. Girih ham naqsh turlari singari taqsim deb ataladigan juda oddiy

elementdan tashkil topadi. Shu taqsimlarning takrorlanishidan tugal naqsh kompozitsiyasi hosil kilinadi, Geometrik naqsh kompozitsiya lari ni tuzishning o'ziga xos turli sirlari mavjud bo'lib, siz bilan girih naqsh tuzishning ba'zi bir

tomonlarini o'rtoqlashmochimiz. Yangi girih kompozitsiyalari tuzishning quyidagi sir-asrorlarini sanab o'tmochimiz.

Girih ma'lum mazmunga va xarakterga ega bo'ladi. Tabiatda har bir o'simlikning nomi bo'lganidek girihlarning ham o'ziga xos nomlari bilan yuritiladi. Agar girih 5 qirrali yulduzdan iborat bo'lsa, besh raxli girih deb yuritiladi. Xuddi shunday shu shaklning qirralari soniga qarab nomlanadi. Girih 5 va 6 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo'lsa, uni besh-olti raxli girih deb ataladi. Agar 6 va 10 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo'lsa, oltiyu-o'n raxli girih deb nomlanadi. Agar 5, 8 va 12 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo'lsa, besh-sakkiz-o'n ikki raxli girihlar deb nomlanadi va hokazo.

Gulli girih - o'simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan. Uning elementiga yuqorida sanab o'tilgan geometrik va o'simliksimon naqshlar kiradi.

Ramziy naqshlar - esa kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalarni stillashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi. Ustalar tabiatdagi gul, barg novda, guncha, kabutar, tovuş va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalari, ko'rinishini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Chunonchi usta gulni stillashtirib olishda uning go'zalligini qaysi holatdagi ustidan, yonidan yoki tagidan ko'rinishini tasvirlashni izlab topadi.

Kandakorlik san'atida naqsh turlaridan tashqari uning ruta, turunj, namoyon va munabbat kabi kompozitsion ko'rinishlari mavjud.

Ruta - ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketma-ket, to'nkarma usullarda ulanishi mumkin. Naqqosh to'nkarma usulda takrorlanuvchi ruta chizayotganda taqsim asosini kogozga (ikkiga buklab) chizadi, axta aylantirib, undan foydalanadi. To'nkarma ruta kompozitsiyada bir yoki ikki, ba'zan uch chiqish nuqtasi (odatda o'rtada bo'ladi) bo'sh joylarni to'latishga xizmat qiladi. Ketma-ket ulanuvchi rutalar bir, ikki, uch yo'nalishli bo'lishi mumkin, har yo'nalishda bittadan chiqish nuqtasi bo'ladi. Ikki chiqish nuqtali rutalar (aylantirma nusxa) deb ataladigan

kompozitsiya ham uchraydi. Taqsim chegaralaridagi ikki chiqish nuqtasidan chiquvchi novdalar soat yo'nalishiga o'xshatib, ikki nuqtani bosib o'tadi (ya'ni ikki nuqtadan chiqqan novdalar halqa hosil qiladi), To'ldiruvchi elementlar ham novdalarning o'rtasiga moslab chiziladi.

Turunj - arabcha «limon» degan ma'noni bildiradi. Naqshlarda kompozitsiyaning markaziga chiziladigan naqsh turi. Markaziy Osiyoda o'ziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lib qadimdan ishlatilib kelinadi. Turunj naqshning ko'rinishi, limon shaklida bo'lgani uchun uni shunday deb yuritiladi. Turunj hech qanday naqshga ulanmay muallaq turadigan kompozitsiya bo'lib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan. Uning hozirda doyra, 5-10 raxli yulduz, oval, romb, ellips shakllari bor. Turunj nusxasi 4,8,16 ga bo'linadi. Naqqoshlar ko'pincha to'rtburchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh, ya'ni ruta ishlab o'rtasiga turunj ishlaydilar. Turunj ko'pincha devor o'rtasiga, shift markaziga, kashta, gilam markazlariga bajariladi. Usta turunj ulgisini tayyorlashda qogozni 4, 8 yoki 16 ga buklab bir bo'lagiga nusxa chizadi. Shu naqsh chiziklarini ignada teshib so'ngra

qogoz yoyilsa qolgan bo'laklariga ham nusxaning o'zi takrori hosil bo'ladi. Tayyorlangan turunj nusxasini kerakli yuzaga tushuriladi.

Namoyon - forsha so'z bo'lib, ko'rinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukammallashgan etuk naqsh kompozitsiyasi hisoblanadi. Namoyon voqe'likning umumlashgaya tasviriy obrazini o'zida aks etadi. Masalan, «chamanzor, bogu-bo'stonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni shartli aks ettiradi. Hoshiya naqsh namoyonning badiiy qilib ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Namoyon biror yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir. Namoyon murakkab naqsh turiga kirib uning o'simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyon naqsh kompozitsiyalar o'ziga xos tomonlarga ega. Usta namoyonni ishlashda uning uzokdan va yaqindan ko'rinishini alohida hisobga oladi. Namoyon o'simliksimon naqshdan iborat bo'lsa, unda naqshning band va tanoblarini darajalarga bo'lib chiqadi. Gulli girihli namoyonda esa girih asosiy, o'simliksimon naqsh esa to'ldiruvchi rolini o'ynaydi.

Namoyon faqat girihdan tashkil topgan bo'lsa undan ham asosiy va to'ldiruvchi girihlarga bo'lish mumkin, ya'ni yirik girihlarni ichiga mayda girihlar chiziladi. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilgan bo'ladi. XIX asrning o'rtalarida har bir vohaning namoyonlarini kuzatsak o'ziga xos bo'lib, ular bir-biridan farq kiladi. Ya'ni naqshning xarakteri ornament uslubiga ega. Masalan, Xiva naqqoshligidagi namoyonlardan bandlar bir-biri bilan spiralsimon holda ulanib ketadi. Barg gullar kam ishlatiladi. Ularning kompozitsiyasi dinamik xarakterga ega. Toshkent ustalarining namoyon kompozitsiyalari o'ziga xos xususiyatga o'simlik gullarining ko'pligidadir. Fargona naqsh kompozitsiyasida tabiatdagi gullar, barglar, mevalar (lola gul, atirgul, bodomgul, majnuntol, anor va boshqalar) to'gridan-to'gri tasvirlanadi. Namoyonning

majnuntol namoyon, chorsi namoyon, shabaki seraftor, mehrobli namoyon va boshqa atamalari mavjud.

Munabbat - arabcha o'stirmoq degan ma'noni anglatadi. Naqshning asosi to'gri to'rtburchakdan tashkil topib to'rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalaniladi. Ko'pincha Markaziy Osiyo naqsh kompozitsiyalarida ko'p qo'llaniladi. Naqqosh munabbatni chizishda avval to'rtidan bir bo'lagini chizib olib keyin esa axtasini (ulgisini) tayyorlaydi. Usta munabbat kompozitsiyasini sathga axta yordamida tushirib, uni bo'yab, o'yib, tirnab ishlaydi. Munabbatni kompozition tuzilishiga qarab o'simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa turlari bor. Munabbatning quyidagi atamalari mavjud: munabbati mehrob, munabbati bofta, munabbati islimi, munabbati girih va boshqalar.

2.3. Kandakorlikda ishlatiladigan xom-ashyolar va asbob-uskunalar.

Kandakorlikda juda ko'p material va asboblari ishlatiladi. Naqshlarni chizishda va uni buyumga ko'chirishda oddiy qalam, oddiy va uchburchakli chizgich, o'chirgich, stirkul ishlatiladi. Kandakorlikda turli xom-ashyolar va mis buyumlarni o'yish uchun har xil asbob-uskunalar kerak bo'ladi. Mis buyumni o'yish uchun xom-ashyoning xususiyatlarini asbob-uskunalarini ishga tayyorlash va undan to'g'ri foydalana olish lozim bo'ladi. Ularni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Xom-ashyolar. Kandakorlik san'atida mis, latun, melxior, kumush kabi metallar ishlatiladi.

Mis - (lotincha "Cuprum" - Kipr oroli nomidan olingan). Mis – insonlarga qadimdan ma'lum bo'lib kelgan metallardan biri hisoblanadi. Mis va uning qotishmalari insonning moddiy madaniyatini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Qadimda mis rudasi Kipr orolidan qazib olingan, shuning uchun uni orolining nomi bilan Cuprum deb atalgan.

Mis tarkibida ba'zan temir, kumush, kamdan-kam hollarda esa oltin bo'ladi. Mis hayotiy fiziologik jarayonda qatnashadigan muhim element. U yumshoq, chuziluvchan, bolgalanuvchan kizgish metall. Mis 1083° temperaturada eriydi, 2567° temperaturada qaynaydi. Mis issiklik va elektr tokini juda yaxshi o'tkazadi, bu jihatdan faqat kumushdan keyinda turadi. Mis kimyoviy jihatdan unchalik faol emas. Havoda oksidlanib qorayadi. Nam havoda gidroksikarbonat hosil bo'lgani uchun ko'karadi.

Qadimdan xalqimiz misdan kundalik turmushida keng foydalanib kelgan. Misgarlar mis qozon, lagan, oftoba, choynak, jom, samovar va boshqa uy-ro'zgor buyumlari yasashda foydalanadi. Qadimda misgarlar sof misni sovuqlayin ishlatganlar, shuning uchun ham mis buyumlar yumshoq hamda mo'rt bo'lgan. Keyinchalik mis va qalay qotishmasidan hosil qilingan bronzani ishlatganlar.

Hozirgi kunda misdan badiiy buyumlar tayyorlashda, elektr simlari, elektr asboblari va uskunalar ishlab chiqarishda, qotishmalar olishda, tuzlari esa

pigmentlar va sun'iy ipak olishda, o'simlik zararkunandalariga karshi, teri (kun) sanoatida, mikroskop sifatida va tibbiyotda ishlatiladi.

Melxior - (franstuz ixtirochilari Mayo va Shore nomidan) - misning nikel, temir va marganest bilan qotishmasi. Melxior yumshoq, chuziluvchan, bolgalanuvchan oq metall. Melxior suvda tez zanglamaydi. U issiklik va elektrni yaxshi o'tkazadi. Melxiorni sovuklayin va issiqalayin mexanik ishlov berish oson. Melxiordan badiiy buyumlar, qoshiqlar, idish-tovoqlar, tibbiyot asbob-uskunolari, aniq mexanika detallari, tangalar, kondensator trubalari va boshqa narsalar tayyorlanadi.

Kumush - (lot. Argentum - oq kukun). Kumush qadimdan ma'lum bo'lib kelgan metallardan biri hisoblanadi. Er po'sti ning 1 -10 5% ini tashkil qiladi. Toza kumush chiroyli oq metall ko'rinishida bo'ladi. U 960,5° temperaturada eriydi, 2212° temperaturada qaynaydi. Kumush yumshoq, cho'ziluvchan bo'lganidan mexanik ishlov berish oson. Undan 0,00003 sm qalinlikdagi nafis varaqlar tayyorlash mumkin. Kumush issiklik va elektrni boshqa metallarga qaraganda yaxshi o'tkazadi hamda yorug'likni yaxshi qaytaradi. Kimyoviy jihatdan nafaol element. Odatdagi sharoitda suv va nam havo ta'siriga chidamli. Ko'pgina metallar bilan qotishmalar hosil qiladi. Kumush asosan, tarkibida kumush va qo'rgoshin bor rudalardan ajratib olinadi. Kumush qotishmalari tanga pul, zargarlik va uy-ro'zgor buyumlari, lab. idishlari ishlab chiqarishda, elektrotexnikada, tuzlari esa fotografiyada ishlatiladi. Kumush buyumlar tayyorlash uchun 875 probali kumush, ya'ni tarkibida 87,5% Kumush va 12,5% mis bo'lgan qotishma ishlatiladi.

Asbob-uskunalar. Har bir hunarning asbob-uskunolari bo'lgani kabi kandakorlik san'atida ham o'ziga xos asbob-uskunolari mavjud. Kandakorlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar 2 qismga bo'lib o'rganiladi. Asosiy va qo'shimcha asbob-uskunalar.

Asosiy asbob-uskunalar;

Dastgoh (kanifolli qolip), bolgacha, po'lat qalamlar, temir pargor (shtangenstirkul), charx tosh kiradi.

Dastgoh (kanifolli qolip) - bu tekis yuzali buyumlarni, ya'ni, lali, patnis va shunga o'xshash buyumlarni mahkamlab ishlash uchun mo'ljallangan uskuna. Dastgoh 3-qismdan iborat bo'lib, tak qismi yogochdan, atrofi yuqpa temirdan, ichiga esa mumga o'xshash kanifoldan tashkil topgan. Dastgohlar aylana, to'rtburchak, oltiburchak, sakkizburchak kabi shakllari bor. Dastgohlar katta, o'rta va kichik o'lchamlarda bo'ladi.

Bolgacha. Kandakorlikda ishlatiladigan ishlatiladigan bolgachalarning ogirligi 100-125 gr atrofida bo'ladi. Bolgachalar agar belgilangan ogirlikidan ko'p yoki kam bo'lsa ish sifatsiz chiqadi. Bolgacha 2-qismdan dastasi yogochdan, temirdan tashkil topgan bo'ladi.

Po'lat qalamlar. Po'lat qalamlar 2 xil bo'ladi;

O'tkir uchli po'lat qalam va yassi uchli po'lat qalam.

O'tkir uchli po'lat qalam mis buyum yuzasiga turli xil tasvir yoki naqsh chiziqlarini o'yishda ishlatiladi. Shuningdek naqshning zamini hamda naqsh elementlarini o'yma pardozlashda foydalaniladi. Bu po'lat qalamning o'yuvchi qismi o'tkir uchli ko'rinishga ega bo'lib, mis buyumni o'yganda o'zidan ingichka chiziq ya'ni iz qoldiradi. Bu qalam ba'zi adabiyotlarda, chekuv qalam va naqsh qalam deb ham yuritiladi.

Yassi uchli po'lat qalam. Bu po'lat qalamning o'yuvchi uchi yassi ko'rinishga ega bo'lib, o'zidan eni 3-5 mm, chuqurligi 0,3-0,8 mm li iz qoldiradi. Bu po'lat qalamni ba'zi adabiyotlarda ko'zo'yar qalam deb yuritilsa, Buxorolik ustalar, pam qalam ya'ni yassi qalam deb yuritadilar. Bu qalam nashqning zaminini o'yish hamda naqsh elementlarini o'yma pardozlashda ishlatiladi.

Temir pargor (shtangenstirkul). Bu asbob buyumga aylana shakllarini chizishda, o'lcham olishda hamda yuzani taqsimlashda ishlatiladi.

Charx tosh. Bu asbob po'lat qalam uchini charxlash uchun ishlatiladi.

*Qo'shimcha asbob-uskunalar*ga;

Oddiy qalam, qogoz, chizgich, o'chirgich, stirkul, siyohli yoki gelli ruchka, rangsiz ruchka, shaffof qogoz, qora (kopiroyka) qogoz va plastilin kiradi.

Oddiy qalam va qogozdan mis buyum uchun kompozitsiya eskizlari chizishda foydalaniladi. Qalam naqshlarni sifatli chizish uchun qalamlarni to'g'ri tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish katta ahamiyatga ega. Chizmalar va naqshlar chizish uchun har xil markali qattqlik va yumshoqlikdagi qalamlar mavjud. Kandakorlikda asosan o'rtacha qattqlikdagi «TM» «NV» qalamlar ishlatiladi. Qattqlik darajasiga qarab qattiq, o'rtacha qattiq va yumshoq qalamlar bo'ladi. Ularni tegishli T, TM va M xarflar bilan belgilanadi. Qattiq va yumshoq qalamlar oldiga sonli kursatkichlar xam kuyiladi. Chunonchi 2T, ZT, 4T yoki 2M, ZM, 4M va boshqalar T xarfi oldidagi son qancha katta bo'lsa, u shuncha qattiq bo'ladi. M xarfining oldiga ko'yilgan raqam qancha katta bo'lsa, u shunchalik yumshoq bo'ladi. Chet el qalamlarini N (qattiq) yumshoq V markalar bilan belgilanadi. O'rtacha qattqlikdagi xarflar esa NV xarflar bilan belgilanadi.

Qalam uchining grafitismi 6-8 mm yogochismi 15-25 mm atrofida qilib yo'niladi. Qalamlar konus holida yo'niladi. Ulari yo'nish uchun bir bo'lak karton, faner va yogoch parchasiga shirach yordamida jilvir qogoz yopishtiriladi. Qalamlar bilan naqsh chizishda bosmadan, qalamni yo'nilgan uchidan sal balandrokdagi uch barmoq bilan ushlab chiziladi. Qalam bilan chizishda puxtalik, aniklik hamda malaka bulishi kerak.

Chizgich. O'lcham olish va to'g'ri chiziqlarni chizishda ishlatiladi. Chizgich oddiy va uchburchak chizgichlar naqshlar chizishda juda kerakli qurol bo'lib, yogochdan ishlatilganlaridan foydalangan ma'kul. Chunki plastmassa chizgich va uchburchaklar tez kir bo'lib chizmani iflos qiladi.

Sirkul. Aylana shakldagi chiziqlarni chizish va o'lcham olishda, o'simliksimon va geometrik naqshlar ishlashda aylanalar, yo'ylar, aylananing kesmalarini teng bo'lishda ishlatiladi.

Siyohli yoki gelli ruchka. Shaffof qogozdagi oddiy qalamda chizilgan kompozitsiyani chizishda foydalaniladi.

Rangsiz ruchka - Shaffof qogozdagi kompozitsiya kontur chiziqlar ustidan yurgizib chiqishda ishlatiladi.

Shaffof qogoz (kalka) - franquzcha kalgus so'zidan olingan bo'lib, naqsh kompozitsiyalardan buyumlarga nusxa ko'chirishda ishlatiladi.

Qora (kopiroyka) qogoz - naqsh kompozitsiyani buyumga ko'chirishda ishlatiladi.

Plastilin – kompozitsiyani buyumga qistirib qo'yish uchun ishlatiladi.

Kalka - franquzcha kalgus so'zidan olingan bo'lib, chizmachilik, naqkoshlik va boshqalarda, nusxa ko'chirishda ishlatiladigan shaffof qogoz yoki gazmol. Kalkalar asosan o'ramli qilib uzunligi 40 va 100 m, eni esa 630 hamda 840 mm qilib ishlab chiqariladi. Kalka 297X210, 297X420 va boshqa formatlarda albom va aloqida list holida ham bo'ladi. U qogoz yoki batistdan tayyorlanadi. Qogozdan tayyorlangan kalka yuqori sifatli va past sifatli qilib tayyorlanadi. Past sifatli kalka ham shaffof bo'ladi. Batistdan (polotno) ishlangan kalkalar uzoq vaqt saqlanadigan hamda nusxalar ko'paytiriladigan muhim chizmalar ko'chirishda ishlatiladi. Chizmalar va naqshlarni qalamda kalkaga chiziladi, bunday kalka qalam kalkasi deb yuritiladi. Chizmadan tush hamda yoruglik vositasida ko'plab nusxa ko'chirish uchun maxsus modda shimdirilgan va kalandrlangan qogoz yoki gazmol kalka kalandrlanmagan shaffof qogoz esa qalamda nusxa ko'chirish uchun ishlatiladi.

Kandakorlik, yogoch o'ymakorlik, ganch o'ymakorlik va boshqa xalq amaliy san'ati turlarida axta (ulgi) tayyorlashda ishlatiladi. Xozirda ustalarning kalkadan tayyorlangan ming-minglab naqsh axtalari muzeylarda saqlanmokda.

Lok – Mis buyumdagi yaltiroq jilo uzoq muddat saqlanishi uchun buyum loklanadi. Buyumlar 18-22 darajali haroratda quruq changsiz joyda loklanada va quritiladi. Odatda lok ikki sutkada yaxshi quriydi. Agar yaxshilab quritib berilmasa, surkalgan lok yigilib-yigilib burishib qolishi mumkin. Eski lok ishlatilmaydi. Lokni ishlatishdan oldin dokadan o'tkazgan ma'kul.

2.4. Mis buyumlari va ularni bezashning texnik usuli

Mis buyumni turli naqsh bezaklari bilan o'yib bezatishning o'zig xos bir necha bosqichlari mavjud.

Bular quyidagilardan iborat:

- mis buyumni dasgohga o'rnatish;
- buyumning bezatiladigan yuzalarini aniqlash va uning atrofidagi kontur chiziqlarini chizish;
- naqsh bilan bezatiladigan yuzalarni taqsimlash;
- mis buyumga mos biror bir tasvir yoki naqsh kompozitsiyasini tuzish
- chizilgan tasvir yoki naqsh kompozitsiyani buyumga ko'chirish;
- naqsh yoki tasvirning konturlarini o'yish;
- naqsh yoki tasvirning zaminini hamda elementlarini o'yma pardoza pardoqlash;
- mis buyumni dasgohdan olish;
- buyumni tozalash va pardozlovchi ishlov berish.

Dastgohga mis buyumni o'rnatish uchun dastlab dastgohdagi kanifolning yuzasi olov yordamida eritiladi. Eritilgan kanifol ustiga mis buyumni qo'yib mahkam o'rnatiladi. Mis buyum dastgohga kerakli darajada o'rnamasam, ikkinchi marta buyum yuzasini olovda qizitib mis buyum kerakli darajagacha bosib kirgiziladi. Kanifol olovda tez eruvchan va yonuvchan xususiyatga ega bo'lganligi uchun ham, har bir kishidan ehtiyotkorlik hamda yongin xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish talab etiladi.

Dastgohga o'rnatilgan mis buyum sovigandan so'ng uning bezatiladigan yuzalari aniqlanadi. Dastlab bezatiladigan yuzalar atrofida kontur qo'sh chiziqlar (oddiy qalam bilan) chiziladi. Chizilgan chiziqlar ustidan po'lat qalam yordamida o'yib chiqiladi. Faqatgina aylana shakldagi bezatiladigan yuzalar bundan mustasno. Odatda, aylana shakldagi yuzalarning markazi temir pargor yordamida aniqlanadi. Aniqlangan markazda nuqta ko'rinishidagi kichkina o'yma belgi qo'yiladi. Belgilangan markazdan temir pargor bilan bezatiladigan yuzada bezaklarning atrofidagi kontur chiziqlar qirib chiziladi.

Buyum yuzasining yaxlitligi yoki taqsimlanishi oldindan rejalashtirilgan naqsh kompozitsiyaga bogliq. Agarda assimetrik naqsh yoki tasvir bo'lsa yuzalar taqsimlanmaydi. Aksincha, mis buyumni simmetrik naqsh bilan bezatish mo'ljallangan bo'lsa bezatiladigan yuzalar taqsimlanadi. Yubundan tashqari, yuzalarni taqsimlash har bir ustaning ijodiga, tuzilajak kompozitsiyaga, buyumning shakliga va hajmiga bogliq. Masalan mis buyumlarning bezatiladigan yuzasi to'rtburchak shaklga ega bo'lsa, yuzani ikkiga va to'rtga taqsimlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Aylana shaklga ega bo'lgan mis buyumlarining bezatiladigan yuzalarini esa 2, 3, 4, 5, 6, 8, 12 ga taqsimlash mumkin. Yuzani taqsimlashda stirkul va chizgichdan foydalaniladi. Taqsimlangan chiziqlar oddiy qalam yordamida chizib chiqiladi.

Yuza taqsimlari va o'lchamlari aniqlanib, uning bir bo'lagi yoki butun yuzasining o'lchamlari shaffof qogozga ko'chirib olinadi.

Odatda tuzilajak kompozitsiyaning xomakisi oq qogozda bajariladi. Uning dastlabki xomaki chizmalari bir nechta variantlarda bo'lishi mumkin. Xomaki chizmalar umumlashtirilib kamchiliklari tuzatiladi va natijada buyumga mos yangi kompozitsiya yaratiladi.

Kompozitsiya tayyor holatga kelganidan keyin oddiy qalam bilan shaffof qogozga ko'chirib olinadi. Kompozitsiya uzoq muddatga saqlanishi uchun oddiy qalam chizgilari ustidan qora siyohli ruchkada qayta chizib chiqiladi.

Buyum yuzasi ortiqcha narsalardan tozalanadi. Mis buyumning yuzasiga bir bo'lak plastilin surkiladi va uni 3-4 bo'lakka bo'lib qo'yiladi. Buyumning bezatiladigan yuzasiga (shaffof qogozdagi) kompozitsiyani qo'yib uning tagiga qora qogoz qo'yiladi hamda atrofiga platilin bo'lakchalari yopishtiriladi. Keyin esa rangsiz ruchka yordamida kompozitsiyadagi naqsh yoki tasvir chiziqlari ustidan yurgizib chiqiladi. Agar yuza va naqsh taqsimlangan bo'lsa, bu jarayon bir necha marta takrorlanadi.

Mis buyumni o'yib bezashda maxsus po'lat qalam va bolgachadan foydalaniladi. O'yish ishlari po'lat qalamning ustki qismidan bolgachada zarb berish bilan amalga oshiriladi.

Po'lat qalamning o'yuvchi qismi o'tkir uchli va yassi uchli ko'rinishida bo'ladi.

O'tkir uchli po'lat qalamda mis buyum yuzasiga turli xil tasvir yoki naqsh chiziqlarini o'yishda ishlatiladi. Shuningdek, naqshning zamini hamda naqsh elementlarini ham o'yma pardozlashda shu po'lat qalamdan foydalaniladi. Naqshning konturini o'yish va naqshning zaminini o'yish jarayoni esa rasmda ko'rsatilgan.

Bu po'lat qalamning o'yuvchi qismi o'tkir uchli ko'rinishga ega bo'lib, mis buyumni o'yganda o'zidan ingichka chiziq iz qoldiradi. O'tkir uchli po'lat qalamda o'yilgan naqsh chiziqlarining eni odatda 1–1,5 mmni tashkil etsa, ayrim hollarda uning o'lchami 2 mmgacha etishi mumkin. Mazkur po'lat qalamni kandakorlik sohasiga oid adabiyotlarda “chekuv qalam”, ba'zan “naqsh qalam” deb ham yuritiladi.

Hozirgi kunda, badiiy bezatilgan kandakorlik buyumini diqqat bilan kuzatsak o'yilgan naqsh bezaklarning chuqurligi turlicha ekanligini ko'ramiz. O'ymaning turli chuqurlikda bo'lishi, kandakor ustaning didiga, ish uslubiga qarab sayoz, o'rtacha, chuqur va juda chuqur o'yib bezatilishi mumkin.

Ta'kidlaganimizdek, o'ymaning chuqur yoki sayoz bo'lishi buyum metalining yupqa yoki qalinligiga ham bogliq. Masalan, buyumning metali yupqa bo'lsa, sayozroq va aksincha, buyumning metali qalin bo'lsa, o'ymaning chuqurligi ham chuqurroq o'yiladi. Sayoz chuqurlikda o'yilgan o'ymaning chuqurligi 0,2 - 0,3 mmni, o'rtacha chuqurlikda o'yilgan o'ymaning chuqurligi 0,5 – 0,8 mmni va chuqur o'yilgan o'ymaning chuqurligi esa 1 - 1,5 mmni tashkil etadi. Odatda o'ymalar bir marta o'yiladi. Biroq juda chuqur o'yilgan o'yma turi bundan mustasno.

Juda chuqur o'yilgan o'ymaning chuqurligi 1,5 – 2,5 mmga teng bo'lib, bunday chuqurlikdagi o'yilgan bezaklarni bir necha marta o'yish natijasida hosil qilinadi. Mis buyumlarini juda chuqur o'yib bezatish kandakorlik san'atining yangi o'yma usullaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda buxorolik kandakor ustalar bu usuldan keng foydalanishmoqda. Juda chuqur o'yib bezatilgan buyumlarning

ko'rinishi oddiy o'ymakorlik ishlaridan ajralib turadi. Buning sababi shundaki, naqshning zamin qismi qanchalik chuqur bo'lsa, o'yma naqshlardagi soya – yoruglik ham shunchalik kuchli bo'ladi. Natijada, bezatilgan badiiy buyumning ko'rinishiga alohida joziba bagishlaydi.

Yassi uchli po'lat qalamda naqshning zaminini o'yish hamda naqsh elementlarini o'yma pardozlashda ishlatiladi. Bu po'lat qalamning o'yuvchi uchi yassi ko'rinishga ega bo'lib, mis buyumni o'yganda o'zidan keng enli iz qoldiradi. Yassi uchli po'lat qalamda o'yilgan o'ymaning eni 3–5 mmni, o'ymaning chuqurligi 0,3-0,8 mmni tashkil etadi.

Mis kandakorligida o'yma pardoz deganda ikki xil pardozlash, ya'ni naqsh yoki tasvirning zaminini pardozlash hamda naqsh elementlarni pardozlash tushiniladi.

Naqsh yoki tasvirning zaminini o'yma pardozda pardozlash 2 xil usulda bajarilishi mumkin. Birinchisi konturli o'yma usulda bo'lsa, ikkinchisi yassi o'yma usulda o'yilgandan keyin mayda nuqtali pardoz usulida bezatish mumkin.

Konturli o'yma usulda 2 xil ko'rinishdagi o'yma pardozlarni amalga oshirish mumkin. Bular mayin paralel chiziqli, mayin katakli zamin pardoz.

Naqsh yoki tasvirdagi elementlarni yoysimon, pushti baliq, xurshid, yirik katakli o'yma pardozlardan foydalangan holda bezatish mumkin.

Dasgohdagi mis buyumdagi o'yma va pardoz ishlari to'liq tugatilgandan keyin buyumni dasgohdan olib tozalash va pardozlovchi ishlov berish lozim bo'ladi. Buning uchun mis buyumni dasgohga o'rnatish jarayonidagi kabi uning ustki qismiga olov saqlanadi. Ma'lum vaqt va haroratdan keyin dasgohdagi qandal eriydi. Uni ehtiyotkorlik bilan ombur yoki shunga o'xshash maxsus qisqich yordamida olinadi.

Buyumni eng yakunlovchi bosqichida uni qumli latta bilan ishqalab yoki mayin donali "000" markali chilvir qogoz yordamida tozalanadi. Shundan so'ng namatli charx stanokda pardozlovchi ishlov beriladi. Buyumga pardozlovchi ishlov berish jarayonida pastagoidan foydalaniladi. Shunda buyum tilla rangda tovlanib

yaltiraydi. Mis buyum uzoq muddat toza, chiroyli va yaltirab turishi uchun uni rangsiz lokda loklash tavsiya etiladi.

2.5. Buxoro kandakorligi qiyosiy taxlili

O'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'ati turlari ayniqsa, kandakorlik san'atida naqsh turlari, maktablari va ularning o'ziga xos tomonlari, ishlash texnologiyasi hamda buyumlarga mos naqsh kompozitsiyalar tuzish va uni bezash usullari etarli darajada chuqur o'rganilmagan deb hisoblaymiz. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan amaliy san'atini ko'z qorachigidek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muxim vazifalaridan biridir.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu malakaviy bitiruv ishida keltirilgan ma'lumotlar barcha kandakorlik san'atiga qiziquvchilar, kandakorlik to'garagi rahbarlari hamda to'garak qatnashuvchilari uchun o'quv uslubiy ko'rsatma vazifasini bajarishi mumkin.

Kandakorlik san'ati to'garaklarini tashkil etish, kishilarni, ayniqsa to'garak qatnashuvchilarini estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, kandakorlik san'atiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kandakorlik san'ati ham san'at, ham hunar. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan ko'z qorachigidek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san'ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlab kelinayotgan bu amaliy san'at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero, ishlangan takrorlanmas naqshlar inson idrokining, odam his- tuygularining ifodasidir.

2.6. Kandakorlik san'atiga oid lugat terminlar.

Alifbe — misgarlikda mehrob naqsh. Margilon ustalari bu naqshni shunday deb yuritadilar. Bu naqsh turini shunday nomlanishiga sabab eski maktabda o'quvchi qo'lida taxtadan yasalgan mehrobsimon alifbe bo'lardi.

Bodom — bodomni stillashtirib tasvirlangan o'simliksimon naqsh elementi. U bosh kiyim, zargarlik, matolarda, me'morchilik va boshqa xalq amaliy bezak san'ati turlarida ishlatiladi. Bodomni naqqoshlar baxtiqbol ramzi tariqasida ishlatishadi.

Besh sakkiz o'n-ikki raxli girih — geometrik naqshning bir turi bo'lib, kompozitsiya besh qirrali, sakkiz qirrali va o'n ikki qirrali geometrik shakllardan iborat naqsh kompozitsiyasi.

Bargi madohil — barg shaklidagi madohili. Madohili turlaridan biridir. Bu naqsh turi qadimdan ishlatilib kelingan bo'lib xalq amaliy san'atining barcha turlarida qo'llaniladi.

Bargi xurmo — o'simliksimon naqsh turi, xurmo daraxtining bargini naqqosh tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

Guli shashbarg—olti yaproqli guldon tashkil topgan o'simliksimon naqsh turi. Zardo'zlikda va naqqoshchilikda juda ko'p ishlatiladi.

Guli chorbarg — to'rt yaproqli gul naqsh bo'lib, o'simliksimon naqsh turiga kiradi. Xalq amaliy san'atining barcha turlarida ishlatiladi.

Dulava — tuxumsimon va to'rtburchak shaklidagi mis laganlarning yon tomonga qayrilib yana davom etib pastga qayrilgani. Dulava laganlar ajoyib naqshlar bilan bezatilgan. hozir juda kam ishlatiladi.

Jilo — yaltiratish, jilva berish, chuionchi o'yilgan ganch relefiga pardozi berish.

Zanjiran islimn yak raftor — ikki tomonga o'sib boruvchi bir bandli naqsh. Bu naqsh islamiy zanjira turlaridan biri bo'lib, oyguldan ikki tomonga band to'lqinsimon o'sib kurtaklar hosil qiladi. Zanjira yogoch, tosh, ganch, mis o'ymakorligi va boshqa xalq amaliy san'ati turlarida ishlatiladi. Zanjirai islamiy

yak raftorning bir tomonga ba'zan ikki tomonga to'xtovsiz o'sib boruvchi turlari ham bor.

Zamin — o'ymakorlikda va naqqoshlikda naqsh bezagining tagi, foni.

Kandakori tangachanok — sim zardan qilinadigan kandakorlik

Kandakori — mis idishlarga o'yib naqsh solish usuli. Naqsh o'yib ishlash ikki xil bo'ladi. Birinchisi kandakori — ya'ni o'yma sayoz chiziladi. Mis idishlarga o'yilgan naqshlar asosan kandakori bo'lib, chizma esa yordamchi bo'ladi. Chizma naqsh zaminlarni bezashda qo'llaniladi.

Ko'zo'yar qalam — yapaloq uchli kandakorlik asbobi. U naqshlarni ustiga bezak berishda ishlatiladi.

Lavxo'ri — ovalsimon va to'rtburchak mis laganlarning yon tomonga qayrilgan lablari. Bu laganlar usimliksimon, geometrik va ramzii naqshlar bilan juda nafis qilib bezatilgan.

Margula — qo'sh chiziqli gajak — o'simliksimon naqsh elementi. U xalq amaliy san'ati turlari misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik va boshqalarda ishlatiladi. Agar bir novdani uchida ikki margula hosil bo'lgan bo'lsa, uni qo'sh margula deb yuritiladi. Tasvirda novda bilan margula tasvirlangan bo'lsa margulani novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida margula to'ldiruvchi element hisoblanadi.

Oftoba — misdan yasaliy yuvinish uchun qo'llaniladigan idish. Oftoba qorin, dasta, qopqoq, kaft, labaki, sanula, aspak, jo'mrak, qubba, panja, ko'krak, bo'yinlaridan iboratdir. Bu bo'laklarni yasash misgardan katta mahorat va did talab etadi.

Oftoba (samovar) — misdan yasalgan suv qaynatiladigan idish. Shaklan oftobaga o'xshash, suvdon ichida o'txonasi joylashgan bo'ladi. Ruslarning Markaziy Osiyoni zabt qilishigacha qaynar qumgon, qora qumgon yoki qumgon deb yuritilgan.

Oygul — bir necha yaproqli moychechak shaklidagi naqsh elementi, uning yaprogini soniga qarab uch yaproqli, to'rt yaproqli, besh yaproqli oygul va hokazolar deb nomlanadi. U o'simlik naqsh elementi bo'lib, ustalar naqsh

kompozitsiyalar to'qishda juda ko'p ishlatadilar. Oygul naqqoshlar tasavvurida baxtiqbol ramzi tariqasida qo'llanib kelinadi.

Chashmi bulbul — mis idishlarga bulbulning ko'ziga o'xshash zarb qilingan naqsh, Uni bulbul ko'zlari deb ham yuritiladn.

Shabaka — misgarlikda mis idishlarni mayda qilib teshib, ishlangan panjara. Toshkentda sumbarno deb yuritilib, misgarlikda texnikaviy uslub hisoblanadi.

Shobargi islimi — islimi naqshni bir turi bo'lib, u hoshiya hisoblanadi.

Eskiz — xomaki tasvir, qo'l bilan ko'zda chamalab, chizmachilik asboblari siz taxminiy o'lchamlarda bajariladigan xomaki tasvir. Naqqosh, rassom, bezakchi, ganchkor va boshqalar biror narsa yoki uyni bezashdan oldin xomaki tasvirni bajaradilar. Shu eskiz bo'yicha ish bajariladi. Lekin ish jarayonida eskizdagi ayrim narsalar o'zgarishi ham mumkin.

O'ymakorlik — xalq amaliy san'ati turlari ganch o'ymakorligi, yogoch o'ymakorligi, suyak o'ymakorligi, tosh o'ymakorligi va boshqalar bilan shuQullanuvchi soha. Naqsh va biror tasvirni yogoch, ganch (alebastr. gips), metall, tosh, suyak va boshqa materiallarni o'yib, yo'nib, tirnab, chizib, bo'rtib, teshib ishlanadi. O'ymakorlik namunalari bilan bino qismlarini, uyro'zQor buyumlarini bezashda, haykalchalar yaratishda keng qo'llaniladi.

Yulduz gul — yulduz shaklidagi gul, o'simlikimon naqsh elementi. Naqsh kompozitsiyalarda kuda ko'p uchraydigan qadimiy gul.

Yakka barg — bir barg, zardo'zlikda bargning adiiy jilosi.

Qadama — mis buyumlarini qimmatbaho toshlar yoki tagiga rangli qogozlar qo'yilgan oynalar bilan bezashdir. Bunda mis buyumlari o'zining xushbichimligi hamda jiddiyligi bilan kishini o'ziga tortadi.

Qolipak — idishlarga qolip asosida naqsh yaratiladi. Po'latdan yoki brinchdan yasalgan qolip naqshni (o'yib yoki quyib ishlanadi) ustiga mis parchasini qo'yib, ustiga yupqa qo'rgoshin plastinkasini qo'yib asta bolga bilan uriladi. Natijada mis parchalarida naqshlar paydo bo'ladi. Naqshli mis parchalarini mis buyumlarning xohlagan joyiga yopishtirish mumkin.

Qo'shbodom — o'simliksimon naqsh elementi bo'lib ikki bodom nusxasidir.

Qalam — kandakorlikda po'latdan yasalgan xilmaxil naqsh zarb qilinadigan kandakorlik asbobi. Qalamning keskichlari (chilangarlari) po'latdan yasaladi.

Qoshiqi — tuxumsimon va to'rtburchak shaklidagi aais laganlarning yon tomonga qayrilib yoki yana davom etib pastga qayrilgan bo'lib, lablari kungurali bo'lsa qoshiqi deb yuritiladi.

Qumgon — dastasiz, oftobaga o'xshash misdan yasalgan suv idish. Xorazmda qumgon boshqa viloyatlarda oftoba deb yuritiladi. U Markaziy Osiyo xalqlarida uchramaydi. Qumgon nihoyatda qadimiy bo'lib, original ko'rinishga ega. hozirda ko'plab ishlab chiqarilyapti.

Qo'shbarg — birbiriga ulangan ko'rinishdagi ikki katta barg naqsh.

Qanotli — oftoba, yapaloq qorinli choydush bo'lib, qanotli deyilishining sababi oftoba yoki choydushni old tomonidan qaralsa qanotini yozayotgan qushga o'xshab ko'rinadi.

Qizil mis — misgarlikda juda ko'p ishlatiladigan mis turi. Qizil mis qizQish rangli o'tga chidamli bo'ladi.

Qandal — saqichga o'xshash narsa bo'lib, mis laganlarni zarb qilishda, mis laganlarni orqa tomoniga yopishtirib, keyin kandakor naqshlar ishlanadi.

2.7. Kulolchilik san'ati tarixi va rivojlanishi.

KULOLCHILIK – xunarmandchilikning turli-tuman loydan idish, buyum, qurilish materiallari va boshqa ishlaydigan sohasi. Afrosiyobda va Markaziy Osiyoda VIII-XII asrda rivojlana boshlangan. Ayniqsa, o'zbeklar va tojiklar yashaydigan shahar hamda qishloqlarda keng rivoj topgan. Koratog, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Fijduvon, Toshkent, Rishtonda sopol idishlarning sirlab bezatishning o'ziga xos uslublari vujudga kelgan. 1930 yildan Toshkent eksperimental keramika, Samarqandda keramika ustaxonalari, Shaxrisabzda ochildi. Turob Miraliev (Toshkent), Rustam Egamberdiev, Karim Hazratqulov (Shahrisabz), Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov (Rishton), Muhammad Siddiq, Usmon Umarov (Fijduvon) singari o'nlab atoqli kullollar yoshlarga ta'lim berdilar. O'zbekistonda kulolchilik ishlarini rivojlantirish, yoshlardan kullollar tayorlash kullolchilikni tadqiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. Kulolchilik qora loydan mo''jizakor go'zalik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Kulolchilik xunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, togora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlanadigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega.

Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda, toshsimon bo'lib pishishini, undan xar xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar.

Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma erlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu xunar bilan ayollar shugullanganlar.

Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch ming yillikni boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shugullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar. Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib erga sanchib qo'yilgan. Neolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Grestiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlagan.

VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa erlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Yangi ko'tarilish davri bo'ldi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutaffakkirlar, ya'ni Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Firdousi, Rudakilar etishib chiqdi. Butun dunyoga mashxur bo'lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi. Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasi qurildi. XIII asrda mo'gullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yongin ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur ketdi.

XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo territoriyasida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Amir Temur xalq amaliy san'atni rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib, ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur go'zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurirdi. Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. O'rta Osiyda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o'zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham kulolchilik turli erlarda turlicha rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo'la boshladi.

O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari, ularni yuksak did bilan bezay boshladilar. XIX asrda arzon baho chinini ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinini idishlarni to'plab olib keltirilishi O'rta Osiyo territoriyasida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin

arzon sopol idishlarni me'morchilikda keng foydalanishi kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib, Gijduvon, Panjikent, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Ular sopol idishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatliiligi, chiroyliliigi, naqshlarning nafis va ta'sirchanligi bilan shuhrat qozondilar.

1930 yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib, u erda xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. (1943 yilda Shaxrisabzda o'quv-ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi). Kulolchilik sir-asrorlarini mashxur kulollar yoshlarga sitqidildan o'rgatdilar. Bular Rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, Gijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, Toshkentlik Turob Miraliev, Shaxrisabzlik Rustam Egamberdiev, Karim Xazratqulov va boshqalar edi.

Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. 40 yillarda Gijduvondagi "Namuna", Rishtonda "Yangi hayot" artellari faqat jumhuriyatimizda emas, balki butun dunyoga mashhur edi.

Ayniqsa kulolchilikni tadbiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi. **Muhiddin Rahimov** – Toshkent kulolchilik maktabining mashhur kulollaridan biri. Kulol, san'atshunos, rassomlar uyushmasining a'zosi, O'zbekiston xalq rassomi kulolchilik hunarini qarindoshlaridan o'rgangan. Turkiston xalq xo'jaligi kengashi qoshidagi Toshkent badiiy hunarmandchilik maktabi (1918-20). Moskva Silikatlar Instituti (1924-26)da va Leningrad Keramika instituti (1927-29)da o'qigan.U Samarqand va Toshkentdagi qadimiy me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi. Rahimov ijodida an'anaviy o'zbek kulolchiligi bilan zamonaviy sopolchiligi uygunlashgan. Ijodining dastlabki davrida yaratgan buyumlari (Yirik

shaklli erkin hamda quyuq bo'yalgan naqsh bezaklari)da yorqin zamindagi ko'k, yashil, sariq gullar jilosi ajoyib kompozitsiya hosil qiladi. O'rta asrlar kulolchiligini yaxshi o'rgangan Rahimov an'anaviy lagan, guldon va yangi shaklli bezak idishlar, portretli sovga buyumlar yaratdi, ularning bezagida o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda mazmun, hayvon shakllari va yozuvli tasvirlardan mohirona foydalandi. Sopol materiali va bo'yoqlarni o'rganish yo'lidagi izlanishlar samarasi sifatida bir qator asarlar maydonga keldi, masalan, 1961 yilda "Xudojestvennaya keramika Uzbekistana" asari va boshqalar. U Hamza nomidagi san'atshunoslik institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan (1965-71), Toshkent teatr va rassomchilik san'ati instituti (1958-61) va P.Benkov nomidagi Jumhuriyat badiiy bilim yurtida dars bergan (1952-76). Rahimov yaratgan sopol buyumlar Mokvadagi Sharq xalqlari san'ati muzeyi, Leningraddagi Xalqlar etnografiyasi muzeyida, O'zbekiston jumhuriyat muzeylarida saqlanadi. U Hamza mukofoti laureati (1977) bilan mukofotlangan.

Xorazm kulolchilik san'atiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri **Raimberdi Matjanovdir.**

Raimberdi Matjanov - Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O'zbekiston amaliy bezak san'atida alohida o'rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Fargona, Samarqand, Buxoro va boshqa shaxarlar kulolchilik maktabidan o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyasi, koloriti, dinamikligi kishilarga estetik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutadi.

Raimberdi Matjanov Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlogida 1909 yili kulolchilar oilasida dunyoga keldi. O'sha davrda Madir qishlogida o'n besh kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda 80 dan ortiq kulollar ishlar edi. Qoshin pishirishdp o'sha davrda nom qozongan ustalar usta Bolta Matrizaev, Bolta Vaisov, Matjon Qulmatovlar bor edi.

Matjon kulolning o'gli Raimberdi o'z otasidan kulolchilik sir - asrorlarini o'rgana boshladi. U avval loydan har hil o'yinchoqlar, shakllar yasagan bo'lsa, keyinchalik ixcham bodiya, koshinni o'rgandi. Kulolchilik sir-asrorlarini 6 yil deganda o'rganib, Eshim kulolning oq fotihasini oldi. O'zi mustaqil idish va koshinlar ijod qila boshladi.

1930 yili R.Matjonov kooperativ arteliga kirib, kulolchilik ishini davom ettirdi. O'sha davrda kulollar juda kamayib ketgan edi. Uning bu ogir ishlariga turmush o'rtogi yordam berardi.

Usta naqqoshlik sir-asrorlarini mukammal o'rgandi. U shu o'rgangan naqshlarini kulollik bo'yumlariga qo'llashga astoydil intilib, XIX- XX asr Xiva koshinkorlik an'alarini boyitadigan buyumlarini yaratdi. Kulol ishlab chiqarayotgan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalandi. U ranglarni tayyorlash texnologiyasini ham juda yaxshi bilar edi. Idish tayyorlangandan so'ng qo'lda va shtamp yordamida naqsh chiziladi, unga sir berilib oftobda quritilib pechda qizdiriladi. Usta sirni o'zi tayyorlardi. Qoraqumga borib, chogon yoki kirchop yigib darhol o'sha joyda yoqib kulini ustaxonaga olib kelib maydalangan shisha uniga qo'shadi. Ya'ni uch qism kulga bir qism shisha kukuni qo'shiladi. Uni biror idishda suv bilan aralashtirib tayyorlangan bodiyaga surtiladi. Keyin bodiyani o'tda pishirishda o'sha yumaloq suyuqlik o'tga tashlanadi. U o'tda bodiyaga urilib rangini o'zgartiradi. O'sha qum kukunini suv bilan aralashtirib, sovutiladi hamda tozalanadi. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlaydi, so'ngra bodiya sirtiga surkaydi. Kulol Rahimberdi Matjonov shu texnologiya asosida loydan xum, ko'za, togora, chanoq, choynak, piyola, oftoba, bodiya va boshqa xilma-xil badiiy buyumlar tayyorladi.

Xalqimiz "shogirdsiz" usta mevasiz daraxt" deb bejiz aytmagan. Ustani Xorazmda sermeva daraxtga o'xshatishadi, chunki juda ko'p shogirdlar etishtirib chiqardi. O'zbekiston xalq ustalari birlashmasi Rahimberdi Matchonov ustaxonasida hunarmandchilik maktabi ochtirib, u erda hunarmandchilik sir-asrorlarini o'rgatdi. Uning shogirdlari Davron Sa'dullaev, Amin Mirzaev, Maryamjon Matchonova, Mukarrama Sa'dullaevalar hozir badiiy kulolchilik san'atini rivojlantirishda katta hissa qo'shmoqdalar. Tarixiy obidalarni ta'mirlashda usta kulolning xizmatlari katta. 1956 yili Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasini ta'mirlashda qatnashdi. U gumbazning pastki qismi uchun qadimgi uslubda zangori rangda koshinlar tayyorlab bergan, ular hozirgi kunda avvalgidek rangini yo'qotmay turibdi. Kulol yana

Ko'hna Ark darvozasining ikki minorasini va boshqa me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi.

1975 yili Xalq Xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi Bosh komiteti xalq ustasini kumush medal bilan taqdirladi. 1970 yildan beri Rassomlar uyushmasining a'zi Usta Raimberdi Matchonov sehrli qo'llarida sayqal topgan badiiy kulolchilik buyumlari Jumhuriyatimizning turli shaharlarida ham, chet ellarda masalan, Vengriya, Fransiya, Chexoslovakiya, Hindiston, Italiya, Mongoliya kabi xorijiy mamlakatlarda namoyish etilib, faxrli o'rinni egalladi. Uning bodiya, ko'zacha, chanoq, koshin va boshqalari Moskva, Leningrad, Toshkent, Xiva shaharlarida doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

2.10. Kulolchilik texnologiyasi, unga naqsh kompozitsiyasini tuzish usullari va nazariyasi.

Har bir hunarni o'ziga xos mashaaqqatli va o'ziga xos sir-asrorlari bo'ladi. Qadimdan ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o'z shogirdlariga o'rgatib o'zga bolalarga o'rgatmaganlar. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida kulolchilik sir-asrorlarini o'rganib har bir mahsulotni ayniqsa sifatiga, badiiyligicha, foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyiligiga alohida e'tibor berib kelganlar, shuning uchun ular tayyorlagan oddiy sopol piyolasidan tortib, sharq me'morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyiligi dunyo ahlini lol qoldirmoqda, ha bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli goyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar. O'tmishda tuproqdan, qorachiroq, shamdan sarxona, jomashov, xum hamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan, lekin keyingi vaqtga kelib bularga ehtiyoj bo'lmaganligi uchun ular yo'qolib bormoqda. Hozir tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko'p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xom-ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog tuproq, qora tuproq, ko'kimtir qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o'zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi.

Loyi guldon – sershirali loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo'lib, jo'sha loy qo'shilgan bo'ladi.

Chinni loy yoki oq loy-yarim fayans bo'lib, qoramtir loy oqtosh va ishqor qo'shib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan va boshqalar tayyorlanadi. Kesma koshin loy –o'tga chidamli qoramtir loylan, ya'ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan har-xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy-shirachli loyga kvars qumi qo'shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy –patloy yokt tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog tuproqqa qamish qozgogini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko'zagar loy-60-70% plastik yogli loy va 30-40% sog tuproqdan iborat bo'ladi. Undan xum, guldon, ko'za va boshqalar tayyorlanadi. Kulolchilikda shamod, gilvata, bo'yoqlar, angob, charx, mo'yqalam, mola, katta sola, kichkina mola, sim, naqshin qolib, labgir, laganqolib, pargor qalam, kojcord, taroq, tagi qalam, gujmak, tuppa va boshqalar ishlatiladi. Kulolchilikda loyni ustalar har-xil texnologiyada tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilinib, uni tepib, mushtlab pishitiladi. Loyni nam matoga loy tayyorlaydigan xona bo'lib, uyni ichki qismidan hovuzga o'xshash uncha chuqur bo'lmagan joy bo'lgan. Bu hovuz pishiq gishtdan to'shaladi. Loyni har kuni, ya'ni 20 kungacha suv sepib pishitiladi va nam sholchani ustiga yopib qo'yiladi. Kerakligicha loyni tepib mushtlab pishitiladi. Loyni yulib olib stol ustiga urib-urib pishitiladi, shunda loy ichida to'planib qolgan havo yo'qotiladi. Agar loyda havo qolib ketsa, idishni pechkada pishirganda o'sha bo'shliq yana kattalashib idish teshik bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun qancha ko'p loyni pishitilsa, shuncha sifatli maxsulot olinadi. Kulolchilik charxida idishlar tayyorlanadi. Charx asosiy qurol bo'lib, u katta va kichik yogoch gildirakdan iborat bo'ladi. Yogoch o'q bilan birlashtiriladi. Kulol charxining pastdagi katta gildiragini oyogi bilan aylantirib turadi. Yuqoridagi gildirakka loy quyib undan idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idishlar yaxshilab quritiladi. Chunki yaxshilab quritilmasa, keyin pechda yorilib ketishi mumkin. Qurtilgan idishlarni xumda qizdiriladi. Sirlanadigan idishlar sirlanadi, yana xumdonda qizdiriladi.

Qadimdan kulollar ma'lum idish yoki buyum bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladi. Masalan, kosagar, tandirchi, ko'zagar va boshqalar deb yuritiladi. Xorazm badiiy kulol ustalari qadimdan o'ziga xos texnologiyaga ega bo'lganlar. Ular koshin, bodiya xum va boshqa kulolchilik maxsulotlari ustiga beriladigan sirni tayyorlash uchun yozning jazirama issiq oylarida ko'xna Urganch tomonlaridagi qum etaklariga chiqib haftalab chogon o'simligini to'plab, uni yoqib, kulini olib kelganlar. Hozir bu o't juda kamayib ketgan. Bu o'simlikdan tashqari qora o'roqdan ham foydalanganlar. Sentyabr oylarida qora o'roq ayni shirachga to'lgan vaqtida faqat yashil patini yoqib, kulidan ishqor tayyorlaganlar. Ustaxonaga olib keltirilgan chogon va qora o'roqqa qum aralashtirib qo'lni namlab guvala qilinadi va

xumbuzga qo'yiladi hamda uni yuqori daraja issiqlikda qizdiriladi. Natijada u toshga aylanadi. Keyin esa ikkinchi marta xumbuzning tokchasiga qo'yiladi. Yuqori darajada qizdirish natijasida u pastki oxirga oqa boshlaydi va u oppoq rangga o'tgan bo'lsa tayyor bo'lganidan dalolat beradi. Agarda u qoramtitr tusda bo'lsa, shu jarayon yana qaytadan davom ettiriladi. Hosil bo'lgan oq toshsimon ishqorni tegirmonda un holiga keltirib maydalanadi. Bu ishqor unga yangi bugdoy unidan atala pishirib, qozonda qorishtiriladi. Qozonga suv solinib bulgab suyuqlik holiga keltiriladi. Hosil bo'lgan xom ashyo tabiiy ishqor siri deb aytiladi. Tabiiy ishqor siridan tayyorlangan mahsulot yuziga cho'mich bilan sir beriladi. Pechda bu sir 1000-1200 daraja issiqlikda loyga shunday kirishib ketadiki, u issiqlikda ham, sovuqda ham o'z xususiyatini yo'qotmaydigan bo'lib qoladi.

Kulolchilikka xos bo'yoqlar tayyorlash ham o'ziga xos texnologiyaga ega.

Oq rang-bu rang oq tuproq gilvata va 11%gacha oqtoshni mayda qumini qo'shib tayyorlanadi. Uni aralashtirib atala holida tayyorlab buyum yuziga tekis suriladi va keyin naqsh chiziladi.

Ma'lumki, o'zbek kulolchilik san'ati qadimiy davrlardan shu kungacha keng tarqalgan va aholi ehtiyojlarini qanoatlantirib kelgan, muhim kasb-hunar sohasidir. O'zbekiston jabhasida qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan. Bu markazlarda xalq ehtiyoji uchun eng kerakli sopol buyumlar ishlab chiqarilgan va sotilgan.

Hozirgi vaqtda badiiy bezatish uslubi plastik va texnologik xususiyatlari bo'yicha uchta asosiy kulolchilik maktablariga bo'lish mumkin:

Fargona Badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari-Rishton, Gurumsaroy) ; Buxoro – Samarqand badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari – Samarqand, Urgut, Gijduvon, O'ba, Shaxrisabz); Xorazm badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari – Madir va Kattabog qishloqlari). Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, etakchi markaz va ustalari, boshqa maktablardan farqlovchi xususiyatlari bilan belgilanadi. Ular o'z qonuniyatlari doirasida faoliyat ko'rsatadi va asosiy badiiy tamoyillari umumiyligini saqlab keladi.

Fargona badiiy kulolchilik maktabining asosiy xususiyatlari uning aholi etnik tarkibi, joylanishi va tarixiylik tamoyillari bilan bevosita bogliqdir.

Rishton – Fargona maktabining an’alarini o’zida mujassamlashtirgan eng yorqin kulollik markazidir. Keyingi 30 yil ichida (1970 yillardan boshlab) Rishton sopoli an’anaviy badiiy va texnologik usullar asosida qayta tiklandi. 19-asr oxiri 20 asr boshlarida Rishton – O’zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimgi markazlardan biri edi.

Ishqorli sir tayyorlash ham yo’lga qo’yildi. Hozirgi vaqtda bu erda sopol idishlarning yapaloq (kosalar, laganlar) va uzun bo’yli (ko’zalar, xumlar) turlari ishlab chiqarilmoqda. Ilgari ishlar ixtisoslashgan tarzda bajarilardi – yapaloq buyumlarni, ya’ni yapaloq va qisqa bo’yli shakllar yasovchi ustalar – kosagar; baland, bo’yi cho’zilgan buyumlarni yasovchi ustalarni ko’zagar deyishgan. Hozir bunday tasniflash ilgarigi mohiyatini yo’qotgan; ayrim ustalar (I.Komilov, U.Ashurov, X.Sattorov, K.Qosimov, M. Azimov, A. va M. Tojalievlar va boshqalar) ham yapaloq, ham cho’zinchoq shaklli idishlarni yasashadi. Ayni paytda har bir qator kulollar, asosan, o’rta va yosh avlod vakillari (Sh. Yusupov, A.Nazirov, A.Isoqov, A.Usmonov, M.Saidov, R.Usmonov va boshqalar) ko’proq yapaloq idishlar – laganlar yasash bilan shugullanishadi. Rishton maktabida buyumlar shakllarining nihoyatda rang-barangligi ko’zga tashlanadi. Bu erda laganlarning har xil turlari uchraydi, kosalarning turli iariantlari – kosa, shokosa, qo’shquloq, don mahsulotlari uchun katta xumlar ishlab chiqariladi. Bunday buyumlarning ishlab chiqarilishi keyingi 25-30 yil davomida qayta tiklandi va yanada nafis ko’rinishlarga ega bo’ldi.

Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko’p jihatdan buyumlarga naqsh berilishida ko’zga tashlanadi. Uning naqshlar majmui boy va rang-barangdir. O’zbekiston kulolchiligida ishlatiladigan naqshli bezaklar majmuini – handasaviy va o’simliksimon bezaklar, ramziy belgilar, buyumlar tasvirlari, hayvonlar va antropomorfik mavzular tashkil qiladi. Bir qator ustalar (A.Nazirov, A.Usmonov) yapaloq buyumlarga chirmashib ketgan arab yozuvlari orqali bezak bera boshladilar. 1990 yillardagi girih bezaklar orasida to’rsimon naqsh (“chetan”), rombsimon naqsh

(“to’rsimon”), uchburchakli shakllarning bir maromda joylashtirilishi (“uchburchak”), doirasimon shakllarning zanjir shaklida bir tekis berilishi (“zanjir”, “jingalak zanjir”), nuqtali naqsh (“no’xot”), qora va oq kvadratlarning navbat bilan o’rin almashishi shaklidagi naqsh, egri va to’gri chiziqlar shaklidagi, doiracha va tupbarggul shaklidagi mavhumiy – handasiy bezaklar ko’p tarqaldi.

O’simliksimon naqshlar ayniqsa turli-tuman va sermazmundir. Rishton kulolchiligida “chorbarg”, uslub berilgan bodom guli – “bodomgul”, “anorgul”, “barg”, “anor”, “sarv”, o’simlik shoxlari – “islimiy” kabi mavzular ko’proq ommalashgan.

O’simliksimon dunyosiga oid mavzularni talqin qilishda, ayniqsa an’anaviy belgilar bilan bu mavzularning yangicha talqinlari nisbattan yaqqol ko’zga tashlanadi. Rishtonlik ustalar ilgarigi mavzular ko’rinishini xiyol o’zgartirish usuli bilan yangicha tuzilma yaratish yo’lidan borib, bezakning yangi obrazlar timsolida sayqallashishiga erishmoqdalar. Bunday uslub Sh.Yusupov ijodida, shuningdek kulollar A.Usmonov, A.Nazirov, A.Isanov, I.Komilov va boshqalar asarlarida, ayniqsa yorqin namoyon bo’lmoqda. “Bodomgul” va “anor” kabi mavzularning talqin qilinishida tez-tez o’zgarishlar qilib turiladi, ular bir tekisda zich qilib joylashtirilishi tufayli ko’pincha idishlarga bezak berishda etakchi o’rin tutadi.

Buyumlarning tasvirlanish usuli orasida Rishton, shuningdek, Gurumsaroy kulolchiligi uchun “qumgon” mavzui eng ko’p tarqalgan va o’ziga xos xususiyatga ega.

Bunday bezak bir necha o’n yillik davomida, 19-asr oxiridan boshlab yapaloq idishlarning tubiga ishlangan. Rishtonlik ustalar qumgon bilan bir qatorda Fargona pichoqlarini ko’pincha qumgon bilan uygunlikda tasvirleydilar. 1990 yillarning 2-yarmidan boshlab Rishtonlik ustalar ayrim buyumlarning bezaklari sifatida an’anaviy me’morchilik majmualari – minoralar, maschitlar, madrasalarning ma’lum bir ko’rinishidan ham foydalanmoqdalar.

Hayvonot olamiga oid va antropomorfik mavzular Rishton kulolchiligida “parchasi yaxlit uchun” tamoyiliga ko’ra taqdim etilgan, unda inson yoki hayvonlar va parrandalar gavdasining ayrim unsurlari yordamida yaxlitlik goyasi aks ettiriladi.

Masalan, “chashmi bulbul”, “par-pashsha”, “ilon izi”, “xo’kiz shoxi” kabi bezaklar ana shunday ishlangan. Ba’zan bunday naqshli mavzular bir-biri bilan uygunlashib, Rishtonlik ustalar buyumlariga betakror timsol baxsh etadi.

1991-2001 yillar Rishton kulolchiligining rivojida quyidagi tamoyillarni qayd qilish mumkin: rishtonlik ustalar an’anaviy merosni astoydil e’zozlash bilan birga ancha dadillik va keskinlik bilan buyumlar shakllari talqini hamda naqshli bezaklar xarakteriga o’zgartirishlar kiritishyapti. Ular izlanishmoqda, biroq bu hamisha ijobiy samara bermasdan, ba’zan eklektikaga ham olib kelmoqda (masalan, miniatyuraga oid tasvirlar, qora va jigarranglarning Rishtonning an’anaviy moviy rangidan ustunligi va hokazo).

An’anaviy shakllar va naqshlarni izchillik bilan to’laqonlik qilib qayta tiklash, an’analarga so’zsiz rioya qilish o’rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda.

Masalan, “chashmi bulbul”, “par-pashsha”, “ilon izi”, “xo’kiz shoxi” kabi bezaklar ana shunday ishlangan. Ba’zan bunday naqshli mavzular bir-biri bilan uygunlashib, Rishtonlik ustalar buyumlariga betakror timsol baxsh etadi.

1991-2001 yillar Rishton kulolchiligining rivojida quyidagi tamoyillarni qayd qilish mumkin: rishtonlik ustalar an’anaviy merosni astoydil e’zozlash bilan birga ancha dadillik va keskinlik bilan buyumlar shakllari talqini hamda naqshli bezaklar xarakteriga o’zgartirishlar kiritishyapti. Ular izlanishmoqda, biroq bu hamisha ijobiy samara bermasdan, ba’zan eklektikaga ham olib kelmoqda (masalan, miniatyuraga oid tasvirlar, qora va jigarranglarning Rishtonning an’anaviy moviy rangidan ustunligi va hokazo).

An’anaviy shakllar va naqshlarni izchillik bilan to’laqonlik qilib qayta tiklash, an’analarga so’zsiz rioya qilish o’rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda.

Hozirgi paytda Rishtonda 1000 dan ortiq kulollar ijod qilmoqdalar. 1990 yillarning o’rtalarida ustalar Toshkent, Moskv va Sankt-peterburg shaharlarida qator ko’rgazmalarda qatnashdilar. Shulardan 130tasi “Hunarmand” xalq ustalari assostiastiyasining a’zolaridir. 1995 yilda O’zbekiston san’at muzeyi qoshida

Rishton ustalarining “Moviy afsona” mavzuidagi katta retrospektiv ko’rgazmasi bo’lib o’tdi. Shu bilan birga, Yaponiyaning O’zbekistondagi elchixonasiga tashabbusi bilan 1994-1996 yillarda bir qator rishtonlik kulollar ishlab chiqarish markazlari bilan tanishib keldilar. Komastu shahridagi “Kutani” kulollik markazida bo’lib, Asakura-san kulolchilik muzeyida Rishton kulolchilik maktabi namunalaridan iborat doimiy ekspozitsiya tashkil etildi. A. Nazirov an’anaviy “Tashabbus-2001” tanlovida “Yilning eng yaxshi hunarmandi” nominatsiyasi bo’yicha 1-o’rinni egalladi.

O’zining garoyib havorang sopoli bilan mashhur bo’lgan fargona maktabining yana bir markazida – Gurumsaroyda ilgarilari minglab ustalar ishlagan. 1990 yillarning boshida bu erda faqatgina bir usta – Maqsudali Turopov qolgan edi.

Gurumsaroy kulollik markazida Fargona maktabining qadimiy kulollik an’analari ko’p darajada saqlanib qolgan. Bu sopol buyumlarining ishlanish texnologiyasidan badiiy bezatish jarayonigacha namoyon bo’ladi. Gurumsaroy bezaklari Rishton kulollik markazi bezaklaridan ishlanish uslubining alohidaligi bilan ajralib turadi. Gurumsaroy sopol buyumlarida bezakning mahobatli oydinligi va soddalik xosdir. Yana bir o’ziga xos xususiyati bu bezaklarning uzoq o’tmishga taalluqli (arxaik)ligidadir. Odatda bu naqshlar ko’p emas, asosan uch-to’rt xil quyidagi yo’sin o’zgarishlarni uchratish mumkin (“qumgon”, “chorbarg”, “butsimon bezak”, “ko’p burchakli yulduzsimon bezaklar”). Buyumlarning shakli va turlari ham o’ziga xos – diametri yarim metrga etadigan yirik laganlar, o’rtacha hajmdagi kosa va yuzali idishlar, qo’shquloqlar (keng bo’gizli va ikki quloqli kosalar). Gurumsaroy sopol buyumlardagi ko’kmoviy, lojuvard, zangori hamda jigarrang bo’yoqlar gammasi – Gurumsaroy ustalarining an’anaviy ishqorli sirdan foydalanganligidadir. M. Turopov ishqorli sir bo’yoq olish uchun zarur “gulak” o’tini yigishtirishdan tortib, qo’lda qoliplash va naqsh chizishgacha barcha ishlarni faqat an’anaviy usulda bajargan. Ana shunday universallik Gurumsaroy kulollarining ijodini belgilovchi qadimiy xususiyatdir.

1997 yildan boshlab (M. Turobov vafotidan so’ng), Gurumsaroy kulollik san’ati an’analarini M. Turobovning shogirdi Vahobjon Buvaev davom ettirmoqda.

Bir qator tashkiliy va mablag bilan bogliq muammolarga qaramasdan, 1990 yillarning oxiriga kelib, V.Buvaev Gurumsaroy kulollik maktabi an'analarini tiklash bilan birga texnologik jarayonga va buyumlarni badiiy bezash borasida ijodiy yangilik yaratishda samarali izlanishlar olib bormoqda. Bu yangiliklar bezak unsurlarining talqinida hamda shakl yaratish borasida namoyon bo'lmoqda (masalan, Gurumsaroy an'anaviy, diametri yarim metrga etadigan yirik laganlarning hajmini kichraytirish va hokazo).

Gurumsaroylik usta Gafurjon Masharipov, ustози usta – Kenja an'analarini davom ettirmoqda.

Buxoro - Samarqand kulollik maktabining o'ziga xosligi texnologik omil bilan bogliqdir. Idishlarning jarangdor nafis bo'lib chiqishida qo'rgoshinli sir va sargish – yashil, jigarrang bo'yoqlar muhim o'rin egallaydi. Buxoro – Samarqand badiiy kulolchilik markazlari uslubining ichki omillari ko'proq "Afrosiyob" sopoli an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga, idishlarning shakliga ko'ra bu maktab 1990 yillarda o'tgan o'n yillik an'analarini rivojlantirdi. Buxoro-Samarqand kulolchiligida o'simliksimon naqshli bezak turi etakchilik qiladi.

Handasaviy naqshlar esa kamdan – kam hollarda uchraydi va ular handasaviy – abstrakt mazmunli naqshlarda o'zini namoyon etadi. Sopollarni bezashda hayvon va jonivorlarning tasviri ham kam ishlatiladi. Ular asosan Gijduvon kulolchiligida qo'llaniladi. Naqshlarning ishlatilish jarayoni Buxoro - Samarqand kulolchilik maktabining turli guruhii xususiyatlarida kuzatiladi. Gijduvon Shaxrisabz ustalari asosan mo'yqalamda naqshlar ishlasalar, Urgut, Denov ustalari chizma naqshlarni ko'p qo'llaydilar.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabining Gijduvon markazi vakillari Alisher va Abdulla Narzullaevlar kulollar avlodining oltinchi bo'gini hisoblanib, otalari Ibodulla Narzullaevdan meros qolgan kulollik ustaxonasida ijod qiladilar. Narzullaevlar o'z hunarlarini Gijduvon kulollik maktabi an'analarini saqlashga, rivojlantirishga va hunarning sir-asrorini vorislarga etkazishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

Kulollar tomonidan yasalgan tovoq, duobi kosa, mashadi kosa, ko'za, naqshin tovoqlar bilan birga, ularning ijodida 60 dan ortiq an'anaviy shaklga rioya qilish xususiyatlari xosdir. Ular Buxoro – Samarqand kulollik maktabi an'alariga asosan sopol buyumlarga qo'rgoshin tusli sir qo'llaydilar.

Gijduvon kulolchiligining o'ziga xos jihatlaridan biri, unda hayvonlar tasvirining qo'llanilishidir. Ko'pincha ustalar lagan o'rtasidagi tovusning soddalashtirilgan tasviri yoki uning dum qismini joylashtirishadi. “Dumi burgut”, “murgi safid”, “boyqush”, “guli tovus”, “ming oyoq” singari tasvirlar shunday kompozitsiyalardandir. Ular birqarashda xuddi gulsimon naqshga o'xshab ketishi, Gijduvon kulolchiligiga xos qadimiy an'anadir. Aka-uka Narzullaevlar mahalliy kulollik naqshlarini juda mukammal o'zlashtirganlar. Ular yaratgan buyumlarda yangilikni his etish, his-tuygularni bevosita bera olish, an'anaviy shakllarga erkin munosabatda bo'lish kabi xususiyatlar aniq ko'rinadi. Ular ijodida o'ziga xoslikka intilish yorqin namoyon bo'ladi. Gijduvon an'anaviy yo'nalishini saqlagan holda, unga qo'shimcha yangilik taqdim etadilar. Mazkur jihatlariga ko'ra Narzullaevlar yaratgan sopol buyumlar ham an'anaviy, ham zamonaviydir.

Buxoro - Samarqand maktabi Fargona, Xorazm maktablaridan sopol xushtak o'yinchoqlar ishlanadigan markazlarining borligi bilan ajralib turadi.

1980 yillaro'rtalarida, hamda 1990 yillar boshlarida Hamro-bibi Rahimova an'alarini o'balik ikki usta – uning o'gli va shuningdek shogirdi Kubaro Boboevalar davom ettirmoqdalar. Ularning ishlarida an'anaviylik to'la saqlangan, lekin o'zlariga xos shaxsiy mahorat ham sezilarlidir. Bu o'zmga xoslik o'yinchoqlarga beriladigan ranglarda, kompozition-plastik echimning mukammalligida hamda o'lchamlarning barqarorligida namoyon bo'ladi.

Xorazm kulolchilik markazlarida yasalgan badiiy buyumlar o'ziga xos badiiyligi, bezaklari rangi va ishlanish uslubi bilan O'zbekistonning boshqa maktablari ishlab chiqaratgan buyumlardan ajralib turadi. Xorazmda chuqur sopol tovoq – bodiya qadimdan saqlanib kelayotgan milliy shakldir.

Xorazm kulolchiligida naqshlarning turlari unchalik ko'p emas. Ular asosan, geometrik va o'simliksimon bezakli naqshlardir. Ba'zan hayvon va jonivorlar tasviri

ham ishlanadi. Darhaqiqat, badiiy buyumlarning markaziy qismiga geometrik arabeska girih tushirish Xorazm ustalarining o'ziga xos uslublaridan biridir. 1990 yillarda Xorazm ustalarining ijodida qadimiy o'simliksimon naqshlarnin o'zlashtirish jarayoni kuchayib bordi. Ayniqsa, bu jarayon Xorazm kulolchilik maktabining yirik vakillaridan biri R.Matchonov ijodida namoyon bo'ldi. R.Matchonov (Modir markazi) ko'pincha sopol buyumlarga to'q ko'k rangni ishlatadi, shuninguchun ham uning asarlarining aksariyatida havorang –ko'k yoki rangning o'ziga xos to'q tusi ustunlik qiladi. S.Otajonov (Kattabog markazi) esa to'q ko'k rangni kak ishlatadi, buyumlariga ko'proq oq angobdan foydalanadi, shuningdek bo'yoq tarkibiga un qo'shiladi. Shu bilan birga, bugungi kunda Xorazm kulolchilik maktabida davomiylik muammosi birinchi o'rinda turibdi (ya'ni shogirdlik muammosi).

O'tmishda dong taratgan kulolchilik markazlari 1980 yillarga kelib puturdan ketaboshladilar, kulollar o'z ishlarini yigishtirdilar, ularning aksariyatida bu hunarning zarurligi va ijtimoiy jihatdan foydali ekanligigaishonch yo'qoldi. Bu jarayon o'sha davr siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlari bilan chambarchas bogliq edi. 1980 yillarning ikkinchi yarmida bu o'zgarishlar O'zbekistonning deyarli hamma kulolchilik markazlariga ta'sir ko'rsata boshladi. Oqibatda, davomiylik muammolari bilan bogliq bir qator kulolchilik markazlarining kelajagi xavf tuhdira boshladi, Shaxrisabz kulolchilik markazi hamda o'ziga xos sopol o'yinchoqlari markazi bo'lgan Kasbi kulolchilik maktablari yo'qoldi. Gurumsaroyda bitta ustaMaqsudali Turopov qoldi va shu maktabning an'analarini davom ettirish muammosi keskin tus oldi Shuningdek, kulolchilikning katta bir markazi hisoblangan Xivaning Modir qishlogida ham sopol buyumlar ishlab chiqarish sustlashdi.

O'zbek kulollaridan birinchi bo'lib, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining akademigi unvoniga sazovor bo'lgan toshkentlik kulol A.Rahimov, kulolchilik san'atining mumtoz xususiyatlarini rivojlantirish bilan birga, unga yangi mavzular va syujetlar, no'ananaviy naqsh uslublarini olib kiradi. Kiritilgan yangilik va munosabatlar kulollik man'ati tabiatiga mos va uygun tarzda qabul qilinadi. Usta uchun asosiy ijod manbai xalq an'anaviy kulolchilik namunalaridir. Shu bilan birga

A.Rahimov asarlarida faqat xalq ustalarining badiiy tajribasi, boy uslublari aks etibgina qolmay, balki o'zi yaratgan go'zallik dunyosini ham nazokatli tarzda taqdim etiladi. 1990 yillarda usta Sankt-Peterburgda (1991), Bonnda (1992), Yaponiyada(1997) shaxsiy ko'rgazmalar tashkil etdi. Rahimovlar sulolasi kulolchilik san'ati sirlarini ijodiy an'ana sifatida o'gli Alisher davom ettirmoqda.

1990 yillarda O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy hayotining o'z holiga kelishi natijasida, an'anaviy qadriyatlarga diqqat-e'tibor qaratildi. Chet davlatlar bilan aloqalar kengaytirilmoqda. Respublikada bir qator xalqaro muassasalar ochildi. Ular xalq san'atiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdilar. Chunonchi, 1995 yilda bo'lib o'tgan (BMTning 50 yilligi munosabati bilan) 1-respublika yarmarkasida mavjud kulolchilik markazlarining vakillari ustalari maxsus tayyorlagan "Usta guvohnomasi" sertifikatiga sazovor bo'ldilar. Bular o'z maktab an'alarini qadrlab va rivojlantirib kelayotgan ustalar R.Zuhurov (Denov), M.Turopov (Gurumsaroy), I.Komilov (Rishton), Alisher va Abdulla Narzullaevlar (Gijduvon), Namoz va No'mon Obloqulovlar (Urgut), R.Matchonov (Xorazm), A.Rahimov (Toshkent).

1997 yilda mamlakatimiz Prezidenti farmoniga binoan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etildi va bir qator etakchi kulollar – Akbar Rahimov (Toshkent), Sharofiddin Yusupov (Rishton), Xudoyberdi Haqberdiev va Sharif Azimov(Samarqand) – Akademiyaning haqiqiy a'zosi bo'lib saylangani O'zbekiston kulolchiligi an'alarining yuksak mavqei va darajasidan dalolat berdi, shuningdek, bu amaliy bezak san'at turining an'alarini rivojlantirishga samarali turtki bo'ldi.

O'zbekiston kulollik san'atining eng boy merosini saqlab qolgan maskan hisoblanadi. Mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan noan'anaviy kulollik san'ati vakillarida mahalliy madaniyatning tarixiy qatlamlariga qiziqishlari kuzatildi. To'g'ri bu jarayonga rassom kulollar tomonidan 1970-80 yillarda tamal toshi qo'yilgan bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari boy badiiy madaniyatining avvallari ma'lum sahifalarni ochib beruvchi qadimshunoslik va tarixiy fan yutuqlari evaziga erishilgan edi.

1990 yillarda hamma sohada – iqtisodiy, siyosiy va madaniy yo'nalishlarda xalqaro arenaga bevosita chiqish imkoniyatlari keng ochildi. Ayniqsa, oxirgi jabha o'ta boy madaniy va badiiy merosga ega bo'lgan, XX asr rassomlari va ustalari ijodlari bilan samarali hazinaga ega davlatimiz uchun alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

1991-2001 yillar mobaynida O'zbekistonda amaliy san'atning noan'naviy kulolliги bo'yicha turli mavzularni ("Orol fojiasi", "O'zbekiston – Amir Temur vatani", "Buyuk ipak yo'li XX asr: Yangi falsafa" va hokazo) qamragan bir necha xalqaro simpoziumlar o'rkazildi.

Ushbu simpoziumlarda (1990-1992-1995-1996) dunyoning turli xil mamlakatlaridan kelgan etuk ustalar kulollik san'atining eng go'zal namunalarini yaratishga musharraf bo'ldilar. Ushbu xalqaro simpoziumlardan biri 1996 yil 1 maydan 17 maygacha Toshkentda noan'anaviy kulollik man'ati bo'yicha "Buyuk ipak yo'li XX asr: Yangi falsafa" mavzusida o'tkazildi. XX asrda Buyuk ipak yo'li xalqlarning birdamligini, o'zaro anglashlarini, o'zaro bog'likligini ifoda etuvchi ramzga, majozga aylandi, butunlay o'zgarayotgan dunyoning yangi sharoitida madaniy an'analar va ijodiy goyalarining bir-biriga singib borishini, ellarning erkin aralashuvi ruhini namoyon etadi.

Simpozium ishtirokchilari umumiy mavzu doirasida ijodda o'z-o'zini ifoda qilish erkinligini namoyish etdilar. Bu esa ular asarlaridagi kompozistion va texnologik echimlarning rango-rangligini belgilash bilan birga, ayni paytda ustalarning nafaqat ijodiy individualligini, balki ularning qaysi mintaqadan yoki mamlakatdan kelganligini ham ko'rsatib berdi. Simpoziumning shiori uning asosiy ma'nosini anglatib, individual aniq echimlarning yaxlit ekspozitsiyali majmuaga birlashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi. Mohiyat, Buyuk ipak yo'lining yangi falsafasi mavzuiga bag'ishlangan yakuniy ko'rgazma Garbu Sharq zamonaviy madaniyatlarining samarali uchrashuvi ko'rindi. Bu ajoyib yaqinlashuv zamonaviy dunyo kulolliги ko'zгusida qiziqarli mazmun va hayotiylik kasb etdi. Simpoziumda Sharq misolida Qirgiziston, Qozogiston va O'zbekiston kulollari, Garbdan esa Latviya, Shveytariya va Fransiya kulollari asarlari taqdim etildi. Anjuman

davomida o'zbekistonlik kulollar X.Mirzaev "Soat", N.Qo'zieva "Buxorolik qizlar", "Shamchiroq", S.Smolyakov "Zamin xotirasi", X.Xudoyberdiev "Saraton", B.Gulov "Chanqovuz" asarlarini yaratdilar.

Toshkentlik kulol N.Qo'zievaning asarlari mo'jazgina ishlangan. Ular ajoyib kichik muhitga xos hislatga ega bo'lib, shinam va yorqindir, go'yo lirik kuylar yo'grilgandek tuyuladi. "Buxorolik qizlar" asarining nafis ishlangan bosh qismi, o'ziga xos konik shaklidagi "Shamchiroq" shular jumlasidandir. Yoqilgan shamchiroqning chaqnayotgan nurlari uncha katta bo'lmagan teshiklar orasidan taralib turadi. Bu ishning shakl-shamoyili sharq munajjimining bosh kiyimini, yoritib turgan devorlari esa tungi yulduzli osmonni eslatadi. Shuni ta'kidlash joizki, N.Qo'zievaning oxirgi yillarda yaratgan ijodiy namunalari ("Avtoportret" (2000), "Erkak va ayol", "Belgilar sehri"(2001)mavzu qamrovining kengligi, shakl-shamoyillaridagi shartlilik, umumiylik xususiyatlari ustun turishi, rangning mustaqil holdagi ahamiyati, shu bilan birga ijodkor tanlagan leyt-motiv turli talqinda davom etadi.

S.Smolyakovning "Zamin xotirasi" deb nomlangan ko'lamli-fazoviy kompozitsiyasi chor tarafdin tomosha qilishga mo'ljallangan bo'lib, asarda ritm muttasil rivojlanib boradi. Doira markazidan tarqalayotgan qimlarda qum yotqizilgan bo'lib, unda insonning qo'l-oyoqlari izlari aks etib, soat miliga teskari yo'naltirilgan. Bu esa erning aylanishi holatini eslatadi.

Toshkentlik boshqa bir kulol X.Mirzaevning "Soat" deb nomlangan ishi majozga ega vaqtning tutqich bermas qadami ulkan qumsoat tarzida ramziy ifodalangan. Ko'zga ko'rinmas bo'shliqni esa shamotning ko'ndalang o'rnatilgan qismi mujassam etgan.

Samarqandlik kulol X. Xudoyberdievning "Saraton" kompozitsiyasi echimi yana ham qiziqarli. Yozning harorati, saraton taftini his qilish so'ndirilgan oqimtir rangda va fakturaga tik yo'l-yo'l tushirilgan to'lqinlar timsolida muvaffaqiyatli ifoda etilgan. Tomoshabinni sarobni tomosha qilish tuygusitark etmaydi, rangli plastik echim muallifga ijodiy ilhom baxsh etgan qumli dashtliklar, O'rta Osiyoda an'anaviy bo'lgan loysuvoq uylar yuzlari ko'rinishi bilan hamohang bo'lib ketadi.

Qochirimlarga boy bo'lgan xalq madaniyati an'analarga murojaat qilish buxorolik kulol B.Gulovning "Chanqovuz" asarida ham ko'zga tashlanadi. O'tmishda mahalliy aholi tomonidan suv uchun foydalanilgan bu idishlar o'ziga xos talqin qilingan.

Muallif, ko'zani boshlarini osmonga cho'zgan ikki hayvon tanasi o'rtasidan an'anaviy musiqa asbobi o'sib chiqqan holda tasvirlaydi.

B.Gulov folklor-ertak ruhida yo'sinda bezakli naqsh va shakllar yordami bilan xayoliy afsonaviy maxluqning yuzasini bezagan holda o'ziga xos ifoda etadi.

O'zbekistonda o'tkazilgan simpoziumlar shundan dalolat berdiki, Markaziy Osiyo amaliy san'atining noan'anaviy kulolchilik sohasidagi ustalarning ijodiy tamoyillari bir-biriga o'xshamagan holda o'zlarining madaniy-tarixiy an'alariga uzviy bogliq – bu esa adabiy, folklor, epos, afsonalardan foydalanishda ko'riladi. Bunday bogliqlik ularning asarlariga hamisha o'ziga xos kolorit va kerakli tamoyillik baxsh etadi. Badiiy Akademiyaning eo'rgazmalar zalidagi "Navro'z", "Eng ulug va aziz", Mustaqillik bayramiga bagishlangan ko'rgazmalar, shu bilan birga BMT loyihasi bo'yicha "Le Meridian" mehmonxonasida (1998) o'tkazilgan "O'zbekistonning hunarmandchilik buyumlari" savdo ko'rgazmalari so'nggi yillarda an'anaga aylandi.

Ushbu ko'rgazmalarda noan'anaviy kulolchilik asarlari ham io'tirok etmoqda. L. Mikerina – jigarrang, ko'k, moviy ranglar jilosi orqali yil fasllarini aks etuvchi "Dekorativ laganlar" (2001) turkumi bilan, L.Kozlova Samarqand terrakotalariga hamohang, ammo zamonaviy shakl-shamoyillar bilan uygunlashgan va ayol qiyofasida tasvirlangan "Bayram", "Romans", "Shodlik", "Ohangdoshlik" (2001) asarlari bunga misol bo'lishi mumkin. Shu bilan birga bu ko'rgazmalarda noan'anaviy kulolchilik sohasida ko'p yillardan beri samarali mehnat qilib kelayotgan ustalarning ijodiy izlanishlari bilan bahramand bo'lasiz. A.Turgunov asarlari o'ziga xos shoirona matnga, serjilva qatlamga ega "Oqshom", "Suhbat", "Oltin kuz", "Jang" (2000), F.Toshmuhammedov "Taqqdir gildiragi"(1991), "Etuklik" (1996), "Sahovat"(2000) asarlari fikrlashga moyillik tugdiruvchi teran falsafiy mushohadalar va madaniy qadriyatlar in'ikosi bilan yigirilgan bo'lsa, R.Yangibayevning "Sherdor"(1991) asarida tarixiy- madaniy muammolar plastik

tarzda talqin etilgan. Savdo ko'rgazmalarida samarqandlik kulollar X.Haqberdiev va Z.Muxtorov asarlarida turli hayvonlar va qushlarning ko'rinishlarini ifodalash yo'qolib ketgan shakllarni qayta tiklashga bshlgan intilishdan dalolad beradi.

Akademik Sh.Mo'minova asarlari ("Voha", "Kuz", "Sharq ayollari" va hokazolar) shakllari yaxlitligi, makonga o'zaro faol munosabatda bo'ladigan murakkab barokko kompozitsiyalari kabi nafis ifodaviylik, yorqin rangdorlikka erishishda iste'dodli kuloldan katta mahorat sarf qilishni taqozo etadi. U yaratayotgan nafis chinni mahsulotlarda aks ettirilayotgan kompozitsiyalarda personajlarning aniq ta'sirchan tavsifini, syujetlarning o'ziga xos obrazli echimlarini ko'rish mumkin. Shu bilan birga uning asarlarida qator ayollarning nazokatli timsoli mujassam etgan chinni haykalchalarni uchratish mumkin. Rassom kulolning xom-ashyo sifatida chinnidan foydalanishi, undan eng zamonaviy texnologiya asosida ish ko'rib, rango-rang, bezaklari goyat nafis hamda murakkab buyumlar yaratishiga imkon yaratadi.

Davlat yordamini his qilgan ustalar o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligiga e'tibor qilib, manfaatdorlikka erishish uchun ish ko'lamini kengaytirmoqdalar. Bir qator maxsus kichik korxonalar tuzilmoqda.

Agar 70-80 yillarda noan'anaviy kulolchilikdan ko'rgazmalardan tashqari, shahar muhitiga o'rnatish va inter'ernlarda qo'llash keng tus olgan bo'lsa, hozirda zamonaviy mahalliy me'morchilikda ko'proq qo'llanilmoqda. Shu bilan birga shaxsiy imorat qurilishlarida kamin, fontanlar ishlash ham keng tus olmoqda, bu ham Art Biznes (San'at tijorati) bilan bogliq masalalaridan biridir. Noan'anaviy kulolchilik asarlarini shahar muhitida, bog va xiyobonlarda o'rnatish kabi yo'nalish rivoji muammoli sohalardan biri bo'lmoqda.

1991-2001 yillarda kulollar ijodida nafaqat afsona, doston yoki folklor ohanglari va obrazlarini, balki qadimgi va o'rta asrlar tasviriy san'ati yodgorliklarida saqlanib qolgan syujetlarini ham o'z ichiga qamrab oluvchi tarixiy-madaniy muammolar plastik tarzda talqin qilish omiliga aylandi.

Kulolchilikda naqsh kompozitsiyasi tuzish usullari va nazariyasi.

Xalq amaliy san'atining qaysi bir turi bo'lmasin, uning zaminida naqsh elementlaridan tuzilgan kompozitsiya yotadi.

Naqsh kompozitsiyasining bezak elementlari esa tabiatda uchrovchi gul, novda, barg, parranda va hayvonot dunyosini soddalashtirib tasvirlash natijasida hosil qilinadi. Har bir voqea va shaharlarning naqsh kompozitsiyalari bir-biridan o'zaro ajralib turadi. Toshkent, Xorazm, Fargona, Samargand, Buxoro naqqoshlik maktablarining o'z ornament va rang kollaritlari mavjud. Mustaqil naqsh tuzish jarayonida stilizatsiya orqali naqsh elementlari o'zaro biriktiriladi. Naqsh bo'laklarining vazifalari va ravon chizilishiga e'tibor beriladi. Gul, barg, novda, bofta va qo'sh bandlik naqsh elementlaridan naqsh kompozitsiyasi tuziladi. Talabalarning fantaziyalari, mavjud naqsh elementlarini ma'lum qonun-qoidalarga amal qilgan holda joylashtirishda ular ma'lum bilim va malakaga ega bo'lishlari lozimligini taqozo etadi. Birgina "Bodom", "Qalampir" nusxalari shaklidan naqqoshlik, zargarlik, kulolchilik, kashtachilik, zardo'zlik kabi xalq amaliy san'atida turli-tuman o'ziga xos naqsh namunalarini yaratish mumkin. Kompozitsiya tuzish yo'llari va ularning xomaki namunalarini tayyorlash kulolchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, yogoch o'ymakorlik va boshqa amaliy san'at turlari uchun umumiydek ko'rinsada, aslida qo'llaniladigan xom ashyosi, ijro pardozi turlari bilan farqlanadi. Kompozitsiya so'zi lotincha bo'lib "joylashtirish, qurish, tuzish" degan ma'noni anglatadi. Bunda tanlangan naqsh kompozitsiyasiga ko'ra uning elementlari qogoz yuzasida bir-biriga bogliq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi. Tanlangan mavzu mazmuniga mos keladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish uchun bir qancha xomaki eskizlar ishlanadi va ulardan talabga javob beradiganlari tanlab olinib, kompozitsiya tuzishda qo'llaniladi. Naqsh kompozitsiyalar tuzishda bo'laklarning o'rnini almashtirish, qo'shimcha detallar kiritish orqali uning mavzusini yanada boyitish kabilar ham muhim ahamiyatga egadir. Naqsh mavzusining ifodalashda kompozitsiyaning

asosiy qonuniyatlariga rioya qilish lozim. Kompozitsiyada naqsh yaratish muayyan qoidasini simmetriya, assimetriya, muvozanat, detallarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilish tashkil etadi va bunga qat'iy amal qilinadi.

Kulolchilikda mustaqil naqsh tuzish jarayonida ustalar stilizatsiya orqali tuzilgan elementlarini o'zaro biriktiradigan naqsh elementlarining vazifalariga va ularning ravon chizilishiga e'tibor beradilar.

2.11. Buxoro kulolchiligi qiyosiy taxlili.

Buxoro viloyatida joylahgan Gijduvon tuman kulolchiligi boshqa qolgan viloyatlardan farq qiladi.

U asli ranglar va ornamentga boy. Yaqindagina vujudga kelgan emal idishlar umumiy talabini so'ngdirgan bo'lsada, 30 turdan ortiq idishlar Gijduvonda qilingan. Natijada milliy buyumlarning ko'pgina turi o'lchamli piyolalar, guruch yuvish uchun idishlar, asosan laganlar turli o'lchamlarda ishlab chiqarilib sotilgan. Shuningdek yog ko'zasi va suv ko'zasi hamda oftoba ishlab chiqarilgan.

O'ba qishlogi XX-asrning boshlarida mashxur edi. Turli o'lchamdagi idish tovoqlar u erda ishlab chiqarilardi.

Buyumlar nozik did bilan bezatilardi va yuqori sifat talablariga javob bera olardi. Ko'zalarni bezashda to'q kulrang ranglardan foydalanar edilar. Bu an'anani 80 yil oldin usta Azim (Shayton laqabli) boshlagan edi va uslubni sir saqlangan edi.

Gijduvon o'yinchoqlari ham juda mashxurdir. O'ba qishlogining butun axolisi ular ustidan qish fasli mobaynida ishlardilar.

Qushlar, hayvonlar va kichkina ko'za shaklidagi o'yinchoqlar churgurak deb aytilar edi. Hozirgi kunda Hamro Rahimova shu kasb ustasi hisoblanadi. Uning 400 ta o'yinchoq uchun mo'ljallangan kichik tandiri bor. O'yinchoq yaratish jarayonini uning o'gli amalga oshiradi. Ba'zan nevarasi va o'gli usta Abduqahhor unga ko'maklashadilar. Usta Fatxullo ham o'yinchoq yasaydi. U 4 turdagi ot va ot minuvchi, kema va sher bolasi shakllarda o'yinchoq yasaydi.

Undan tashqari qushlar, tovuq, tuyalar ham yasab, ularni 4 ta rangga bo'yagan. Bular: qizil, yashil, sariq va to'q jigar.

Ustalar bo'yashda chetlarini afzal ko'radilar.

Gijdivonda ranglar qarama-qarshiligini tenglashtirib bo'lmaydi.

Idishning markazi ikki yo'l bo'ylab chegaralanadi. Bazan markaziy maydonda 1 yoki bir necha simmetrik joylashgan tuzumni yaxshi bichim bilan naqshlangan bo'ladi. Odamda bu mehrob chizigi markazdan yosh ikki burchak tomondan chiziqli formulasida maydonda kesishi bilan boshlanadi, ularning orasida to'rt aylana burchakli uchburchaklar bor.

Xulosa

O'zbekistonning mustaqilligi milliy madaniyatimiz, ayniqsa xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi taraqqiyotigina keng yo'l ochib berdi. Qadimdan rivoj topib kelayotgan naqqoshlik, ganchkorlik, yogoch o'ymakorligi, badiiy kulolchilik, misgarlik, kashtachilik turlari yana gurkirab o'sa boshladi, uning milliy badiiy an'analari yanada rivojlanmoqda.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 346 – sonli qarorida 1997 yili “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab – quvvatlash chora tadbirlari to'grisida-gi qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

Albatta, bunday qaror amaliy san'at rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi, barcha viloyatlarda xususiy ustaxonalar ochilgan, ularda ko'plab yoshlar san'at sirlarini o'rganmoqdalar, badiiy asrlar yaratmoqdalar.

O'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozition tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'ati turlari ayniqsa, kandakorlik san'atida naqsh turlari, maktablari va ularning o'ziga xos tomonlari, ishlash texnologiyasi hamda buyumlarga mos naqsh kompozitsiyalar tuzish va uni bezash usullari etarli darajada chuqur o'rganilmagan deb hisoblaymiz. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan amaliy san'atini ko'z qorachigidek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muxim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir.

Tikuv tarz-tariqalarining bir qancha uslubiy xususiyatlari va tahliliga hamda ularning tayyorlanish jarayoniga asoslanib, XIX asr va XX asr boshlaridagi Buxoro

zardo'zlik yodgorliklariki to'rt guruhga ajratish mumkin. XIX asrning 30—60 yillari; II—XIX asrning 70—80 yillari; III—XIX asrning 90-yillari; XX asrning birinchi o'n yilligi; IV—XX asrning ikkinchi un yilligi. Birinchi asrga oid zardo'zlik yodgorliklari, eng avvalo, o'zining oddiyligi na mukammal uslubga ega ekanligi bilan diqatni tortadi. Ularda aks ettirilgan islamiy kompozitsiyalar qanchalik oddiy bo'lsa, kashta gullari ham shunchalik ravon va jozibadordir. Kashtalar u qadar yirik bo'lmay, aksariyat hollarda butun maydonni bir tekisda to'ldirib turadi. Tagzaminning ma'lum kismiga kashtalar tiqilib, buyumga ortiqcha zargarlik bezaklari va taqinchoqlar bilan zeb berilmagan. Zardo'zlikda ko'pincha o'girilgan zar va kumush iplar, buyumning ayrim kislari uchun esa eshilgan zar (kumush) ni kullanilgan. Bu davrga oid buyumlarning chok kashtalari uchun juda oddiy bo'lgan naqshlar tanlangan (mavji yak ro'ya va mavji du ro'ya, bulbulko'z, mavji chor dar chor).

Xomashyo takchilligi tufayli usta zardo'z bu kashtalarni katta maxorat va nozik did bilan ado etgan. Gul bosishdagi rang turlari goyat cheklangan sharoitda tikishlarning turli-tuman kombinastiyalaridan barakali foydalangan va nur va soyalar uynoqiliginu kuchaytirish maksadida kator texnik usullarni qo'llagan holda zardo'zlar buyumlarga chuqur badiiy ma'nodorlik bagishlashga muvaffaq bo'lganlar. Material sifatida sidirga rang silliq barqut, ayrim hollarda atlasni tanlangan zardo'zlar o'zlarini yuksak badiiy sezgirlikka ega ekanliklarini namoyon etganlar. Olovrang dizildan tortib nopormon qizilgacha bo'lgan o'nlab tusda tovlanuvchi bunday barqut eng maqbul material deb xisoblangan. Goh-gohda nopormon barqut bilan moviy atlas ham ishlatilgan. Turli ko'rinishlarda tasvirlanuvchi butador va darham yo'lidagi gullar, darhami daraxt yo'lidagi engil erkin poziqiyalar, yoxud asosan 30—40 yillarda keng rasm bo'lgan guli chinni — xrizantema kashtalarini zardo'zlar o'z ishlarida bajonidil qo'llaganlar.

Bu davr zardo'zligida jiyaklar so'nggi davrga oid buyumlardagidek hali ancha taraqqiy topmagan edi. Jiyaklar nisbatan ensiz, oddiy bo'lsada, kashtalari hamisha nafis tiqilgan: u islamiy — nozik o'simlik novdasi, goho islamiy du raftora — ikki yo'ldan iborat o'simlik novdasi ko'rinishida ifodalangan. Jiyak qirgoqlari ensiz

silliqlik yoʻl — oba yoki boʻrttirib tiqilgan obi loʻla tikishi bilan aylantirib chiqilgan. Bunday jiyakning ichki qatori boʻylab engilgina kungura nusxa yoʻl oʻtqazilgan. Oʻzining uslublashtirilgan xususiyatiga kura, 1224 yil xijriy (1809—1810) deb sana qoʻyilgan, yuqorida zikr etilgan mahsilar ham zardoʻzlik buyumlarining shu guruxiga mansubdir.

Dastlabki davr uslub xususiyatlarini deyarli butunlay saqlab qolgan boʻlsa-da, 70—80-yillar zardoʻzligi oʻzining xos xususiyatlariga ham egakim, bu hol uni alohida guruhga ajratishni taqozo etadi. Butador (uning turlaridan biri butadori tavqonok) xilidagi kompozitsiyaga ega boʻlish, sidirga rang mayin barqutlardan foydalanish, odmi tikish usullarini qoʻllash, islamiy xilidagi jiyaklarning mavjudligi singari 70-yillar kashtalariga xos boʻlgan uslub xususiyatlaridan tashqari buyumiing bejirimligiga, tantanavorligiga va boʻyoqlarining yorqinligiga erishish uchun boʻlgan intilishni ham koʻramiz. Ranglar yorqinligiga, birinchidan, zardoʻzlik tikishida rangdor shoyidan koʻproq foydalanish va unga barqutni «edirish», ikkinchidan, rangarni ochadigan bir qancha yangi tikuv yoʻsinlarini qoʻllash orqali erishilgan. Kashtaning ayrim qismlari uchun qoʻllanadigan va unga goyat yarashib turadigan, bundan tashqari gullarning girdini aylantirib chiqishda ishlatiladigan zar ip yoki zar aralashtirilib eshilgan ipak ipdan foydalanish diqqatga sazovordir. Kashtalarga maʼlum darajada mayinlik bagishlab, rangini ochib yuboradigan rangli ipak erishlar ham (pushti, toʻq qizil, moviy, yashil, nopormon) bu davrga xos boʻlgan asosiy belgilardandir. Zardoʻziy birishimdoʻziy deb nomlangan murakkab texnikali zardoʻzlikning oʻziga xos turi ham aynan mana shu davrga taalluqlidir.

Gullari fabrikada toʻqilgan gazmollardan olingan daraxt xilidagi islamiy kompozitsiyalar va butador xilidagi dabdabali, bezakli kompozitsiyalar islamiy naqshlarning talqinidan oʻtkir reallikni saqlab qolgan (bu 70-yillarning boshlarida voqeʻ boʻlgan), biroq shunga qaramay, naqsh va milliy bezaklarni geometrik shaklga solishga, uslublashtirishga intilish, umuman olganda, xuddi shu davrning xarakterini belgilaydi. Dastlabki davr kashtalaridagi gul butodlari ancha real ifodalansa, bu erda turli koʻrinishdagi xurmo yaproqlari, salib koʻrinishidagi girid

va hokazo vositalar orqali talqin etiladi. Kashtalar hajmi jihatidan «o'sa» boshlaydi. Dastlabki davrga xos bo'lgan, yaproqnusxa kashta daldasi bilan durshalgan mayda gul girihlarni naqshli yirik daldalar sidib chiqaradi (diametridan 30—40 santimetr).

80-yillar oxirida esa ancha murakkab yangi kashtalar yuzaga keldi, tagzamindagi oralid bush joylarni ikkinchi darajali elementlar bilan to'ldirishga intilish paydo bo'ldi. Kashta gullari ayrim-ayrim shoxobchalarga ajralib ketdi. Dastlabki davrga oid bo'lgan islmiy kashtali ensiz, odmi jiyaklar xiyla murakkablashdi. Uchinchi davr zardo'zlik yodgorliklari uchun taalluqli bo'lgan keng «ochih» jiyak turlari bunyodga keldi.

Bu davr (80-yillarning oxiri) tun zardo'zligida katak-katak barqutlar keng miqyosda dhllanila boshladi. Qizil mayin barqutlardan tashqari och ko'k va nopormon Barqutlar iste'mol qilinardi. Bu davr zardo'zligining yana bir O'ziga xos tomoni bu toqnishon deb atalgan usul hisoblanadi. Gazmol ustiga rangli shoyidan to'shama qo'yilib, ustidan kalyobatun bilan mayda katakchalar tikib chiqilgan.

90-yillarning boshida (1893 yil) zar iplarning yangi navlari ko'p miqdorda ishlab chiqarilib, ular rangli ipak iplarni deyarli batamom siqib chiqardi va umumiy tikish uslubini ham tubdan o'zgartirib yubordi.

Uchinchi davr (1890—1900 yillar) zardo'zligi tikishining haddan ortiq milligi, detallarining ko'pligi, ko'pincha ishining zargarona uta nozikligi bilan ajralib turadi. Turli kurinishdagi bo'rtiq girihlar, yulduzchalar va shunga o'xshagan boshqa bezaklar buyumga o'zgacha zeb berib turgan, ular a'lo sifatli zar sim bilan tiqilib, rangli shoyi iplarda goyat hafsala bilan jilo berilgan. Butun kashta yuzasi buylab sochilgan bunday bezaklar qimmatbaho zargarlik taqinchoqlarini esga soladi. Tagzaminning ochiq joylari qo'shimcha elementlar bilan zich tiqilib to'ldirilganidan gazmolning rangi gira-shira ko'rinib turgan. Jiyak kashta hoshiyasini to'ldirishi bilan barobarida uning salmogini ham oshirib yuboradi. Milliy naqshlar islmiy elementlarning uslublashuvi va geometrik shakllar kasb etishi tobora takomillashib boravergan.

Butador xilidagi butoqlar kashtasi ancha ilgari mumkin qadar real narsa deb talqin etilar edi, 1890—1900 yillar buyumlarida esa ular ichi mayda islimiy uslublashtirilgan naqshlarga tula yirik-yirik cho'zinchoq doiralar, kvadratlar, halqalar va hokazo ko'rinish kasb etgan. Milliy naqshlar ichida davhur kompozitsiyasi alohida o'rin tutadi. Bu davr zardo'zligida paydo bo'lgan rango-rang gulli barqutlar aynan shu turdagi kiyimlar tikishda foydalanilgan. Bunda gazmolning ancha-muncha Kismi kashtagullardan xoli qolib, a'lo barqut o'zining qiymatini yo'qotmagan. Ayrimlari 25—27 santimetr enlikdagi «ochiq» maydonlar vam xuddi shu milliy naqshlardan andoza olib tiqilgan.

Bu davr zardo'zlik yodgorliklaridagi darham va butador kompozitsiyalari dabdabali liboslarga zeb berishda foydalanilgan, darhami daraxt kompozitsiyasi esa sira uchramaydi.

XX asrning ikkinchi un yilligi zardo'zlik buyumlari bizgacha goyat kam etib kelgan. Shu boisdan bu davr umumiy uslubi haqida bir narsa deyish qiyin. Umuman olganda bu ham 1890—1900 yillardagi goyat serhasham zardo'zlik uslubidan uncha farq qilmagan, biroq uning shunday o'ziga xos xususiyati ham borki, bu davr buyumlarini alohida tahlil qilishga to'la asos bo'la oladi. 1890—1900 yillar uchun xos bo'lgan buyumlar va texnik uslublar rango-rangligi bu erda ko'zga tashlanmaydi. Usta zardo'z imkoni boricha oz narsa imlatib, soz buyum yasashga tirishadi — u birgina ip — zar yoki kumush «sim»dan foydalanadi. Natijada kashta shunday bir orir manzara kasb etadiki, keragidan ortiqcha — yarqirab turgan zarrin rang kishi gashini keltirib, noxush kayfiyat paydo qiladi. Bunda biz zardo'zlikning na o'tgan asr 70—80 yillariga xos bo'lgan rangdorlikni, na 1890—1900 yillariga xos bo'lgan zavqyob jimjimadorlikni ko'ramiz. Boy bezagi va yorqin tovlanib turishi zardo'zlik bilan aslo chiqisholmaydigan rang-barang gulli barqutlar nisbatan so'nggi davrlarda yaratilgan buyumlarning ko'rkamligini oshirish u yoqda tursin, balki ularning badiiy hiymatiga putur etkazdi.

O'rta Osiyoning mohir ustalari qulida barq urib gullagan Buxoro zardo'zlik san'ati o'zining badiiy qiymati bilan muhim o'rin tutadi. Necha asrlar davomida usta zardo'zlar tikishning eng ajoyib yo'llarini topdilar va uni takomillashtirdilar.

Ranglardagi nazokatni chuqur his etilgan holda ochiq rangli shoyilar zardo'zlikka tatbiq etila boshlandi. Milliy naqshlarning ayrim elementlari va kompozition tuzilishlari beqiyos xayolot mahsuli ekanligi aslo sir emas. An'anaviy talqinlarning keng miqyosda qo'llanilishi va an'anaviy kompozition sxemalarning mo'lligiga qaramay, bunda qotib qolgan andaza yoki shablondan asar ham ko'rmaymiz. Bular hammasi ustalarning Uzbekistan xalqlari madaniy merosi xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladigan chinakam san'at durdonalari yaratishiga imkon beruvchi qizgin ijodiy mehnatdan darak berib turibdi.

Kandakorlik san'ati ham san'at, ham hunar. U asrlar mobaynida otabobolarimiz tomonidan ko'z qorachigidek asrab-avaylab kelingan xalq amaliy bezak san'ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlab kelinayotgan bu amaliy san'at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero, ishlangan takrorlanmas naqshlar inson idrokining, odam his- tuygularining ifodasidir.

Buxoro viloyatida joylahgan Gijduvon tuman kulolchiligi boshqa qolgan viloyatlardan farq qiladi.

U asli ranglar va ornamentga boy. Yaqindagina vujudga kelgan emal idishlar umumiy talabini so'ngdirgan bo'lsada, 30 turdan ortiq idishlar Gijduvonda qilingan. Natijada milliy buyumlarning ko'pgina turi o'lchamli piyolalar, guruch yuvish uchun idishlar, asosan laganlar turli o'lchamlarda ishlab chiqarilib sotilgan. Shuningdek yog ko'zasi va suv ko'zasi hamda oftoba ishlab chiqarilgan.

O'ba qishlogi XX-asrning boshlarida mashxur edi. Turli o'lchamdagi idish tovoqlar u erda ishlab chiqarilardi.

Buyumlar nozik did bilan bezatilardi va yuqori sifat talablariga javob bera olardi. Ko'zalarni bezashda to'q kulrang ranglardan foydalanar edilar. Bu an'anani 80 yil oldin usta Azim (Shayton laqabli) boshlagan edi va uslubni sir saqlangan edi.

Gijduvon o'yinchoqlari ham juda mashxurdir. O'ba qishlogining butun axolisi ular ustidan qish fasli mobaynida ishlardilar.

Qushlar, hayvonlar va kichkina ko'za shaklidagi o'yinchoqlar churgurak deb aytilar edi. Hozirgi kunda Hamro Rahimova shu kasb ustasi hisoblanadi. Uning 400 ta o'yinchoq uchun mo'ljallangan kichik tandiri bor. O'yinchoq yaratish jarayonini uning o'gli amalga oshiradi. Ba'zan nevarasi va o'gli usta Abduqahhor unga ko'maklashadilar. Usta Fatxullo ham o'yinchoq yasaydi. U 4 turdagi ot va ot minuvchi, kema va sher bolasi shakllarda o'yinchoq yasaydi.

Undan tashqari qushlar, tovuq, tuyalar ham yasab, ularni 4 ta rangga bo'yagan. Bular: qizil, yashil, sariq va to'q jigar.

Ustalar bo'yashda chetlarini afzal ko'radilar.

Gijdivonda ranglar qarama-qarshiligini tenglashtirib bo'lmaydi.

Idishning markazi ikki yo'l bo'ylab chegaralanadi. Bazan markaziy maydonda 1 yoki bir necha simmetrik joylashgan tuzumni yaxshi bichim bilan naqshlangan bo'ladi. Odamda bu mehrob chizigi markazdan yosh ikki burchak tomondan chiziq formulasida maydonda kesishi bilan boshlanadi, ularning orasida to'rt aylana burchakli uchburchaklar bor.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1993. - 363 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: O'zbekiston, 1998. - 64 b.
3. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008.
4. Abdullaev T. XIX –XX asrlarda o'zbek kandakorlik san'ati .T.1973.
5. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: 1991.
6. Abdullaev T., Faxretdinova D., Hakimov A. Ma'danga bitilgan qo'shiq .T.1986
7. Bulatov S.S., Tolipov N. Go'zallik falsafasi. T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2008.
8. Bulatov S.S , Qosimov J.T., Muxsinov S.I., Habibova M.M.
O'zbek milliy kandakorlik san'ati . T 2003
9. Halimova D .A .Buxoro kandakorligi . Buxoro 1996
10. Bulatov S.S, Qosimov J.T., Avliyoqulov M.M . Kandakorlik san'atiga oid lugat terminlari . T. 2003
11. Halimova D, Muxsinov S. Mis kandakorligi (o'quv qo'llanma) Buxoro 1994 y.
12. O'zbekiston san'ati. - T.: Sharq, 2001. 69-72 b.
13. O'rolov A.S., Mo'jiza yaratish san'ati. – T.: Mehnat, 1996. 93-105 b.
14. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. T., «O'qituvchi», 1969.
15. Azimov I. «O'zbekiston naqshu nigoralari.— T., G. Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987
16. Bulatov M. S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX—XV vv.— M., «Nauka», Glavnaya redaktsiya vostochnoy literatury, 1978.
17. Muhsinova A, Avliyoqulova Sh, Qosimov J. “Kandakorlik buyumlarini bezashda foydalaniladigan bezak va tasvir turlari”. (Ilmiy maqola, tezislar to'plami.) Buxoro.2008 y. 263-264 b.

18. Mirzaahmedov M. A. Boshlangich badiiy naqsh ishlash metodikasi, Toshkent, «O'qituvchi», 1976.
19. Mirzaahmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. T., «O'qituvchi», 1986.
20. Hasanov R. Boshlangich sinflarda naqsh chizish metodikasi.— Toshkent. O'qituvchi, 1972.
21. Qosimov Q. Naqqoshlik.— Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1982.
22. Muxsinov S, Qosimov J. Xalq amaliy bezak san'atida Buxoro kandakorligi san'atining o'rni va ahamiyati. Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlash samaradorligini oshirish masalalari. T, (Ilmiy maqola, tezislar to'plami.) 2008. B 172-173.
23. Muxsinov S., Qosimov J., Muxsinova A. Kandakorlikda ishlatiladigan po'lat qalamlar va ularda bajariladigan o'yma turlari. Oliy ta'lim tizimida musiqa, tasviriy va amaliy san'at fanlarining dolzarb muammolari. Buxoro. (Ilmiy maqola, tezislar to'plami.) 2010. B 38-40.

ILOVALAR

